



**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MARKAZIY  
BANKI**

# **YILLIK HISOBOT 2023**

Toshkent 2024

## QISQARTMALAR

ACCA	Association of Chartered Certified Accountants ( <i>Sertifikatlangan Diplomli uxgalterlar Assotsiatsiyasi</i> )
AFI	Moliyaviy ommaboplik alyansi
AITB	Aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
ARIMA	Autoregressive integrated moving average ( <i>Ekonometrik model</i> )
AT	Aksiyadorlik tijorat
ATB	Aksiyadorlik tijorat banki
ATIB	Aksiyadorlik tijorat ipoteka banki
BigTech	Yirik texnologik korxonalar
BMT	Birlashgan millatlar tashkiloti
CFA	Chartered Financial Analyst ( <i>Sertifikatlangan moliyaviy tahlilchi</i> )
CIR	Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi
DQQ	Davlat qimmatli qog'ozlari
DSGE	Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli
DSTI	Kredit to'lovining daromadga nisbati
ESG	Environmental, social, and governance ( <i>Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv</i> ) reytingi
FATF	Financial Action Task Force on Money Laundering ( <i>Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh</i> )
FZT	Federal rezerv tizimi
ICHNI	Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi
INI	Iste'mol narxlari indeksi
IPO	Initial Public Offering ( <i>Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish</i> )
KATM	"Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi" MChJ
LCR	Likvidlilikni qoplash me'yori ( <i>Bank tizimida qisqa muddatli likvidlilik ko'rsatkichi</i> )
LTV	Kredit summasini garov summasiga nisbati
MBK	Moliyaviy barqarorlik kengashi
MChJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
MHXS	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
MIDAS	Mixed-data sampling ( <i>Ekonometrik model</i> )
MTB	Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar
MUNIS	Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi

NFC	Near field communication ( <i>Qisqa masofali kontaktsiz to'lov texnologiyasi</i> )
NKT	Nobank kredit tashkilotlari
NOK	Narxlarni onlayn kuzatish tizimi
NPL	Nonperforming Loan ( <i>Muammoli kreditlar</i> )
NSFR	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori ( <i>Bank tizimida uzoq muddatli likvidlilik o'rsatkichi</i> )
OAV	Ommaviy axborot vositalari
OPEK+	Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti
OTP	Bir martalik tasdiqlash kodi
PMI	Global iqtisodiy faollik indeksi ( <i>Purchasing Managers' Index</i> )
PwC	"PricewaterhouseCoopers" xalqaro auditorlik tashkiloti
QQS	Qo'shilgan qiymat solig'i
ROA	Bank tizimi aktivlar rentabelligi
SDR	XVJdagi mablag' jalb qilishga doir maxsus huquqlar
SupTech	Markaziy bank tizimida samarali va yuqori texnologik nazorat tizimi
XAB	Xususiy aksiyadorlik banki
XATB	Xususiy aksiyadorlik tijorat banki
XMI	Xalqaro moliya institutlari
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti
XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
YaIM	Yalpi ichki mahsulot
YLA	Yuqori likvidli aktivlar
YTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>7</b>
<b>I. 2023-YILDA ICHKI VA TASHQI MAKROIQTISODIY SHAROITLAR .....</b>	<b>13</b>
1.1. Ichki iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi .....	13
1.1.1. Iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi omillar .....	13
1.1.2. Ishlab chiqarish faolligi va mehnat bozori.....	16
1.2. Tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi.....	23
1.2.1. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar .....	30
1.2.2. Global iqtisodiyot va jahon xomashyo bozorlaridagi o‘zgarish va kutilmalar .....	34
1.3. Inflyatsion jarayonlar va kutilmalar .....	37
1.4. O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei ko‘rsatkichlari.....	44
<b>II. 2023-YILDA BANK TIZIMI RIVOJLANISHI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGI.....</b>	<b>49</b>
2.1. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati .....	49
2.1.1. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari.....	53
2.1.2. Tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar tahlili .....	56
2.1.3. Banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qo‘llanilgan prudensial va makroprudensial chora-tadbirlar .....	59
2.1.4. Aholining qarz yuki .....	63
2.2. Bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari .....	64
2.3. Kredit va to‘lov tashkilotlari infratuzilmasi .....	68
2.3.1. Faoliyat yuritayotgan kredit va to‘lov tashkilotlari .....	68
2.3.2. Kredit axborotining davlat reyestri, Kredit byurosi va Garov reyestri faoliyati.....	69
2.3.3. Aholi omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish .....	72
2.4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining samaradorligi.....	73
2.5. Kredit va to‘lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish .....	79
2.5.1. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish .....	79
2.5.2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish .....	84
2.5.3. To‘lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish .....	85
2.5.4. Tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini amaliyotga joriy etish.....	87
2.5.5. Moliyaviy monitoring, iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish .....	88
<b>III. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT, VALYUTA VA KOMMUNIKATSIYA SIYOSATI BORASIDAGI FAOLIYATI .....</b>	<b>91</b>
3.1. Narxlar barqarorligini ta‘minlash .....	91
3.1.1. 2023-yilda pul-kredit sharoitlari va instrumentlari tahlili.....	91

3.1.2. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmidagi o‘zgarishlar .....	94
3.1.3. Banklararo pul bozori faoliyati tahlili va foiz stavkalari .....	95
3.1.4. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar tahlili .....	97
3.2. Valyuta siyosati va valyuta operatsiyalari tahlili .....	100
3.2.1. Tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha mablag‘lar harakati tahlili .....	101
3.2.2. Jismoniy shaxslar bilan valyuta operatsiyalari .....	104
3.3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini boshqarish .....	108
3.3.1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi va tarkibining tahlili .....	109
3.3.2. Xalqaro zaxiralarning yetarlilik ko‘rsatkichlari va ularning tahlili .....	112
3.4. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati .....	116
<b>IV. MILLIY TO‘LOV TIZIMINING RIVOJLANISHI, BANK TIZIMIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI, AXBOROT MUHOFAZASI VA KIBERXAVFSIZLIK .....</b>	<b>121</b>
4.1. Markaziy bankning to‘lov tizimlari faoliyati .....	121
4.2. Bank kartalariga asoslangan chakana to‘lov tizimlarining rivojlanishi .....	124
4.3. To‘lov xizmatlari bozorida fintex kompaniyalari faoliyati .....	128
4.4. To‘lov tizimlari va tijorat banklari axborot tizimlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta‘minlash .....	131
4.5. Markaziy bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish.....	133
<b>V. PUL MUOMALASINI TASHKIL ETISH .....</b>	<b>135</b>
5.1. Naqd pul aylanmasi va uning o‘zgarish dinamikasi.....	135
5.2. Muomaladagi naqd pullar va ularning tarkibiy o‘zgarishi .....	137
5.3. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar .....	139
<b>VI. MOLIYAVIY XIZMATLAR OMMABOPLIGINI OSHIRISH VA BANK XIZMATLARI ISTE’MOLCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BORASIDAGI FAOLIYAT .....</b>	<b>141</b>
6.1. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish .....	141
6.2. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish .....	142
6.3. Bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish.....	144
6.4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash .....	146
<b>VII. XALQARO MUNOSABATLAR VA HAMKORLIK .....</b>	<b>149</b>
7.1. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy Markaziy banklar bilan hamkorlik .....	149
7.2. Xalqaro reyting kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik .....	152
<b>VIII. XODIMLAR BILAN ISHLASH VA MALAKASINI OSHIRISH, ICHKI NAZORAT HAMDA TADQIQOTLAR BORASIDAGI FAOLIYAT .....</b>	<b>154</b>
8.1. Tashkiliy tuzilma .....	154
8.2. Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish.....	154
8.3. Xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar .....	155

8.4. Pul-kredit va moliyaviy statistikani takomillashtirish.....	157
8.5. Markaziy bank faoliyatidagi tahlil va tadqiqotlar .....	158
8.6. Ichki audit va komplayens-nazorat faoliyati .....	162
<b>IX.ILOVALAR.....</b>	<b>166</b>

## KIRISH

Markaziy bankning 2023-yildagi faoliyati bir tomondan, iqtisodiyotda yuqori investitsion va ishlab chiqarish faolligining kuchayishi, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni davom ettirilishi sharoitida inflyatsiya darajasini prognoz ko‘rsatkichi doirasida shakllanishini ta‘minlashga, ikkinchi tomondan, global inflyatsion jarayonlarning sekinlashishiga qaramasdan tashqi resurslar jalb qilishning qimmatlashuvi sharoitida bank tizimining moliyaviy barqarorligini maqbul darajada saqlab qolishga qaratildi.

2023-yilning I choragidan boshlab inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasiga o‘tganligi 2022-yilda inflyatsion kutilmalarni jilovlash maqsadida asosiy stavkaga qo‘yilgan qo‘shimcha yuklamani pasaytirish imkonini berdi. Asosiy stavka 15 foizdan 14 foizga tushirildi va **“nisbatan qat’iy”** pul-kredit sharoitlari saqlab qolindi.

2023-yilda ham pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflyatsion targetlash rejimi standartlariga moslashtirish jarayonlari davom ettirilib, bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish va tijorat banklarining o‘z likvidligini boshqarish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida Xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda operatsion mexanizmga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, tijorat banklari uchun umumiy likvidlikni qayta taqsimlash orqali likvidlikni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida banklararo pul va REPO bozorlarining bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng 30 daqiqa davomida ochiq bo‘lishini ta‘minlash hamda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalaridan bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng 1 soat davomida foydalanish amaliyoti joriy etildi.

Banklardagi likvidlik uzilishlarini oldini olish va to‘lov tizimining uzluksizligini ta‘minlash maqsadida kun davomidagi kredit instrumenti hamda valyuta garovi asosidagi overnayt va 1 haftagacha bo‘lgan kredit auksionlari yo‘lga qo‘yildi.

Pul-kredit operatsiyalarini amalga oshirishda kredit xatarini minimallashtirish maqsadida likvidlikni taqdim etishga mo‘ljallangan operatsiyalar bo‘yicha garov mulkiga nisbatan 5 foizlik chegirmalar qo‘llash tartibi 2024-yildan amaliyotga tatbiq etilishi belgilandi.

2023-yilda bank tizimi umumiy likvidlik holatidagi o‘zgarishlar Markaziy bankning likvidlikni tartibga solish, xususan likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga bo‘lgan talabni oshirdi.

2023-yilda tijorat banklariga Markaziy bankning likvidlikni taqdim etish operatsiyalari overnajt REPO va overnajt SVOP orqali mos ravishda jami 279,3 va 50,9 trln soʻmlik yoki 2022-yilga nisbatan mos ravishda 8 barobarga va 5,8 barobarga koʻp likvidlik taqdim etildi.

Avgust-noyabr oylarida bank tizimidagi tizimli likvidlikning qisqarib borishi fonida muomalada mavjud boʻlgan jami 26 trln soʻmlik Markaziy bank obligatsiyalari sentyabr oyiga kelib toʻliq soʻndirildi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanib borilishi inflyatsiyaga monetar omillar taʼsirini kamaytirib, pul bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar boʻyicha oʻrtacha tortilgan foiz stavka toʻliq foiz koridori doirasida oʻrtacha yillik 14,2 foiz, real foiz stavkalari 3,7-4,8 foiz oraligʻida shakllanishiga xizmat qildi.

Inflyatsiya darajasiga nomonetar omillar taʼsirini kamaytirish maqsadida hududlardagi markaziy bozorlarda asosiy turdagi 20 xil isteʼmol tovarlari narxining haftalik monitoringi, shuningdek yirik supermarketlar veb-sahifalari va internet doʻkonlaridagi tovarlar narxlarini onlayn kuzatish (*NOK*) tizimi orqali 1 000 ga yaqin narxlarni tezkor kuzatib borish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi.

Narxlari oshishi prognoz qilinayotgan asosiy isteʼmol tovarlari, narxlar kuzatuv boʻyicha olingan maʼlumotlar hamda ularni bartaraf etish boʻyicha tegishli takliflar muntazam ravishda hukumatga taqdim etib borildi.

Pul-kredit sohasidagi ushbu chora-tadbirlar inflyatsiya darajasini yuqori surʼatlarda oʻsishini jilovlash imkonini berib, 2023-yil yakunlari boʻyicha inflyatsiya darajasi 8,8 foiz atrofida shakllandi.

Tadbirkorlik muhitining yanada yaxshilanib borishi hamda muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlariga boʻlgan talab yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadlariga jami 251,4 trln soʻm (*2022-yilga nisbatan qariyb 24 foizga koʻp*) kredit mablagʻlari yoʻnaltirilib, jami kredit qoʻyilmalari qoldigʻi qariyb 497 trln soʻmga yetdi.

Ajratilgan kreditlar hajmining oʻsishi barcha iqtisodiyot tarmoqlarida kuzatilgan boʻlib, kredit qoʻyilmalari qoldigʻi sanoat sohasida (*oʻsish 10,7 foiz*) 140,2 trln soʻmni, qishloq xoʻjaligida (*12,3 foiz*) 47,3 trln soʻmni, transport va kommunikatsiya sohasida (*15,7 foiz*) 34,3 trln soʻmni, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida (*12,5 foiz*) 32,5 trln soʻmni hamda qurilish sohasida (*18 foiz*) 12,3 trln soʻmni tashkil qildi.



Markaziy bankning makroprudensial siyosati global iqtisodiyotdagi noaniqliklarning davom etishi sharoitida bank tizimining moliyaviy barqarorligini maqbul darajada ta'minlashga hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning banklar kapitali va likvidligiga bo'lgan salbiy ta'sirlarini minimallashtirishga yo'naltirildi.

Bu boradagi vazifalar doirasida banklar faoliyati doimiy ravishda Jahon banki ekspertlari ko'magida ishlab chiqilgan nazorat indikatorlari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinib, turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazilib borildi.

Shuningdek, muammoli kreditlarning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sirlarini oldini olish va ularning salmog'ini kamaytirish maqsadida banklarning kredit portfeli muntazam ravishda banklar, hududlar kesimida, segmentlarga ajratilgan holda tahlil qilib borildi. Shuningdek, hududlarda mas'ullar faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish hamda baholash asosida vertikal nazorat tizimi joriy etildi.

Ushbu tadbirlar hisobiga 2023-yil yakunlari bo'yicha bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 3,5 foiz (*2022-yil yakunida 3,6 foiz*) atrofida saqlab qolishga erishildi.

Bank tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega yirik tavakkalchiliklarni boshqarish va ularning banklar moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganib borish maqsadida bank tizimi kredit portfelidagi top-50 ta qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilib borish tizimi yo'lga qo'yildi.

Monitoring jarayonidagi mavjud zaifliklar Markaziy bank Boshqaruvi yig'ilishlarida muhokama qilinib, tijorat banklari tomonidan yirik 20 ta qarzdorlarni muntazam ravishda monitoring qilish va natijalari bo'yicha Markaziy bankka ma'lumotlar taqdim etib borish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan kapital monandligini hisoblash metodologiyasi **Bazel qo'mitasining standartlariga** muvofiqlashtirish ishlari 2023-yilda ham davom ettirildi.

Hisobot yilida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining ulushini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qarorlar asosida 2024-2026-yillarda mikromoliyalash bozori hajmi va xizmatlar ko'lamini oshirish, mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslar ulushini ko'paytirish, o'zini o'zi band qilish va biznesni rivojlantirishga

ko'maklashish asosida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qamrab olinganlik darajasini oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish va ularga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag'larini jalb qilish va yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, tegishli litsenziya olgan holda to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshirilib, hududlarda mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan bazaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi mikromoliya banklarini tashkil etish va mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga transformatsiya qilish mexanizmini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi.

Hisobot yilida to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish borasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va ularni takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohada tavakkalchiliklarni boshqarish va to'lov tizimlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida muhim to'lov tizimi operatorini aniqlashning mezonlari belgilandi.

Hisob-kitoblar kliring tizimining dasturiy ta'minoti takomillashtirilib, kommunal to'lovlar, davlat bojlari va jarimalar, davlat xizmatlari to'lovlari hamda boshqa to'lovlar bo'yicha vositachilik haqini mablag'larni oluvchi tashkilotlar (*benefitsiarlar*)dan undirish mexanizmi joriy etildi. Aholidan mazkur to'lovlarni amalga oshirishdagi vositachilik haqi olish amaliyoti bekor qilindi.

Ushbu vositachilik haqining mablag' oluvchilardan undirilishi, o'z navbatida, aholining 85 mlrd so'mdan ortiq mablag'lari tejab qolinishiga imkon berdi.

Bank kartalari foydalanuvchilari uchun "Humo" va "Uzcard" o'rtasida bankomatlar tarmog'ini o'zaro integratsiya qilish orqali mazkur bankomatlardan muqobil foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilib, naqd pul yechish bo'yicha operatsiyalar to'liq amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

2023-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 46,2 mln donaga yetib, 2022-yilga nisbatan 35 foizga o'sgan bo'lsa, aholiga respublika va xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi kobeyjing bank kartalari soni 1,7 barobarga oshib, 3,1 mln donaga yetdi.

To'lov tizimlari jarayonida yuzaga kelayotgan, ya'ni bank kartalaridan pul mablag'larini firibgarlik yo'li bilan yechilishi holatlarini oldini olishga qaratilgan kibexavfsizlik choralari kuchaytirilmoqda.

Xususan, mobil ilovalar orqali pul mablag'larini o'tkazishda mijozlarni biometrik identifikatsiyadan o'tkazish, pul o'tkazmalarini tasdiqlash va mobil akkauntlaridan foydalanishda qo'shimcha xavfsizlik talablari joriy etilib, ushbu mexanizmlar yordamida bank kartalari bilan bog'liq fribgarlik operatsiyalarini oldini olish imkoni yaratildi.

O'z navbatida, tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan o'zlarining mobil ilovalaridan foydalanishda mijozlar uchun bank kartalari ma'lumotlarini, ulardan foydalanish huquqini beradigan bir martalik tasdiqlash OTP kodlarini hech kimga oshkor etmaslik to'g'risidagi ogohlantirishlar, mobil ilovalardan xavfsiz foydalanish to'g'risidagi axborotlarni berib borilishi hamda mobil ilovalardan foydalanishda ko'p faktorli autentifikatsiya metodlarini qo'llash jarayonlari boshlandi.

Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobot va ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda shakllantirish hamda banklar faoliyatini masofadan turib nazorat qilish maqsadida SupTech loyihalari asosida hisobotlar va elektron talabnomalarni o'rganish amaliyotini joriy etish boshlandi.

Hisobot yilida transformatsiya jarayonlari doirasida "yashil" moliyalashtirishni rag'batlantirish, ekologik vaziyatni yaxshilash hamda hududlarni ko'kalamzorlashtirish dasturlarida banklar faolligini oshirish maqsadida aholi uchun quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitgichlari, shamol generatorlari va boshqa qurilmalar sotib olish uchun **Green product** kredit mahsuloti yo'lga qo'yildi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun esa, quyosh panellari o'rnatish, elektromobillarni quvvatlash stansiyalari tashkil qilishga mo'ljallangan, soddalashtirilgan shartlardagi **Green Energy Microloan** kredit mahsulotlari joriy qilindi.

Banklar tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlarini aholining barcha qatlamlariga yetkazish, jumladan, bank xizmatlari ko'rsatish markazlari bilan oldin qamrab olinmagan hududlarda ixcham va bankning barcha xizmatlarini ko'rsatuvchi ofislar tarmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqsadlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida bank xizmatlari ko'rsatish nuqtalari soni 13 761 taga yetkazilib, 2023-yilda banklar tomonidan respublika hududlari bo'ylab qo'shimcha 286 ta bank xizmatlari ko'rsatish markazlari, ularning 88 tasi bank xizmatlari ko'rsatish markazlari faoliyati oldin qamrab olinmagan hududlarda tashkil etildi.

Shuningdek, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish, aholining moliyaviy savodxonligini hamda moliyaviy ommaboplikni oshirish borasidagi ishlar davom ettirildi.

Mazkur hisobotda yuqorida qayd etilgan va bank tizimida 2023-yil davomida amalga oshirilgan boshqa chora-tadbirlar hamda Markaziy bankka amaldagi qonunchilikka muvofiq yuklatilgan vazifalarning ijrosi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

## I. 2023-YILDA ICHKI VA TASHQI MAKROIQTISODIY SHAROITLAR

### 1.1. Ichki iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi

#### 1.1.1. Iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi omillar

2023-yilda tashqi moliyaviy sharoitlar qat’iyligi fonida iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar, fiskal xarajatlar va xususiy investitsiyalar hajmining ortishi talab tomondan iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlovchi omillardan bo‘ldi.


Xususan, 2023-yilda iqtisodiyotni moliyalashtirish maqsadlariga jami **251,4** trln so‘m yoki 2022-yilga nisbatan qariyb **24** foizga ko‘p kredit mablag‘lari yo‘naltirilib, jami kredit qo‘yilmalari qoldig‘i qariyb **497** trln so‘mga yetdi.

**Aholiga** ajratilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i 2022-yilga nisbatan 47,0 foizga ko‘payib, **148,2** trln so‘mni, **tadbirkorlik subyektlariga** ajratilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i 15,3 foizga o‘sib **348,5** trln so‘mni tashkil etdi.

Ajratilgan kreditlar tarkibida aholiga ajratilgan kreditlar ulushining o‘sib borayotganligi, o‘z navbatida, kredit ajratish jarayonlarining soddalashtirilishi va masofaviy bank xizmatlari imkoniyatlarining kengayib borishi hisobiga aholining mikroqarz, ipoteka krediti va avtokreditlar yo‘nalishlardagi kreditlar hajmining o‘sib borishi bilan izohlanadi.

1.1.1.1-chizma

#### Iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘ining o‘sishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yilda iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘i hajmining o‘sishi barcha tarmoqlarda kuzatilib, sanoat sohasida (*o‘sinh 10,7 foiz*) **140,2** trln so‘mni, qishloq xo‘jaligida (*12,3 foiz*) **47,3** trln so‘mni, transport va kommunikatsiya sohasida (*15,7 foiz*) **34,3** trln so‘mni, qurilish sohasida (*18 foiz*) **12,3** trln so‘mni hamda savdo va umumiy ovqatlanish sohasida (*12,5 foiz*) **32,5** trln so‘mni tashkil qildi.

Iqtisodiyot rivojini qo‘llab-quvvatlashda **xususiylar** investitsiyalarning yuqori sur‘atlarda o‘sishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, 2023-yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan **investitsiyalar** hajmi 2022-yilga nisbatan real hisobda **22,1** foizga o‘shib, **352,1** trln so‘mga yetdi. Bunda, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan **26,2** foizga o‘shib **307,3** trln so‘mni, **markazlashgan investitsiyalar** esa **0,7** foizga qisqarib **44,8** trln so‘mni tashkil etdi.

1.1.1.1-jadval

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha o‘zgarishi, mlrd so‘mda**

Moliyalashtirish manbalari	2022-yil	2023-yil	O‘zgarish, foizda
<b>Jami investitsiyalar</b>	<b>269 857,5</b>	<b>352 064,1</b>	<b>22,1</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>41 548,1</b>	<b>44 806,8</b>	<b>-0,7</b>
Byudjet mablag‘lari	20 910,1	20 447,0	-11,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari	2 447,9	1 554,2	-42,0
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	15 256,5	21 153,4	30,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>228 423,6</b>	<b>307 257,3</b>	<b>26,2</b>
Korxonalarining o‘z mablag‘lari	84 513,9	84 936,4	-2,7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	97 095,4	166 731,4	56,2
<i>shu jumladan,</i>			
<i>to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>37 006,3</i>	<i>84 311,6</i>	<i>96,4</i>
Aholi mablag‘lari	25 738,1	33 321,7	8,9
Tijorat banklari kreditlari	21 076,2	22 267,8	17,9

Manba: Statistika agentligining dastlabki ma‘lumotlari

Hisobot yilida o‘zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibida **markazlashmagan investitsiyalarning** ulushi 2022-yildagi 84,6 foizdan 87,3 foizgacha oshgan bo‘lsa, **markazlashgan investitsiyalar** ulushi esa 15,4 foizdan 12,7 foizgacha qisqargan.

Markazlashmagan investitsiyalarning o‘sishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining qariyb **2,0 barobarga** hamda tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘larining **17,9** foizga, aholi mablag‘larining **9** foizga oshganligi hisobiga shakllangan.

Markazlashgan investitsiyalar hajmining real o'sishi qariyb o'tgan yil darajasida saqlanib qolgan bo'lsada, uning tarkibida **hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,3 barobarga** ko'paydi.

2023-yilda global inflyatsiya jarayonlarida sekinlashish kuzatilgan bo'lsada, xalqaro moliya bozorida resurslarning narxi yuqori saqlanib qolayotganligi sharoitida iqtisodiyotda nomutanosibliklarning yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirilishi davlat tomonidan iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirishni taqozo qildi.

Protsiklik fiskal siyosat yuritishning inflyatsiyaga bosimlarini kamaytirish maqsadida nisbatan qat'iy monetar siyosat yuritish orqali fiskal va monetar siyosatlar o'zaro muvofiqlashtirib borildi.

Xususan, davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari 2022-yilga nisbatan 18 foizga o'sib, 324,0 trln so'mga yetdi. Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha 42,3 foizni, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash xarajatlari 13,2 foizni hamda ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish dasturlari 9,1 foizni tashkil etdi.

2023-yilda umumiy fiskal defitsitning YaIMga nisbati 2022-yildagi 4 foizdan 5,5 foizgacha oshdi.


Hukumat tomonidan aholining daromad manbaini kengaytirishga, ularning daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat bilan shug'ullanishiga va kasbga o'rgatishga ko'maklashish, ish xaqi va ijtimoiy nafaqalarning oshirishga qaratilgan dasturlarning davom ettirilishi aholi umumiy daromadlarining yuqori o'sishiga ta'sir etuvchi omillardan bo'ldi.

Aholi umumiy daromadlarining o'sishi, iste'molga bo'lgan talabni oshirib, iqtisodiyotda uy xo'jaliklari iste'molining 6,1 foizga o'sishiga xizmat qildi.

Xususan, 2023-yilda aholi umumiy daromadlari 2022-yilga nisbatan real hisobda **4,6** foizga oshib, **728,8** trln so'mni tashkil etdi. Ushbu o'sish asosan davlat sektori va iqtisodiyot tarmoqlarida o'rtacha real ish haqi miqdorining **6,6** foizga, ijtimoiy transfertlar hamda mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning mos ravishda **1,2 barobarga** oshishi hisobiga shakllandi.

Aholi daromadlari tarkibida **mehnat faoliyatidan olingan daromadlar** eng yuqori, **64** foiz ulushga ega bo'lib, ushbu daromadlarning 54 foizini o'zini o'zi band qilishdan olingan daromadlar tashkil etgan. Shuningdek, **mol-mulkdan olingan daromadlar** 2022-yilga nisbatan **40** foizga, shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar **18,5** foizga oshgan.

### Aholi daromadlarining shakllanish manbalari ulushi



Manba: Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlari

Boshqa joriy transfertlarning umumiy aholi daromadlaridagi ulushi nisbatan pasayish dinamikasiga ega bo'lib, ushbu holat **xalqaro transchegaraviy pul o'tkazmalari** o'sish hajmining o'zining tarixiy dinamikasiga qaytganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, aholi daromadlarining oshishi, bir tomondan, iste'mol talabini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi mutanosibliklarning oshib borayotganligi sharoitida iqtisodiyotda inflyatsion bosimlarni kuchayishiga olib keladi.

### 1.1.2. Ishlab chiqarish faolligi va mehnat bozori

2023-yilda investitsion faollikning ortib borishi, energiya tariflaridagi o'zgarishlar hamda energiya ta'minotidagi kamchiliklarni tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini yumshatish bo'yicha ko'rib borilgan choralar YaIMning yuqori o'sishini saqlab qolishga sharoit yaratdi.

2023-yilda YaIMning nominal qiymati **1 066,6** trln so'mni tashkil etib, ishlab chiqarish faolligi va yalpi talabning oshishi sharoitida iqtisodiy o'sish 2022-yildagi 5,7 foizdan **6,0** foizgacha tezlashdi.


2023-yilda YaIM hajmining 6,0 foizlik o'sishiga **xizmatlar sohasi – 2,6 foiz, sanoat tarmog'i – 1,5 foiz, qishloq xo'jaligi – 0,9 foiz** hamda **qurilish sohasi – 0,4 foiz** hissa qo'shdi.

**Xizmatlar** sohaning **6,8 foizga** hamda **sanoat tarmog'ining 6,0 foizga** o'sishi 2023-yilda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy drayverlardan bo'ldi. Shuningdek, 2023-yilda **qishloq xo'jaligi** mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi **4,1 foizga** va **qurilish** ishlari hajmi **6,4 foizga** o'sdi.



## 1.1.2.1-chizma

## Iqtisodiyot tarmoqlarining YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

Ishlab chiqarish tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalarning sezilarli ko'payishi, tashqi geosiyosiy nobarqarorliklar ta'sirida ichki bozordagi talabning oshishi **sanoat sohasini** yuqori sur'atlarda o'sishiga imkon berdi.

Sanoat sohasining **ishlab chiqarish tarmog'ida** o'sish 2022-yildagi 5,4 foizdan **6,7 foizgacha** tezlashgan bo'lsada, **tog'-kon sanoati** 1,9 foizdan **1,0 foizgacha** hamda elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash tarmog'i 13,5 foizdan **9,7 foizgacha** sekinlashdi.

Tog'-kon sanoatida ijobiy o'sish saqlanib qolgan bo'lsada, uning tarkibidagi **neft** qazib olish **-2,3 foizgacha**, **tabiiy gaz** qazib olish **-9,6 foizgacha** hamda **gaz kondensati** qazib olish **-6,9 foizgacha** qisqardi.


Ushbu holat iqtisodiyot subyektlarining energiya manbalariga bo'lgan talabi yuqoriligi sababli mazkur tovarlar importining oshishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan talabni qondirish bilan birga ushbu holatlarning iqtisodiy faollikka salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qildi.

2023-yilda ishlab chiqarish sanoati tarkibida **oziq-ovqat mahsulotlari** ishlab chiqarish **6,2 foizgacha**, **neftni qayta ishlash** **27,1 foizgacha**, **metallurgiya sanoati** **6,4 foizgacha**, **boshqa nometall mineral mahsulotlar** ishlab chiqarish **11,3 foizgacha** hamda **elektr uskunalari** ishlab chiqarish **14,8 foizgacha** tezlashdi.

Shu bilan birga, **to'qimachilik sanoati** 2022-yildagi 9,9 foizdan **6,4 foizgacha** hamda **ichimliklar** ishlab chiqarish 15,7 foizdan **6,3 foizgacha** sekinlashgan bo'lsa, **kimyo mahsulotlarini** ishlab chiqarish **2,0 foizga** qisqardi.

**Kimyo sanoatidagi** pasayish energetika tarmog'idagi va ayrim xomashyo mahsulotlar yetkazilishidagi uzilishlar hamda neft va tabiiy gaz qazib olishdagi qisqarishlar bilan izohlanadi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning sohalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi



Manba: Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlari

Aholi daromadlarining barqaror o'sib borayotganligi hamda xizmatlar bozoriga yangi xizmat turlarining joriy etilayotganligi bozor xizmatlari hajmining yuqori o'sish sur'atlarida namoyon bo'lmoqda.

**Xizmatlar** sohasi tarkibidagi **axborot va aloqa** (24,6 foiz), **moliyaviy xizmatlar** (20,6 foiz), **transport** (8,0 foiz), **savdo** (10,2 foiz) hamda **yashash va ovqatlanish** xizmatlari (12,6 foiz) yuqori o'sish sur'atlarini qayd etib, xizmatlar sohasida kuzatilgan yuqori o'sishni ta'minlovchi asosiy drayver tarmoqlar bo'ldi.

**Ta'lim** xizmatlari o'sish sur'atida 2022-yildagi 15,3 foizdan **22,8** foizgacha, **ko'chmas mulk** bilan bog'liq xizmatlar 11,1 foizdan **13,3** foizgacha hamda **tibbiyot** xizmatlari 11,5 foizdan **11,6** foizgacha tezlashish kuzatildi.

**Moliyaviy xizmatlarning** yuqori o'sishida bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayib borayotganligi, raqamli bank xizmatlarining ko'lamini kengayayotganligi hamda aholining moliyaviy savodxonligining oshib borayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Axborot va aloqa xizmatlari** o'sishi esa, AKT sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirayotganligi, raqamlashtirish sohasida faoliyat yuritayotgan xalqaro kompaniyalarni mamlakatimizga jalb qilinayotganligi va iqtisodiyot subyektlarining raqamli xizmatlarga talabi oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

**Qishloq xo'jaligi** mahsulotlari tarkibida dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish sur'atlari 2022-yildagi 3,8 foizdan **4,2** foizgacha, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish esa 3,3 foizdan **3,7** foizgacha tezlashdi.

**Dehqonchilik mahsulotlari** tarkibida donli ekinlar yetishtirish hajmlari o'sishi 2022-yildagi 4,7 foizdan **5,5** foizgacha, sabzavotlar yetishtirish – 2,9 foizdan **3,5** foizgacha ko'paygan bo'lsa, poliz ekinlari (*5,5 foiz*) va mevalar yetishtirish (*4,1 foiz*) o'tgan yilga nisbatan sekinlashdi.

**Chorvachilik mahsulotlari** tarkibida mol va parranda go'shtini yetishtirishning o'sishi 2022-yildagi 3,4 foizdan **3,9** foizgacha tezlashgan bo'lsa, sut mahsulotlari (*2,9 foiz*), tuxum (*4,4 foiz*) va baliq (*7,3 foiz*) yetishtirish tarmoqlarida barqaror o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishga xususiy sektorni keng jalb qilinayotganligi ya'ni qishloq xo'jalik yerlarini tanlov asosida dehqonchilik faoliyati uchun ijaraga berish tizimining amaliyotga joriy qilinishi, sohaga ilm-fan va innovatsiyalarning keng jalb qilinayotganligi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining bozor mexanizmi asosida shakllanayotganligi tarmoqda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga sharoit yaratmoqda.

Qurilish ishlari tarkibida yuqori o'sish **ixtisoslashgan qurilish ishlarida** kuzatildi va bu yo'nalishdagi qurilish ishlari hajmi 2022-yilga nisbatan **35,0** foizga o'sdi. Shuningdek, **fuqarolik obyektlarini** qurish yo'nalishida o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan tezlashib, 2022-yilgi 2,7 foiz o'sishdan 2023-yil yakuniga **5,1** foizga yetgan bo'lsa, **bino va inshootlar** qurish yo'nalishida qurilish ishlari hajmi birmuncha sekinlashib **3,8** foizga o'sdi.

2023-yilda jami qurilish ishlarining **30,2** foizi **yirik korxonalar** hamda **45,8** foizi **kichik korxonalar va mikrofirmalar** tomonidan bajarildi.

Qurilish sohasidagi o'sish asosan aholiga imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari taqdim etilayotganligi, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning kengayib borayotganligi hamda yangi qurilish loyihalarining amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

**Iste'mol tovarlari** ishlab chiqarish o'sish sur'ati 2022-yildagi 20,7 foizdan **7,3** foizgacha sekinlashgan bo'lsa, uning tarkibidagi **oziq-ovqat** ishlab chiqarishning 9,6 foizdan **6,2** foizgacha hamda **nooziq-ovqat tovarlari** ishlab chiqarish 28,1 foizdan **7,8** foizgacha sekinlashdi. Ushbu holatni keyingi yillarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini yuqori o'sib borishi natijasida bu turdagi tovarlarga bo'lgan talabning barqaror fazaga yetganligi bilan izohlash mumkin.

2023-yilda iqtisodiy faollikning oshib borishi natijasida savdo hajmlari ham barqaror oshib, **chakana savdo** hajmi 2022-yilga nisbatan **9,1 foizga**, **ulgurji savdo** hajmi **12,1 foizga** o'sdi.


**Mehnat bozori** yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab, xususan iqtisodiyot tarmoqlarining raqamlashish darajasi oshganligi ortidan soha mutaxassislariga bo'lgan talabning ortib borishi sharoitda shakllandi.

Xususan, **ishsizlik darajasi** 2022-yildagi 8,9 foizdan **6,8 foizgacha** pasaydi hamda iqtisodiyotda **band aholi soni 14,2 mln** nafarga (*2022-yilga nisbatan 2,2 foizga ko'p*) yetdi.

Jami band aholining **24,2 foizi qishloq xo'jaligi**, **13,0 foizi sanoat**, **10,8 foizi qurilish**, **11,2 foizi savdo**, **4,5 foizi tashish va saqlash**, **9,2 foizi ta'lim** hamda **5,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** kabi iqtisodiyot tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi.

1.1.2.3-chizma

### Mahsulot birligiga mehnat xarajatlarining o'zgarishi



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan mehnat xarajatlari oxirgi 5 yilda o'sish dinamikasini saqlab qolgan holda o'rtacha **14,2 foizni** tashkil etdi. Xususan, 2022-yil yakunlari bo'yicha mehnat xarajatlari 12,0 foizga oshgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich **14,2 foizni** tashkil qildi. Hisobot davrida ish haqining 19,6 foizga hamda bandlik darajasining 1,2 foizga oshishi mahsulot birligiga o'rtacha mehnat xarajatlarini oshiruvchi omil bo'lgan bo'lsa, YaIMning 6,0 foizlik o'sishi – tushiruvchi omil bo'lgan.

## 1-havola

## Mehnat bozoridaagi tendensiyalar

Jahonda yuz berayotgan turli xil shoklarning mehnat bozoriga ta'siri turlicha shakllanmoqda. Yalpi talab va taklifdagi nomutanosibliklariga nisbatan mehnat bozorining sekinroq moslashishi sharoitida makroiqtisodiy siyosat choralari ishlab chiqishda ushbu yo'nalishdagi tahlillarga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

O'zbekiston aholisi 2024-yil 1-yanvar holatiga 36,8 mln kishini tashkil etib, 2020–2023-yillarda aholining o'rtacha o'sish sur'ati 2,1 foizgacha (*yoki mutlaq hisobda yiliga 700–800 ming kishi*) tezlashgan.

*Taqqoslash uchun: 2010–2019-yillarda aholining o'rtacha o'sish sur'ati 1,7 foizni (yoki 500–600 ming kishi) tashkil qilgan.*

Aholining salmoqli qismi (57 foiz) mehnatga layoqatli yosh toifasiga kiradi. 2010-yillardan boshlab mehnatga layoqatli aholining umumiy aholi tarkibidagi ulushi asta-sekin kamayib borgan, bu 2000-yillardan hozirgi vaqtgacha tug'ilish darajasining o'sib kelayotgani bilan bog'liq. Bu, bir tomondan, qisqa va o'rta muddatli istiqbolda demografik yukning ortib borayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, uzoq muddatli istiqbolda ko'proq ish o'rinlarini yaratish zaruratini oshiradi.


So'nggi o'n yillikda, O'zbekistonda iqtisodiy faol aholining ijobiy dinamikasi saqlanib qolgan holda 2022-yilda iqtisodiy faol aholi soni (2016-yilga nisbatan 1 mln nafarga ko'p) qariyb 15 mln kishini (*jami aholining 41,7 foizini*) tashkil etdi. Ushbu tafovut inson kapitalining ortib borayotgan zaxirasini ifodalaydi.

Mehnat bozori iqtisodiy tendensiyalarga mos ravishda shakllanib, bozordagi vaziyat barqarorligicha saqlanmoqda. 2023-yilning I yarmi yakunlariga ko'ra, ishsizlik darajasi 8,1 foizni tashkil etdi. Ishchi kuchi taklifi (*ish qidirish bilan bog'liq so'rovlar soni*) yil davomida oshib, respublika bo'ylab poytaxtdan ish qidirish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari platformasi orqali davlat xizmatiga bo'lgan so'rovlar yuqori shakllandi.

1-chizma


2-chizma

## Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bo'sh ish o'rinlari soni



Manba: Ochiq ma'lumotlar asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

## Bandlikning o'sish sur'ati



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

2023-yilning dekabr oyida e'lon qilingan ishchi kuchiga bo'lgan talab 49 mingdan ortiqni tashkil qilgan. Bo'sh ish o'rinlarini asosan chakana savdo (5,8 ming), ishlab chiqarish (5,1 ming), umumiy ovqatlanish (4,3 ming) va qurilish (4 ming) sohalarida taklif qilgan (1-chizma).

Shu bilan birga, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, bandlik darajasining o'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan biroz sekinlashdi. 2023-yilning I yarmi yakuni bo'yicha ish bilan band aholi soni 13,9 mln kishini tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,7 foizga o'sdi (2-chizma).

Xususan, sanoat va transport sohalarida bandlar soni qisqargan bo'lsa, qurilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sektorlarida ishchilar soni sezilarli oshgan.

2023-yilda iqtisodiyotdagi o'rtacha hisoblangan nominal ish haqi 4,6 mln so'mni tashkil etdi va yillik hisobda 17 foizga oshdi. Ish haqi axborot va aloqa (+40 foiz), tashish va saqlash (+37 foiz), savdo (+26 foiz) va moliya (+23 foiz) sohalarida sezilarli darajada oshib bormoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (*YaIMda qishloq xo'jaligi ulushining pasayishi va xizmat ko'rsatish sohasining oshishi*), ayrim tarmoqlarda malakali ishchi kuchiga talabning yuqoriligi, shuningdek, fiskal rag'batlantirish siyosati fonida so'nggi yillarda real ish haqining oshishi mehnat unumdorligi o'sish sur'atlariga nisbatan yuqoriroq shakllanib, ishlab chiqarish xarajatlarini (*ULC – unit labor cost*)<sup>1</sup> oshirmoqda. 2023-yilda qurilish, savdo va tashish sohalarida mehnat unumdorligi ish haqi o'sishidan ortda qolayotganligi kuzatildi. Mehnat bozorida kuzatilayotgan ushbu tendensiya narxlarga ma'lum bir darajada oshiruvchi bosim yaratmoqda.

### ***Tashqi mehnat migratsiyasi***

Mehnat migratsiyasi jarayonlari pul o'tkazmalari kanali orqali aholining umumiy daromadlari, ichki talab va to'lov balansi barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. 2018-2023-yillarda jami aholi daromadlarining qariyb 16 foizi mehnat migrantlarning pul o'tkazmalari hisobiga to'g'ri kelgan.

Joriy mehnat migratsiyasining asosiy oqimi bir qancha yaqin mamlakatlarda, xususan, pul o'tkazmalari oqimining asosiy qismini tashkil etuvchi Rossiya va Qozog'istonda to'plangan. Shu bilan birga, ushbu oqimlarda geografik diversifikatsiya jarayonlari kuzatilmoqda.

2022-yildagi pul o'tkazmalarining atipik oqimidan so'ng (2,1 b.), 2023-yilda ularning darajasi barqarorlashgan. Rublning dollarga nisbatan yuqori o'zgaruvchanligi, inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi va migratsiya oqimining biroz qisqarishi fonida Rossiyadan pul o'tkazmalarining ulushi 2022-yildagi 85,5 foizdan 2023-yilda 77,8 foizgacha qisqargan.

<sup>1</sup> *Ishchi kuchidan foydalanish darajasi (ULC) – bu birlik ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat birligi narxini o'lchaydigan ko'rsatkich.*


## 1.2. Tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi

2023-yilda global iqtisodiyot o‘zining “barqarorlashgan o‘zgaruvchanlik” (*stabilized volatility*) – yangi an’anaviy noaniqliklar davriga o‘tib, bu o‘z navbatida, geosiyosiy jarayonlarning iqtisodiyotga kuchayib borayotgan ta’siri – inflyatsiya, ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar, byudjet xarajatlari tuzilmasidagi o‘zgarishlar va boshqa tendensiyalarning o‘zgarib borishi orqali namoyon bo‘lmoqda.

**Xalqaro valyuta jang‘armasi** 2023-yilda global iqtisodiy o‘shish 2022-yilga nisbatan **0,3** foiz bandga sekinlashib, **3,2** foizni tashkil etganini ma’lum qildi<sup>2</sup>. Bunda, rivojlangan mamlakatlarda **iqtisodiy o‘shishning** 2022-yildagi 2,6 foizdan **1,6** foizgacha (*-1,0 f.b.*) sekinlashgani kuzatilgan bo‘lsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda mazkur ko‘rsatkich 4,1 foizdan **4,3** foizgacha tezlashdi.

1.2.1-chizma


### Inflyatsiya bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichga (*target*) erisha olmagan mamlakatlar ulushi



*Inflyatsion targetlash rejimiga o‘tgan mamlakatlar soni 74 ta, bunda rivojlangan mamlakatlar + Yevrozona – 13 ta, rivojlanayotgan mamlakatlar 61 ta. \*2024-yilga inflyatsiya bo‘yicha prognoz IMF WEO, October 2023 sharhidan olingan.*

1.2.2-chizma

### Global pul-kredit siyosati indeksi



*Manba: Global Monetary Policy Tracker*

*\*global pul-kredit indeksi 0 dan katta bo‘lganda markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosati qatylashtirilishi, 0 dan kichik – yumshatilishini anglatadi.*

Shuningdek, dunyo bo‘yicha inflyatsion jarayonlarini jilovlash borasidagi chora-tadbirlar **global inflyatsiyani** 2022-yildagi 8,7 foizdan **6,8** foizgacha (*- 1,9 f.b.*), rivojlangan iqtisodiyotlarda 7,3 dan **4,6** foizgacha (*-2,7 f.b.*), rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda 9,8 dan **8,3** foizgacha (*-1,4 f.b.*) sekinlashuviga zamin bo‘ldi.

<sup>2</sup> International Monetary Fund. 2024. *World Economic Outlook – Steady but Slow: Resilience amid Divergence*. Washington, DC. April.



Markaziy banklar inflyatsiya sur'atlarini sekinlashuviga erishgan bo'lsada, aksar regulyatorlar inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichga erisha olmadi.


Hisob-kitoblarga ko'ra, global noaniqliklar sharoitida 2022-yilda inflyatsion targetlash rejimiga o'tgan mamlakatlarning **92** foizi targetga erisha olmagan bo'lib, bunda rivojlangan mamlakatlarda 100 foiz, rivojlanayotgan mamlakatlarda 90 foizni tashkil etdi. 2023-yilga kelib mazkur ko'rsatkich **62** foiz, xususan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mos ravishda **85** va **57** foizni tashkil qilgan.

*Ma'lumot uchun: 2024-yilda inflyatsion targetga erisha olmaydigan mamlakatlar ulushi 43 foizni, rivojlangan mamlakatlarda – 62 foiz, rivojlanayotgan mamlakatlarda – 39 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.*

Umuman olganda, 2022-yil aprelda boshlangan global qat'iy pul-kredit siyosati 2023-yilning sentyabriga kelib yakunlandi. Global Monetary Policy Tracker ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunlari bo'yicha global pul-kredit siyosati indeksi **-0,4** ni tashkil etib, 2024-yilning birinchi yarmida saqlanib qolishi, ya'ni pul-kredit siyosati yumshatilish fazasida qolishi taxmin qilinmoqda.


1.2.3-chizma

### Sanoat siyosatiga oid qabul qilingan choralar soni



1.2.4-chizma

### Global savdo sharoitlariga ta'sir qiluvchi choralar soni



Manba: Juhász, R., Lane, N. J., Rodrik, D. (2023), 'The new economics of industrial policy (No. w31538)', 'National Bureau of Economic Research.

Manba: Global Trade Alert



## 2-havola

**Fragmentatsiya bilan bog‘liq yo‘qotishlar**

XVJ tomonidan dunyo sharqiy, g‘arbiy va neytral bloklarga bo‘linishning iqtisodiy yo‘qotishlari baholandi<sup>1</sup>. Bunda, eng qat‘iy ssenariyda neytral blokka kiradigan rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘proq zarar ko‘rishi xulosa qilingan. Xususan, median rivojlangan iqtisodiyot yo‘qotishlari milliy daromadning taxminan **0,9** foizini tashkil etadi. Biroq, rivojlanayotgan Osiyodagi median mamlakat **80** foizga, Janubiy Afrikada **120** foizga, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda **150** foizgacha ko‘proq yo‘qotishlarga duch kelishi mumkin. Ya‘ni, geosiyosiy bo‘linish xarajatlari nomutanosis ravishda kichik iqtisodiyotga ega mamlakatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

YTTB mutaxassislari frendshoringni (*tashqi siyosatdagi ittifoqchilar bilan ta‘minot zanjirlarini yaratish*) qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida iqtisodiy yo‘qotishlar global YaIMning **4,6** foizini tashkil etishi mumkinligini taxmin qilmoqda<sup>2</sup>. XVJ hisob-kitoblariga ko‘ra, jahon savdosining bo‘linishidan yo‘qotishlar global YaIMning 7 foizigacha yetishi mumkin<sup>3</sup>. Boshqa bir tadqiqotda XVJ mutaxassislari jahon iqtisodiyoti uch blokga (*sharqiy, g‘arbiy, neytral*) bo‘linsa, bloklar o‘rtasidagi savdo aylanmasi 57 foizgacha qisqarishi, eng katta yo‘qotishlar esa sharqiy blokda (*blokdagi median mamlakat milliy daromadning 3,4 foizigacha yo‘qotadi*) degan xulosaga kelishgan<sup>4</sup>. XVJning yana bir tadqiqotiga ko‘ra, fragmentatsiya global iqtisodiyotda xomashyoning umumiy narxlari va o‘zgaruvchanligi oshishiga olib keladi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup>Hakobyan, S.; Meleshchuk, S.; Zymek, R. (2023), ‘Divided We Fall: Differential Exposure to Geopolitical Fragmentation in Trade,’ IMF Working Paper No. 2023/270

<sup>2</sup>Javorcik, B, L Kitzmüller, H Schweiger and M Yildirim (2022), ‘DP17764 Economic costs of friend-shoring,’ CEPR Discussion Paper No. 17764. CEPR Press, Paris & London.

<sup>3</sup>Bolhuis; M., Chen, J.; Kett, B. (2023), ‘Fragmentation in Global Trade: Accounting for Commodities,’ IMF Working Paper No. 2023/073

<sup>4</sup>Campos, R. G., Estefanía-Flores, J., Furceri, D., & Timini, J. (2023). ‘Geopolitical fragmentation and trade,’ Journal of Comparative Economics, 51(4), 1289-1315.

<sup>5</sup>Alvarez, J.; Andaloussi, M. B.; Maggi, C.; Sollaci, A.; Stuermer, M.; Topalova, P. (2023), ‘Goeconomic Fragmentation and Commodity Markets,’ IMF Working Paper No. 2023/201

Keskinlashib borayotgan geosiyosiy bo‘linish – fragmentatsiya jahon iqtisodiyotining alohida bloklarga bo‘linishi xavfini, ya‘ni geoiqtisodiy bo‘linish xavfini keltirib chiqarmoqda.


Shu bilan birga, jahon mamlakatlari konfrontatsiya fonida sanoat siyosatiga (*import o‘rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish*) o‘tishi kuzatilmoqda. Xususan, 2023-yilda dunyo bo‘ylab 2,5 mingdan ortiq yoki 2022-yilda nisbatan 1,6 barobar ko‘p sanoat siyosatiga o‘tish bilan bog‘liq choralar qayd etilgan<sup>3</sup>. Sanoat siyosati yirik iqtisodiyotlarda faol qo‘llanilayotgan bo‘lib, qabul qilingan chora-tadbirlarning deyarli yarmi (*48 foiz*) Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSh davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

<sup>3</sup> Evenett, S.; Jakubik, A.; Martín, F.; Ruta, M. (2024), ‘The Return of Industrial Policy in Data,’ IMF Working Paper No. 2024/001

Sanoat siyosatiga o'tishda mamlakatlar tomonidan qo'llanilayotgan asosiy instrument import va eksport cheklovlari hissasiga to'g'ri kelmoqda<sup>4</sup>. Xususan, 2023-yilda eksport va import sharoitlarini cheklashga qaratilgan choralar soni **2,2** mingtani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan bu ko'rsatkich **9,5** foizga oshdi. Shuningdek, tashqi savdo sharoitlarini erkinlashtirishga qaratilgan choralar soni esa 2022-yildagi 867 tadan 2023-yilda **821** taga pasaygan.

1.2.5-chizma


**40 futlik konteynerni suv orqali yetkazib berish narxi, haftalik dinamika**



Manba: *Drewry.co.uk*

1.2.6-chizma

**Ta'minot zanjirlari va yuk tashish bilan bog'liq ko'rsatkichlar**



Manba: *Nyu-York Federal zaxira banki, Sea Intelligence*

2023-yilda Yaqin Sharqda geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida transport-logistik koridorlarda cheklovlarning yuzaga kelishi va shu bois yetkazib berish narxining oshishi kuzatildi. Xususan, 40 futlik konteynerni suv orqali yetkazib berish narxi 2022-yil yakunidagi 2,1 ming dollardan hisobot yili yakunida **2,7** ming dollargacha yoki **1,3 barobarga** oshdi.

Keskin o'sish sur'atlari asosan Sharq va G'arbni bog'lovchi koridorlarda yetkazib berish narxining oshishi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, jumladan Shanxay-Rotterdam yo'nalishida yetkazib berish narxi 2022-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, **3,6** ming dollarni, Shanxay-Los Anjeles yo'nalishida 1,4 barobarga oshib, **2,7** ming dollarni tashkil etdi.


2023-yilda yetkazib berish xizmatiga talab tomonidan bosim kamayganligi sharoitida global ta'minot zanjiriga bosim indeksi past darajada shakllandi va yil yakuni bo'yicha **-0,15** ni (2022-yilda 1,3) tashkil etdi.

<sup>4</sup> Juhász, R., Lane, N. J., Rodrik, D. (2023), 'The new economics of industrial policy (No. w31538)', 'National Bureau of Economic Research'.

O‘z navbatida, 2023-yilning oktyabr oyidan (*Yaqin Sharq mojarosi*) boshlab suv transporti tomonidan **yukni vaqtida yetkazib berish indeksida** pasayish kuzatilgan bo‘lib, 2023-yil maydagi eng yuqori 66,8 dan yil yakunida **56,8** ni (-10 b.) tashkil etdi.


Hisobot yilida **global iqtisodiy faollikni** aks ettiruvchi PMI indeksi 2022-yildagi salbiy tendensiyadan (*50 dan past*)<sup>5</sup> so‘ng 2023-yil may oyiga qadar yaxshilanib, keyingi davrda pasayish fazasiga o‘tdi. Xususan, PMI indeksi 2022-yildagi 48,2 dan 2023-yilda **51,0** ga, xizmat ko‘rsatish sohasida 48,0 dan **51,6** ga oshgan bo‘lsa, ishlab chiqarishda mazkur ko‘rsatkich 50 dan past shakllanib, 48,7 dan **49,0** ga ko‘tarildi.

1.2.7-chizma

**Global PMI indeksi dinamikasi**

Manba: IHS Markit

1.2.8-chizma

**Iqtisodiy kutilmalar indeksi**  
*keyingi 12 oy uchun*

Manba: MacroMicro


**Global iqtisodiy kutilmalar** 2023-yil yakunlari bo‘yicha optimistik shakllangan bo‘lib, 2022-yildagi 1,7 dan **2,1** ga oshgan. Shu bilan birga, Xitoyda mazkur indeks nisbatan yuqoriroq bo‘lsada, 2022-yilga nisbatan 0,3 foiz bandga pasayib, **4,5** ni tashkil etdi. AQShda iqtisodiy kutilmalar 2022-yildagi 0,3 dan **1,3** ga yaxshilangan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqining ba’zi iqtisodiyotlaridagi qisqarish fonida kutilmalar nisbatan pessimistik shakllanib, **0,6** ni tashkil qilgan.

**Demografik tendensiya.** BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda 50 va undan katta yoshdagi aholi ilk bor 15 yoshgacha bo‘lgan aholidan ortib, ularning soni **2** mlrd kishidan ziyodroqni tashkil etdi.

<sup>5</sup> PMI indeksining qiymati 50 dan yuqori bo‘lganida ishbilarmonlik faolligining yaxshilanib borishini, 50 dan past darajada shakllanganda esa iqtisodiy holatning yomonlashuvini aks ettiradi.

1.2.9-chizma

### Jahon aholisi, yosh guruhlari kesimida




Manba: BMT ma'lumotlari

BMTning demografik prognoziga ko'ra, 2050-yilga borib dunyodagi bolalar soni o'zgarmas qolib, taxminan 2 mlrd kishini, 50 yoshdan oshgan aholi soni **3,2** mlrd kishigacha oshib, bolalar sonidan **1,6 barobar** ko'p bo'ladi. Jahon aholisi o'sishda davom etib, bunda o'sish birinchi navbatda, tug'ilishlar sonining ko'payishi hisobiga emas, balki o'lim darajasining kamayishi va umr ko'rish davomiyligining oshishi hisobiga yuzaga keladi.

1.2.10-chizma

### 2019-2023-yillarda ishsizlik darajasi mamlakatlar daromad guruhlari bo'yicha



Manba: XMT ma'lumotlari

## 3-havola

**Iste'mol bozorining mintaqalararo "ko'chishi"**

50 yosh va undan katta aholi ulushining o'sishi, ayniqsa iste'molchi qatlamida<sup>1</sup> seziladi. Agar 2023-yildan 2030-yilgacha dunyo aholisining umumiy soni 0,6 mlrdga ko'paysa, iste'molchi qatlami **2 barobar** ko'payib, 1,3 mlrdan **4,8 mlrd** kishiga yetadi. Ularning deyarli yarmini 50 va undan katta yoshdagilar tashkil qiladi.

World Data Lab sharhiga ko'ra, 2000-yillarda global o'rta qatlam asosan "g'arbiy" bo'lgan, 2030-yilga kelib, u asosan "sharqiy", ya'ni Osiyo mamlakatlari aholisiga to'g'ri keladi. Bu Osiyoni son jihatdan ham, xarajatlar jihatdan ham eng yirik iste'mol bozoriga aylantiradi va iste'molning o'sishi ham mintaqada, ham dunyoda iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida xizmat qiladi. 2040-yilga kelib, Xitoy va Hindistondan tashqari Indoneziya, Bangladesh, Vyetnam, Pokiston va Eron davlatlari ham 50 va undan katta yoshdagi iste'molchi qatlamning o'sishi bo'yicha yetakchilar qatoriga kiradi.

AARP<sup>2</sup> ma'lumotlariga ko'ra, 50 va undan katta yoshdagi guruhlarining global YaIMga qo'shgan hissasi 2020-yilda 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilda 36 foizga, 2050-yilga borib, 39 foizga yetadi<sup>3</sup>. Ushbu guruhdagilarning tovarlar va xizmatlarga sarflagan mablag'lari orqali dunyo ish o'rinlarining uchdan bir qismi rag'batlantirilib, bu ulush 2050-yilga kelib 38 foizga cha oshsa, global xarajatlardagi ulushi esa 60 foizga yetadi.

<sup>1</sup>Iste'molchi qatlamga asosiy ehtiyoj tovarlaridan tashqari boshqa tovar va xizmatlarni sotib olishga imkoniyati mavjud bo'lgan, shuningdek kuniga 12 dollar yoki undan ko'proq (2017-yildagi xarid qobiliyati pariteti asosida) pul sarflaydigan aholi kiradi.

<sup>2</sup>AARP – 50 yoshdan oshgan aholining sog'liqni saqlash, moliya, mehnat bozori va boshqalardagi manfaatlarini himoyasi bilan shug'ullanadigan AQSh notijorat tashkiloti.

<sup>3</sup>Global Longevity Economy Outlook: The economic contribution of people age 50 and older. AARP.

**Global mehnat bozori.** Hisobot yilida rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ishsizlik darajasi so'nggi o'n yillikdagi eng past darajaga yaqinlashdi. Xususan, XMTning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyoda ishsizlik darajasi **5,1 foizni** tashkil qildi<sup>6</sup>. Bunda, mazkur ko'rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda 4,5 foiz, yuqori o'rta daromadli mamlakatlarda – 5,5 foiz, past o'rta daromadli mamlakatlarda 5 foiz hamda past daromadli mamlakatlarda 5,7 foizga to'g'ri keladi.

Hisobot yilida mehnat bozorlarida qat'iylashish tendensiyalari, ya'ni ishchi kuchi yetishmovchiligi kuzatilgan bo'lib, Xalqaro hisob-kitoblar banki sharhida 2023-yilda global miqyosda pandemiya davriga nisbatan nominal ish haqi yuqori darajada oshganligi (*qariyb 8 foiz*), biroq real qiymatda qisqarganligi (*qariyb 7,5 foiz*) qayd etilgan<sup>7</sup>.

<sup>6</sup> *World Employment and Social Outlook: Trends 2024*. Geneva: International Labour Office, 2024.

<sup>7</sup> Doornik, B., Igan, D., Kharroubi, E. (2023), 'Labour markets: what explains the resilience?' *BIS Quarterly Review*, 77.

### 1.2.1. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar

Hisobot yilida O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlarida iste‘mol faolligining tezlashishi, ichki talabga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish sur‘atlarining ortishi hamda o‘zgaruvchan tashqi shoklar sharoitiga moslashish fonida barqaror iqtisodiy o‘shish tendensiyalari kuzatildi.

2023-yilda **Rossiya** iqtisodiyoti 2022-yildagi 1,2 foizlik qisqarishdan so‘ng **3,6** foizga oshdi. Bunda, iqtisodiy o‘shish iste‘mol va investitsion talab hisobiga shakllangan. Hisobot yilida aholi real daromadlari 4,6 foizga oshishi hamda Rossiya banki tomonidan birinchi yarim yillikda nisbatan yumshoq pul-kredit siyosati yuritilishi va davlat dasturlari bo‘yicha imtiyozlarning berilishi iste‘mol faolligining o‘shishini ta‘minladi.


#### 4-havola

#### O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari

2023-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2022-yilga nisbatan 25,1 foizga oshib, **62,6** mlrd dollarni, shundan tovar va xizmatlar eksporti hajmi mos ravishda **26,5** foizga oshib, **24,4** mlrd dollarni, import hajmi esa **24,2** foizga oshib, **38,1** mlrd dollarni tashkil etdi.

Asosiy savdo aylanmasi Xitoy (*21,9 foiz*), Rossiya (*15,8 foiz*), Qozog‘iston (*7 foiz*) va Turkiya davlatlariga (*5 foiz*) to‘g‘ri kelib, ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi **49,7** foizni tashkil qildi (*2022-yilda 52,1 foiz*).

#### O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bilan 2022-2023-yillardagi savdo aylanmasi



Manba: Statistika agentligining dastlabki ma‘lumotlari

Shu bilan birga, hisobot yilida Xitoy bilan savdo aylanmasi **13,7** mlrd dollar yoki 2022-yilga nisbatan **1,5 barobar** ko‘p, Rossiya bilan savdo aylanmasi **9,9** mlrd dollarni (*6,5 foizga oshdi*) tashkil etgan bo‘lsa, Qozog‘iston va Turkiya bilan savdo aylanmasi hajmi 2022-yilga nisbatan pasayib, mos ravishda **4,4** (*-4,8 foiz*) va **3,1** mlrd (*-3,9 foiz*) dollarni tashkil etdi.

Shuningdek, Rossiyada amalga oshirilayotgan sanoat siyosati fonida ichki talabga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida xizmat qildi. Xususan, ishlab chiqarish sanoati 7,0 foizga, bunda kompyuter, elektron va optika uskunalarni ishlab chiqarish – 32,8 foizga, tayyor metall mahsulotlar – 27,8 foizga, transport vositalari va asbob-uskunalar ishlab chiqarish – 25,5 foizga oshdi.


**Xitoy** iqtisodiyotining o'sishi 2022-yildagi 3 foizdan **5,2** foizgacha tezlashdi. Pandemiya bilan bog'liq cheklovlarning bekor qilinishining ichki iste'molga qisqa muddatli samarasi kuzatilib, jumladan chakana savdo aylanmasining yanvar-aprel oylarida o'rtacha yillik o'sishi 10,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil yakuni bo'yicha **7,4** foizga sekinlashdi.

Bundan tashqari, ko'chmas mulk sohasida pasayish sur'atlari davom etib, mazkur sohaga investitsiyalar **9,6** foizga qisqardi (*2022-yilda 10 foizga qisqargan*). Umuman olganda, hisobot yilida Xitoy iqtisodiyotining o'sishiga xizmatlar sohasidagi jadal tiklanish sur'atlari muhim rol o'ynadi.

Xususan, 2023-yilda xizmatlar tarmog'ining o'sish sur'atlari 2022-yildagi 3 foizdan **5,8** foizgacha oshgan bo'lsa, bunda tashish va saqlash xizmatlari 0,7 foizdan 8 foizga, yashash va ovqatlanish xizmatlari -2,8 foizdan 14,5 foizga, moliyaviy xizmatlar – 3,1 foizdan 6,8 foizga tezlashgan.

1.2.1.1-chizma

#### Asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari dinamikasi



Manba: Savdo hamkor davlatlarning statistik agentliklari ma'lumotlari

**Turkiyada** 2023-yilda iqtisodiy o'sish 2022-yilga nisbatan sekinlashib, 4,5 foizni tashkil etdi (*2022-yilda 5,5 foiz*). 2023-yilning boshida yuz bergan tabiiy ofatlar mamlakat iqtisodiyotiga 104 mlrd dollarlik zarar yetkazganligi, shuningdek, Turkiya Markaziy banki tomonidan qat'iy pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi fonida ichki iste'mol va davlat xarajatlarning oshirilishi tufayli iqtisodiy faollik




kutilganidan yuqoriroq darajada shakllandi. Bunga, bir tomondan, ishsizlik darajasining pasayib boruvchi tendensiyasi (2022-yildagi 10,2 foizdan 2023-yilda 8,8 foizga pasaydi) ham sabab bo'lgan.

**Qozog'istonda** 2023-yilda iqtisodiy o'sish 5,1 foizni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,8 foiz bandga tezlashdi. Iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida savdo (1,88 f.b.), sanoat (1,26 f.b.) hamda qurilish (0,70 f.b.) sohalarini qayd etish lozim.

1.2.1.2-chizma

### Asosiy savdo hamkor davlatlardagi yillik inflyatsiya darajasi va foiz stavkasi



Manba: Savdo hamkor davlatlarning Markaziy banklari ma'lumotlari

\*Xitoy inflyatsiya bo'yicha rasmiy maqsadli ko'rsatkichga ega emas, inflyatsiyaning 3 foizlik darajasi maqbul qiymat sifatida belgilangan.



Hisobot yilida O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlarida qat’iy pul-kredit siyosati saqlab qolingan holda o‘‘sib borayotgan talabga munosib ravishda ishlab chiqarish taklifining ortib borishi inflyatsiyani jilovlash imkonini berib, **Rossiyada** inflyatsiya darajasi 7,4 foizni (2022-yilda – 11,9 foiz), **Qozog‘istonda** – 9,8 foiz (20,3 foiz)ni tashkil etdi.

**Xitoyda** iste‘mol kayfiyatining past darajada shakllanishi hamda ishlab chiqarish tomonidan nomutanosib ravishda taklifning oshishi hisobiga deflyatsion jarayonlar kuzatilib, inflyatsiya darajasi **-0,3** foizni tashkil etdi (2022-yilda – 1,8 foiz).

**Turkiyada** inflyatsion bosimining kuchayib borishi fonida pul-kredit siyosatining qat’iyashtirilishi inflyatsiya darajasini 2022-yildagi darajada – **64** foiz atrofida saqlab qolish imkonini berdi.

Asosiy savdo hamkor davlatlarning Markaziy banklari hisobot yilida ichki iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda pul-kredit siyosatini amalga oshirdi.

Xususan, **Rossiya** banki birinchi yarim yillikda asosiy stavkani o‘zgarmas **7,5** foizda qoldirib, ikkinchi yarim yillikdan boshlab, inflyatsion kutilmalarning yuqori darajada shakllanishi fonida 2023-yil yakuniga qadar asosiy stavkani bosqichma-bosqich 5-marta qayta ko‘rib chiqib, yillik **16** foiz darajasida belgiladi.

**Qozog‘iston** Markaziy banki deyarli 9 oy davomida asosiy stavkani 16,75 foiz darajasida saqlab, to‘rtinchi chorakda inflyatsiya sur‘atlari va kutilmalarning sekinlashishi hisobiga pul-kredit siyosatini yumshatib, yil yakuni bo‘yicha asosiy stavkani **15,75** foiz darajasigacha pasaytirdi.

**Turkiya** Markaziy banki 2023-yilda 27 oylik yumshatishdan so‘ng, qat’iy pul-kredit siyosati siklini boshladi. Yil boshidan beri regulyator asosiy stavkani 3 400 bazis bandga oshirib, yilik **42,5** foiz darajasida belgiladi.

**Xitoy** regulyatori iste‘molni rag‘batlantirish hamda ko‘chmas mulk bozoridagi holatni yaxshilash maqsadida yumshatish siyosatini davom ettirib, asosiy stavkani yil davomida 3,65 foizdan **3,45** foizgacha pasaytirdi.

Shuningdek, hisobot yilida Qozog‘iston milliy valyutasi dollarga nisbatan 2022-yildagi 7,2 foizlik qadrsizlanishdan so‘ng **1,7** foizga mustahkamlandi. Rossiya milliy valyutasida, aksincha holat kuzatilgan bo‘lib, rubl dollarga nisbatan **27,5** foizga qadrsizlandi (2022-yilda 5,3 foizga mustahkamlangan).

Xitoy yuanining dollarga nisbatan almashuv kursi 2023-yil davomida barqaror darajada shakllanib, yil davomida **1,7** foizga qadrsizlandi (2022-yilda – 9,2 foiz).

Hisobot yilida Turk lirasining dollarga nisbatan qadrsizlanish sur‘atlari 2022-yilga nisbatan tezlashib, **57,2** foizni tashkil etdi (2022-yilda – 53,0 foiz).


## 1.2.2. Global iqtisodiyot va jahon xomashyo bozorlaridagi o'zgarish va kutilmalar

2023-yilda, Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, **global savdo** hajmlarining o'sishi 2022-yildagi 5,6 foizdan **0,2 foizgacha** pasayib, so'nggi 50 yildagi (*inqiroz davrlardan tashqari*) eng sekin o'sish qayd etilgan<sup>8</sup>. Mazkur sekinlashuv asosan tovarlar savdosining qisqarishi (*-2,2 foiz*) bilan bog'liq bo'lib, hisobot yilida ba'zi rivojlangan iqtisodiyotlardagi qisqarish va rivojlanayotgan mamlakatlaridagi pasayish hamda global sanoat ishlab chiqarish o'sishining keskin sekinlashuvi (*0,7 foiz*) hisobiga yuzaga kelgan.

2024-yilda global sanoat ishlab chiqarish sur'atining yaxshilanishi fonida global savdo o'sishi **2,3 foizni** tashkil etishi prognoz qilinmoqda.


1.2.2.1-chizma

### 2020-2023-yilda global savdo va sanoat o'sish ko'rsatkichlari



1.2.2.2-chizma

### 2020-2023-yillarda asosiy xomashyo tovarlari narxlarining o'zgarishi, 2010-yil bazaviy yil



Manba: Jahon banki ma'lumotlari

2023-yilda jahon bozoridagi aksariyat xomashyo tovarlari narxlarida talabning susayishi fonida pasayish kuzatildi. Xususan, hisobot yilida asosiy xomashyo narxlari indeksi 2022-yildagi 41,3 foizlik o'sishdan so'ng, **24,2 foizga** qisqardi. Sezilarli darajadagi qisqarish o'g'itlarda (*-34,9 foiz*), energiya manbalari (*-29,9 foiz*), boshoqli don mahsulotlari (*-11,5 foiz*), asosiy metallarda (*-11,0 foiz*) kuzatilgan.

<sup>8</sup> World Bank. 2024. *Global Economic Prospects, January 2024*. Washington, DC.

2023-yilda neft narxi, jumladan Yaqin Sharqdagi mojarolardan so‘ng o‘zgaruvchan bo‘lib, bir barrel (*Brent markasi*) uchun 2022-yildagi o‘rtacha 99,8 dollardan **82,6** dollargacha pasaydi.

Shu bilan birga, global faollikning past darajada shakllanishi va Xitoy iqtisodiyoti sekinlashishda davom etishi hisobiga neft narxi 2024-yilda bir barrel uchun **81** dollargacha tushishi kutilmoqda. Boshqa tomondan, Yaqin Sharqda mojaroning kuchayishi neft narxining keskin oshishiga ham olib kelishi mumkin.

1.2.2.1-jadval

### 2020-2023-yillarda asosiy xomashyo tovarlari o‘rtacha narxlarining o‘zgarishi

№	Tovar nomlanishi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023/2022, foizda
<b>1</b>	<b>Energiya manbalari</b>				
	Neft (Brent), <i>dollar/barrel</i>	70,4	99,8	82,6	-17,2
	Ko‘mir, <i>dollar/mt</i>	128,9	292,7	145,9	-50,1
	Tabiiy gaz, <i>dollar/mmbib</i>	10,0	23,4	7,8	-66,5
<b>2</b>	<b>Qishloq xo‘jaligi</b>				
	Bug‘doy, <i>dollar/mt</i>	298,4	405,9	299,1	-26,3
	Shakar, <i>dollar/kg</i>	0,4	0,4	0,5	26,6
	Paxta, <i>dollar/kg</i>	2,2	2,9	2,1	-26,9
<b>3</b>	<b>Asosiy metallar</b>				
	Mis, <i>dollar/mt</i>	9 317,1	8 822,4	8 490,3	-3,8
<b>4</b>	<b>Qimmatbaho metallar</b>				
	Oltin, <i>dollar/troya unsiyasi</i>	1 799,6	1 800,6	1 942,7	7,9
	Kumush, <i>dollar/troya unsiyasi</i>	25,2	21,8	23,4	7,4

Manba: Jahon banki ma’lumotlari; \*mt – metrik tonna; mmbib – million Britaniya issiqlik birligi

2023-yilda Yevropa mamlakatlari tomonidan energiyaga bo‘lgan talabni qisqarishi va gaz zaxiralarining 90 foizidan yuqori ushlab turishi sababli tabiiy gaz va ko‘mir narxlari sezilarli darajada pasaydi. Xususan, tabiiy gaz o‘rtacha narxi **7,8** dollarni (-66,5 foiz), ko‘mir – **145,9** dollarni (-50,1 foiz) tashkil etdi. 2024-yilda suyultirilgan gaz ishlab chiqarish va uning eksportini ortib borishi hisobiga tabiiy gaz narxi pasayishda davom etishi kutilmoqda.

2023-yilda rivojlangan iqtisodiyotlar, jumladan metallar iste’molining 60 foizini tashkil etuvchi Xitoy tomonidan talabning qisqarishi sababli asosiy metallar narxi **11** foizga pasaydi.

Xitoyda ko‘chmas mulk sohasining barqarorlashishi, shuningdek yashil iqtisodiyotga o‘tishda ishlatiladigan metallarga (*mis va nikel kabi*) talab ortib borishi sababli metallar narxi 2024-yilda pasayishni davom etib, 2025-yilda esa o‘sishi kutilmoqda.

### Grinflyatsiya

Soʻnggi yillardagi inflyatsiyaning asosiy omillari orasida energiya narxining sezilarli darajada oshishi qayd etilmoqda. Bunga, bir tomondan pandemiyadan keyin global talabning tez tiklanishi, geosiyosiy mojarolar tufayli taʼminot zanjirlarining cheklanishi, OPEK+ mamlakatlari tomonidan neft qazib olishning qisqartirilishi hamda 2020–2021-yillarda energetika sohasiga kam sarmoya kiritilishi sabab boʻlmoqda.

Biroq, yuqoridagi energiya bilan bogʻliq shoklar asosan qisqa muddatli boʻlsa-da, global iqlim siyosatining amalga oshirilishi energiya narxining uzoq muddatli drayveri boʻlishi mumkin. XVJ hisob-kitoblariga koʻra, global iqlim maqsadi, yaʼni oʻrtacha havo haroratining 2°C gacha koʻtarilishiga yoʻl qoʻymaslikka erishish uchun CO<sub>2</sub> tonnasi uchun 75 dollar miqdorida uglerod soligʻini talab qiladi<sup>1</sup>. Bu, XVJga koʻra, energiya narxlarining jiddiy oʻsishiga olib keladi. Xususan, 2030-yilga kelib, koʻmirning oʻrtacha narxi 200 foizdan ortiq, tabiiy gaz deyarli 70 foiz, elektr energiyasi – 45 foiz, benzin – 15 foizga oshadi. Energiya narxlarining bunday koʻtarilishi, oʻz navbatida, doimiy global inflyatsiyaga va uni jilovlash uchun uzoq vaqt davomida yuqori foiz stavkalarini saqlab turishni taqozo etadi. Yashil siyosatga oʻtish, energiya narxlarining oshishi va inflyatsiya oʻrtasidagi bu bogʻliqlik **grinflyatsiya** (*greenflation*; ingl. *tilidan green* – “yashil” va *inflation* – “inflyatsiya”) deb ataldi.

<sup>1</sup>International Monetary Fund (IMF). 2019. Fiscal Monitor: How to Mitigate Climate Change. Washington, October.

2023-yilda asosiy ekinlar, ayniqsa, don mahsulotlarining taklifi oshishi tufayli oziq-ovqat narxlari **9,2** foizga pasaydi. Shu bilan birga, oziq-ovqat narxlari 2024-yilda qariyb **1** foizga, 2025-yilda esa **4** foizga pasayishi prognoz qilinmoqda. Bunda, oziq-ovqat narxlarining oshishiga sabab boʻlishi mumkin asosiy xavflar energiya narxlarining oshishi, ob-havoning bilan bogʻliq muammolar, savdo cheklovlari hamda Qora dengiz hududidagi noaniqliklarni oʻz ichiga oladi.

Oʻz navbatida, XVJ prognozlariga koʻra, 2024-2025-yillarda global iqtisodiyotda barqaror oʻsish surʼatlari saqlanib, global iqtisodiy oʻsish mos ravishda **3,2** foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bunda, rivojlangan mamlakatda iqtisodiy oʻsish 2024-yilda – **1,7** foiz, 2025-yilda esa **1,8** foiz, rivojlanayotgan mamlakatlarda mos ravishda **4,2** foizdan tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

XVJning inflyatsiya boʻyicha optimistik prognozlariga koʻra, global inflyatsiya darajasi 2024-yilda **5,9** foiz, 2025-yilda – **4,5** foizga, shuningdek rivojlangan iqtisodiyotlarda mos ravishda **2,6** va **2,0** foiz hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda **8,3** va **6,2** foizgacha sekinlashishi kutilmoqda<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> International Monetary Fund. 2024. *World Economic Outlook— Steady but Slow: Resilience amid Divergence*. Washington, DC. April.

### 1.3. Inflyatsion jarayonlar va kutilmalar


2023-yilning birinchi yarim yilligida umumiy inflyatsiya dinamikasi pasayishda davom etib, bir xonali songacha tushdi. Ushbu jarayon, asosan, qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy omillar, o‘tgan yilgi yuqori baza effekti ta’sirlarini chiqib ketishi, import narxlari barqaror saqlangani hamda tartibga solinadigan narxlarning o‘zgarishsiz qoldirilgani bilan ham izohlanadi.

Ikkinchi yarim yillikda esa inflyatsiya darajasi deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Bunga asosan, mevalar narxlari, chakana xizmatlar, avtomobil yonilg‘isining qimmatlashishi va ma’muriy tarzda belgilanadigan ayrim tovar va xizmatlar narxlari o‘zgarishi hisobiga yuz berdi.

Yilning yakunida umumiy inflyatsiya (*iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha*) 8,8 foizni tashkil etib, yil boshiga nisbatan ushbu ko‘rsatkich 3,5 foiz bandgacha pasayishi qayd etildi.

1.3.1-chizma

**Inflyatsiya ko‘rsatkichlari dinamikasi,**  
*o‘tgan yilning mos oyiga nisbatan*



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari


Shuningdek, YaIM deflyatori va ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (*IChNI*) dinamikalarida o‘zgaruvchan tendensiyalar kuzatildi. Bunda, birinchi yarim yillikda kuzatilgan pasayishdan so‘ng, u ikkinchi yarim yillikda o‘svuchi trendga aylandi va yil yakunida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 12,2 va 14,4 foizni tashkil etdi.

**Oziq-ovqat inflyatsiyasi** 2023-yil davomida sezilarli pasayishga qaramasdan yil yakunidagi darajasi yuqori saqlanib qoldi. Bu suv tanqisligi tufayli guruch narxlarini oshishi, yil boshidagi anomal sovuq ta’sirida meva ko‘chatlari zararlanganligi sababli mevalar narxlarini oshishi, go’sht mahsulotlari narxlarini yuqori shakllanishi, shuningdek, iqtisodiyotda saqlanib qolayotgan yuqori iste‘mol talabi hisobiga umumiy ovqatlanish narxlarini oshishi bilan izohlanadi.

Yil davomida tashqi narxlar barqarorlashishi hisobiga import qilinadigan asosiy turdagi mahsulotlar, xususan, bug‘doy uni va o‘simlik yog‘lari narxlari arzonlashib, ushbu guruh tovarlari narxining yuqori oshishini oldini oldi.

1.3.2-chizma

**INI asosiy tarkibiy qismlari inflyatsiyasi dinamikasi,  
o‘tgan yilning mos oyiga nisbatan**



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari

**Nooziq-ovqatlar** tovarlari guruhi inflyatsiyasi 2023-yilda nisbatan past darajada shakllandi. Shu bilan birga, ushbu guruh inflyatsiyasiga savdo-hamkor davlatlar tomonidan benzin eksportiga kiritilgan cheklovlar natijasida avtomobil yonilg'isi narxining oshishi va uning transport xizmatlariga oshiruvchi ta'siri yuzaga keldi.

Ikkinchi yarim yillikdagi almashuv kursi o'zgarishining ta'siri kiyim-kechaklar, dori vositalari, shaxsiy gigiyena va tozalash vositalari hamda maishiy texnika narxlarida namoyon bo'ldi.

O'z navbatida, jahon bozorida xomashyo tovarlari narxidagi pasayish tendensiyasi, transchegaraviy transport va yuk tashish zanjirlari tiklanayotgani import inflyatsiyasining o'sishini tiyib turuvchi omillardan bo'ldi.

2023-yilda **xizmatlar** inflyatsiyasida pasayuvchi tendensiya kuzatilmadi. Xususan, maishiy xizmatlar hamda yo'lovchi avtomobil, havo va temir yo'l transporti, suv va issiqlik energiyasi narxlari, dam olish va madaniy hordiq xizmatlari qimmatlashgani umumiy inflyatsiyaga oshiruvchi bosim yaratdi.


Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotdagi yuqori iste'mol talab sharoitida xizmatlar guruhi inflyatsiyasini pasaytirish uzoqroq muddatni talab qiladi.

## Bazaviy inflyatsiya

2023-yil davomida bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichida pasayuvchi tendensiya davom etdi va yil boshiga nisbatan 5,3 foiz bandga pasayib, 8,5 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, bazaviy inflyatsiyaning pasayish sur'ati yil boshidagi prognozga nisbatan sekinroq kechdi.

1.3.3-chizma

### Umumiy inflyatsiya va bazaviy inflyatsiya dinamikasi, o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari

Ushbu davrda bazaviy inflyatsiyaning pasayishiga bir tomondan, o'tgan yilgi oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha yuqori narx effektining chiqib ketishi, ikkinchi tomondan, tashqi inflyatsion omillar kamayishi va nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari ta'minlangani o'z hissasini qo'shdi. Aksincha, xizmatlar narxining o'sishi bazaviy inflyatsiyaga oshiruvchi omillardan bo'ldi.


Shu o'rinda, ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganiga qaramay, inflyatsiyaga bosim yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xatarlar, xususan, yuqori iste'mol talabi, davlat xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlaridan oshib ketishi, chakana kreditlarga talabning yuqoriligi kabi monetar omillar ta'siri saqlanib qolmoqda. Bu, o'z o'rnida, bazaviy inflyatsiyaga davomiy bosim shakllantiradi.

## Inflyatsion kutilmalar

2023-yilda aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalarida o'zgaruvchan tendensiya kuzatildi. Xususan, joriy yilning fevral-iyul oylarida iqtisodiyot subyektlarining inflyatsion kutilmalarida barqaror pasayish kuzatilgan bo'lsa, avgust oyidan o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ldi.



### Aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Yil yakunida aholining inflyatsion kutilmalari 13,6 foizni, tadbirkorlik subyektlarida esa nisbatan yuqoriroq bo‘lib, 13,7 foizni tashkil etdi.

Aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalariga asosan almashuv kursi, energiya resurslari, ish haqi va kommunal xizmatlar oshishi bo‘yicha kutilmalar ta’sir etgan.

1.3.1-jadval

### Aholi inflyatsion kutilmalari, sohalar kesimida

Kutilmalar	2023-yil											
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
Ilm-fan /ta’lim	15,4	14,5	14,2	14,3	14,4	13,2	13,2	12,8	12,9	13,8	14,3	14,5
Tibbiyot	16,7	14,2	14,2	12,9	11,8	12,8	12,5	13,2	13,0	13,3	13,1	13,6
Bank-moliya	17,2	15,3	14,5	14,1	14,0	13,3	13,1	14,8	13,6	13,9	14,2	13,9
Davlat tashkiloti	16,7	14,9	14,6	13,5	13,6	13,5	12,7	14,0	13,6	13,0	13,9	13,1
Ishlab chiqarish	15,8	15,8	15,7	15,6	14,8	16,4	12,8	14,1	14,9	14,8	13,8	14,8
Qishloq xo’jaligi	17,2	17,7	12,0	15,5	13,4	12,4	13,1	16,0	15,0	12,9	11,6	13,3
Qurilish	18,4	11,4	16,3	13,6	13,8	12,2	14,1	14,8	14,2	13,6	12,0	15,2
Kafe-restoran	15,9	12,6	13,3	15,9	10,5	13,9	13,9	11,8	14,1	14,1	13,8	9,3
Maishiy xizmat	14,6	13,3	13,8	11,9	10,5	11,2	11,8	12,7	13,6	13,3	11,6	10,6
Tashish xizmatlari	16,9	12,3	14,2	13,4	11,0	11,6	13,7	15,0	12,7	10,7	11,1	12,7
Savdo	14,8	12,8	14,4	15,1	13,1	13,1	14,4	13,4	12,8	16,5	13,3	13,1
Turizm	16,6	11,1	13,9	11,3	10,9	13,1	11,1	10,6	11,8	13,2	10,9	13,6

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari



1.3.2-jadval

**Aholi va tadbirkorlik subyektlari inflyatsion kutilmalarining asosiy omillari**  
(respondentlar ulushi, foizda)

	2023-yil											
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
<b>Aholi</b>												
Almashuv kursining o'zgarishi	42	46	51	45	47	50	59	70	65	59	58	60
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	47	45	36	31	32	33	36	43	45	49	43	47
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	24	24	38	50	36	40	32	36	30	24	38	33
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	22	27	24	21	21	22	32	27	34	36	38	37
Bozorda monopoliyalarning mavjudligi	35	37	39	40	36	38	31	33	32	31	31	31
Transport (yo'l kira) xarajatlarining oshishi	36	35	27	23	21	20	21	22	23	29	26	29
<b>Tadbirkorlik subyektlari</b>												
Almashuv kursining o'zgarishi	44	48	50	43	44	55	60	71	68	62	61	62
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	38	46	33	29	30	32	37	38	42	47	40	42
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	20	25	21	18	20	21	29	24	31	37	38	33
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	21	25	34	41	36	39	33	30	29	24	37	34
Transport qimmatlashishi	38	46	33	29	30	26	25	25	28	32	29	30
Soliq yukining yuqoriligi	18	23	19	21	18	21	20	18	20	20	19	24

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

## 6-havola

## O‘zbekiston ko‘chmas-mulk bozoridagi tendensiyalar

2023-yilda uy-joy bozoridagi yuqori faollik narxlar o‘shishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Turar-joylar ijarasi bozori yil davomida barqaror shakllandi.

Birlamchi bozorda 2023-yil yakunlariga ko‘ra, **uy-joy narxlarining** so‘mdagi indeksi yillik 39,6 foizni (*dollardagi indeksi – 26,9 foiz*) tashkil etgan bo‘lsa, ikkilamchi bozorda, uy-joy narxlarining so‘m va dollardagi indeksleri mos ravishda 35,1 va 23,0 foizlarni tashkil etdi (*1-2-chizmalar*).

Yuqori daromadlilik va uy-joy narxlarining ko‘tarilishi fonida talabning oshishi so‘nggi yillarda uy-joy sotib olish imkoniyatini ma‘lum darajada pasayishiga olib kelmoqda. 2023-yilda nominal daromadlar va uy-joy narxlari o‘rtasidagi o‘shish farqi 2022-yildagi 4,4 foizdan 2023-yilda 20 foizgacha oshdi.


Hududlar kesimida uy-joy narxlarining yuqori o‘shishi infratuzilma jihatdan yaxshiroq rivojlangan, yirik va turistik markazlardan hisoblangan hududlarda (*Toshkent sh., Toshkent, Andijon, Buxoro va Xorazm viloyatlari*) kuzatildi va ushbu hududlarda uy-joy narxlarining so‘mdagi indeksi 40 foizgacha ko‘tarildi.

1-chizma

2-chizma

## Birlamchi uy-joy bozori narxlari o‘zgarishi

## Ikkilamchi uy-joy bozori narxlari o‘zgarishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Umuman olganda, 2023-yilda birlamchi va ikkilamchi uy-joy bozorlarida narxlarning sezilarli darajada o‘shishi yuqori faollik fonida kuzatildi va yil davomida uy-joy oldi-sotdi bitimlari soni 335 mingtani (*2022-yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan*) tashkil etdi (*3-4-chizmalar*).

Ko‘chmas mulk bozoridagi yuqori talab, asosan, ushbu bozor aktivlarining boshqa investitsiya va jamg‘arma vositalariga nisbatan jozibadorligi yuqori saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, 2023-yil davomida turar-joy **ijara** bozorida o‘tgan yilgi tashqi iqtisodiy shoklar ta‘sirilarining chiqib ketishi hamda ichki talab va taklifning muvozanatlashuvi natijasida narxlarning so‘mdagi indeksi oshgan holda 8,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, dollardagi indeksi 1 foizga pasaydi (*5-chizma*). Aholi daromadlari va ijara haqi o‘shishi o‘rtasidagi tafovut manfiy (- 5,2%) bo‘ldi.

3-chizma

Uy-joy bitimlari soni



1-jadval

Hududlar kesimida uy-joy bitimlari soni o'zgarishi, yillik o'zgarish foizida


Hudud	2022-yil		2023-yil				
	IV-chorak	Yillik	I-chorak	II-chorak	III-chorak	IV-chorak	Yillik
Toshkent shahri	10%	6%	9%	8%	4%	-14%	0%
Toshkent viloyati	-10%	-5%	-11%	12%	16%	5%	5%
Sirdaryo viloyati	10%	8%	-13%	18%	18%	-2%	4%
Jizzax viloyati	22%	20%	1%	22%	23%	-12%	5%
Samarqand viloyati	2%	7%	1%	6%	15%	8%	6%
Farg'ona viloyati	-3%	9%	-11%	6%	17%	-1%	1%
Namangan viloyati	1%	12%	-2%	10%	30%	6%	9%
Andijon viloyati	0%	5%	-4%	8%	20%	8%	6%
Qashqadaryo viloyati	7%	14%	-2%	11%	28%	21%	12%
Surxondaryo viloyati	-22%	2%	-24%	-5%	26%	-7%	-6%
Buxoro viloyati	-4%	11%	-17%	18%	32%	13%	8%
Navoiy viloyati	13%	16%	15%	28%	19%	-6%	12%
Xorazm viloyati	9%	20%	13%	15%	24%	1%	10%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15%	13%	19%	23%	24%	-7%	12%
<b>JAMI</b>	<b>3%</b>	<b>7%</b>	<b>-1%</b>	<b>11%</b>	<b>16%</b>	<b>-2%</b>	<b>4%</b>

Manba: e-notarius.uz ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Shuningdek, Toshkent shahrida respublikaga qaraganda ijara narxlari o'sishi sezilarli darajada sekinlashdi. Farg'ona (21,1 foiz), Buxoro (16,5 foiz) va Toshkent (17,6 foiz) viloyatlarida boshqa hududlarga qaraganda (5-7 foiz) narxlar tezroq o'sdi (6-chizma).


4-chizma

Turar-joy ijara bozorida talab va taklif dinamikasi



5-chizma

Turar-joy ijara narxlari o'zgarishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

## 1.4. O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei ko‘rsatkichlari

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining **xalqaro investitsiyaviy mavqei** va **to‘lov balansi** ko‘rsatkichlari **tashqi omillar** – asosiy savdo hamkor mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar, jahonda ayrim eksport xomashyo mahsulotlari narxlarining pasayishi, shuningdek **ichki omillar** – importga bo‘lgan talabning oshishi va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatishning qimmatlashishi sharoitida shakllandi.


Hududlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli investitsiya loyihalari doirasida tovar va xizmatlar importiga talab hamda tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining ortishi hamda mamlakatga joriy pul o‘tkazmalarining qisqarishi joriy operatsiyalar hisobining manfiy saldosi oshiruvchi omillardan bo‘ldi.

Birjaviy xomashyo narxlarining oshishi hamda turizm va transport xizmatlarining sezilarli o‘shishi hisobiga tovar va xizmatlar eksporti hajmining o‘shishi, shuningdek mamlakatga xalqaro pul o‘tkazmalari hajmi o‘zining fundamental o‘shish trendi doirasida shakllanishi joriy operatsiyalar hisobiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

2023-yilda to‘lov balansi **joriy operatsiyalar hisobining** manfiy saldosi 2022-yilga nisbatan kengayib, **7,8 mlrd dollar** doirasida shakllandi.

1.4.1-chizma

Joriy operatsiyalar hisobi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

**Tovar va xizmatlar eksporti.** 2023-yilda jahon bozorida asosiy xomashyo narxlarining barqaror darajada saqlanib qolishi, O‘zbekistonda turizm sohasida o‘shish sur‘atlarining jadallashuvi hamda transport xarajatlarining nisbatan mo‘tadillashuvi ta‘sirida eksport<sup>10</sup> hajmi 2022-yilga nisbatan **12 foizga** oshib, **24,5 mlrd dollarga** yetdi.

<sup>10</sup> "To‘lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei bo‘yicha qo‘llanma" (TBQ-6, XVJ, 2009-y.) asosida.

Xususan, tovarlar eksporti 2022-yilga nisbatan **13** foizga oshib, **19,4** mlrd dollarni hamda xizmatlar eksporti qariyb **42** foizga<sup>11</sup> o'sib, **5,1** mlrd dollarni tashkil qildi.

**Tovar va xizmatlar importi.** Import tovarlariga nisbatan yalpi talabning yuqori darajada saqlanib qolishi hamda iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida xorijdan mashina, uskuna, transport vositalari va xomashyoning xarid qilinishi hisobiga 2023-yilda tovar va xizmatlar importi 2022-yilga nisbatan **18** foizga oshib, **42,1** mlrd dollar atrofida shakllandi.

Bunda, tovarlar importi **22** foizga o'sib, **34,5** mlrd dollarni, xizmatlar importi esa **4** foizga oshib, **7,6** mlrd dollarni tashkil qildi.

Import hajmining eksport hajmiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi fonida savdo balansi manfiy saldosi **17,6** mlrd dollar doirasida shakllanib, ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi bilan qisman qoplandi.

**Birlamchi va ikkilamchi daromadlar.** Birlamchi va ikkilamchi daromadlarning asosiy manbai bo'lgan transchegaraviy pul o'tkazmalari 2023-yilda ham joriy operatsiyalar hisobi taqchilligini kamaytiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Asosiy savdo hamkor mamlakatlarga qisqa muddatga ishlash maqsadida ketgan mehnat muhojirlari sonining kamayishi hamda geografiasining o'zgarishi hisobiga O'zbekiston rezidentlarining norezidentlardan olgan birlamchi daromadlari 2022-yilga nisbatan **16** foizga kamayib, **3,6** mlrd dollarni tashkil qildi.


Xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajalarda shakllanganligi sharoitida tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining o'sishi norezidentlarning O'zbekistondagi birlamchi daromadlari **30** foizga o'sib, **4,3** mlrd dollarga yetishida namoyon bo'ldi va birlamchi daromadlarning manfiy saldosi **761** mln dollarni tashkil etdi.

Birlamchi daromadlar bo'yicha tushumlarning asosiy manbai xorijga qisqa muddatga ishlash maqsadida ketgan O'zbekiston fuqarolarining ish haqi ko'rinishdagi daromadlari hisoblanib (*qariyb 82 foizi*), 2022-yilga nisbatan **25** foizga kamaydi. "Birlamchi daromadlar" komponenti bo'yicha xarajatlarning oshishi asosan norezidentlarning O'zbekistonga kiritgan investitsiyalari va tashqi qarzarlar bo'yicha to'langan daromad va foizlari hissasiga to'g'ri keladi.

---

<sup>11</sup> Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan statistik so'rovlar natijalari va ekspert baholashlarga ko'ra 2022-yil davomida xizmatlar eksportidagi tuzatishlarni hisobga olmaganda.

### Joriy transfertlar dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ikkilamchi daromadlar ijobiy saldosi **10,5** mlrd dollarni tashkil etib, bunda norezidentlardan kelib tushgan daromadlar **11,2** mlrd dollar hamda ular bo'yicha to'lovlar **671,9** mln dollarni tashkil etdi.

**Joriy operatsiyalar hisobi** taqchilligi asosan hukumat va xususiy sektor korxonalarini tomonidan davlat dasturlari va investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish doirasida jalb qilingan tashqi qarz mablag'lari va xorijiy investitsiyalar hisobiga shakllangan.


2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof hajmi 2022-yilga nisbatan **16** foizga kamayib, qariyb **2,2** mlrd dollarni tashkil etib, ularning kapitaldagi sof o'sishi **870** mln dollar, bosh kompaniyalardan olingan qarzlarning bo'yicha majburiyatlarning sof o'sishi **914** mln dollar hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (*MTB*) doirasidagi investitsiyalarning sof kamayishi **382** mln dollarga teng bo'ldi.

Shuningdek, xorijiy investorlar tomonidan daromadlarning reinvestitsiya qilinishi 2022-yilga nisbatan **36** foizga kamayib, **786** mln dollarni tashkil etdi.

2023-yilda portfel investitsiyalar manfiy saldosi nomoliyaviy tashkilotlar kapitaliga xorijiy portfel investitsiyalarning jalb qilinishi, shuningdek hukumat, tijorat banklari va boshqa korxonalar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar uchun hisoblangan foizlar va "yashil" yevrobondlar hisobiga **995,4** mln dollar miqdorida shakllandi.

Shu bilan birga, xorijdan jalb qilingan kredit va qarzlarning joriy operatsiyalar hisobi taqchilligini moliyalashtirgan asosiy manbalardan bo'lib, mazkur operatsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan **57** foizga ko'payib, **7,1** mlrd dollarni tashkil qildi.

## To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibining o'zgarishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yil yakuniga ko'ra sof xalqaro investitsiyaviy mavqei qisqarishiga qaramasdan, O'zbekistonning "sof kreditor" mavqei saqlab qolindi.

2023-yilda **jami chet el aktivlari** hajmi 3 foizga ko'payib, **84,9** mlrd dollarni tashkil qilgan bo'lsa, **jami tashqi majburiyatlari** hajmi 14 foizga ko'payib, **72,5** mlrd dollarga yetdi. Mamlakatimiz **sof xalqaro investitsiyaviy mavqei** 2024-yil 1-yanvar holatiga **12,4** mlrd dollarni tashkil qildi.

Xorijiy valyutadagi aktivlarning ko'payishi va jahonda oltin narxining ijobiy tendensiya kuzatilishiga qaramasdan, sof xalqaro investitsiyaviy mavqeining pasayishi asosan davlat, bank va boshqa xususiy sektor korxonolari tomonidan tashqi qarz va xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi hisobiga yuzaga keldi.


**Umumiy tashqi qarz**<sup>12</sup> hajmi 22 foizga o'sib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **53,1** mlrd dollarga yetdi. Umumiy tashqi qarz tarkibida davlat sektorining ulushi 59 foizdan 56 foizgacha qisqargan bo'lsa, xususiy sektor ulushi 41 foizdan 44 foizgacha oshdi.

Hukumat tomonidan hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini moliyalashtirish ko'lamining ortishi, shuningdek xususiy sektorda asosan tijorat banklari, energetika sektori va iqtisodiyotning boshqa sektorlari korxonolari tomonidan yangi qarzlarning jalb qilinishi hisobiga umumiy tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar 2023-yilda **9,5** mlrd dollarga ko'paydi.

<sup>12</sup> Davlat va davlat tomonidan kafolatlangan hamda xususiy qarz, shu jumladan qarz bo'yicha hisoblangan lekin to'lanmagan foizlarni o'z ichiga oladi.

1.4.4-chizma

## O'zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiyaviy mavqei




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mazkur tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar o'sishining **3,9** mlrd dollari davlat, **5,6** mlrd dollari xususiy sektor tashqi qarzi bo'yicha majburiyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

1.4.5-chizma

## O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Umumiy tashqi qarz tarkibida davlat qarzi bo'yicha majburiyatlar qoldig'i **15** foizga ko'payib, **29,7** mlrd dollarni, bank sektorida **30** foizga ko'payib, **8,7** mlrd dollarni, yoqilg'i-energetika sektorida **23** foizga ko'payib, **6,1** mlrd dollarni hamda boshqa sektorlarda **41** foizga oshib, **8,6** mlrd dollarni tashkil qildi.

2023-yilda tashqi sektor statistikasini takomillashtirish maqsadida XVJning navbatdagi texnik ko'mak missiyasi jalb qilindi va tajriba almashish dasturi doirasida Gruzija Markaziy banki mutaxassislarining tashrifi davomida to'lov balansi statistikasini yuritish amaliyoti takomillashtirildi.



## II. 2023-YILDA BANK TIZIMI RIVOJLANISHI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGI

2023-yilda Markaziy bankning makroprudensial siyosati global iqtisodiyotdagi noaniqliklarning davom etishi sharoitida bank tizimining moliyaviy barqarorligini maqbul darajada ta'minlashga yo'naltirildi.

Vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning banklar kapitali va likvidligiga bo'lgan salbiy ta'sirlarini minimallashtirish maqsadida banklar faoliyati doimiy ravishda Jahon banki ekspertlari ko'magida ishlab chiqilgan nazorat indikatorlari va XVJning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinib, turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazib borildi.

Ushbu stress-testlar natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklari aktivlari sifatini haqqoniy baholash, ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yetarli miqdorda zaxiralarni shakllantirish, banklar uchun ahamiyatga molik eng yirik mijozlarning moliyaviy holatini monitoring qilib borish, muammoli kreditlarni undirish tizimini takomillashtirish, bank faoliyatiga oid bo'lmagan mol-mulklarni bank balansidan chiqarish, xarajatlarni maqbullashtirish, kapital va likvidlilik buferlarini o'z vaqtida shakllantirish borasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirib borildi.


### 2.1. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati

2023-yilda bank tizimi **sof foydasi** 2022-yilga nisbatan **24** foizga oshib, **12,4** trln so'mni tashkil etdi. Bunda, olingan yalpi daromadlar hajmi **128,7** trln so'mni hamda xarajatlar **116,4** trln so'mni tashkil qildi.

Banklar jami daromadlarining **67** foizi **foizli daromadlar**, **33** foizi **foizsiz daromadlar** hissasiga to'g'ri keldi. Foizli daromadlarning **88,3** foizi kredit va mijozlarning majburiyatlari, **6,2** foizi boshqa banklarga joylashtirilgan mablag'lar, **5,5** foizi qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlarni tashkil etadi.

2.1.1-chizma

#### Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA) dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


2023-yilda bank tizimining rentabellik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lib, hisobot yili yakunlari bo'yicha bank tizimi **aktivlari rentabelligi** 2022-yilga nisbatan **0,1 foiz** bandga oshib, **2,6 foizga** va **kapital rentabelligi** **0,9 foiz** bandga oshib, **14,2 foizga** teng bo'ldi.

Bank tizimi aktivlari rentabelligida 2023-yilning III choragida pasayish kuzatilib, ushbu holat ayrim banklar tomonidan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi qo'shimcha zaxiralar yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi (CIR)** 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan **1 foiz** bandga oshib, **34 foizga** (*ushbu ko'rsatkichning maqbul darajasi 50 foiz bo'lib, uning kichrayib borishi ijobiy baholanadi*) teng bo'ldi.

2.1.2-chizma

### Bank tizimi kapitallashuv darajasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Operatsion samaradorlik ko'rsatkichining yil boshiga nisbatan ortishi ayrim banklar bino va inshootlarini saqlash va ta'mirlash, bank xizmatlarini sug'urtalash va bank faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan konsalting (*digital banking*) xarajatlarining oshishi hisobiga kuzatilgan.

Hisobot yilida banklar **jami kapitali** hajmi **22 foizga** oshib, yil yakuni bo'yicha **97 trln so'mga**, ustav kapitali miqdori **15 foizga** o'sib, qariyb **69 trln so'mga** yetdi.

Shuningdek, 2023-yil yakunlari bo'yicha bank tizimida regulyativ kapital miqdori **106 trln so'mni** va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar **604 trln so'mni**, **kapital yetarliligi ko'rsatkichi 17,5 foizni** (*minimal talab 13 foiz*) tashkil etdi.

2.1.3-chizma

**Kapital yetarliligi ko'rsatkichi dinamikasi**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bank tizimi kapital yetarliligi ko'rsatkichining yil yakunida boshqa oylarda shakllangan ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori saqlanib qolishi kapital yetarliligi ko'rsatkichining hisoblash metodologiyasining o'zgarishi bilan bog'liq.

2023-yilda yuqori likvidli aktivlar hajmi 7,6 trln so'mga yoki 7 foizga kamayib 97 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, yuqori likvidli aktivlar tarkibida milliy valyutadagi aktivlar 4,5 trln so'mga, xorijiy valyutadagi aktivlar esa 3,1 trln so'mga kamayib, ularning hajmi mos ravishda 46,5 va 50,4 trln so'mni tashkil etdi.

2.1.4-chizma

**Yuqori likvidli aktivlarning (YLA) tarkibi va jami aktivlardagi ulushi dinamikasi**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Natijada, **yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi** 2023-yil boshiga nisbatan **4,6 foiz** bandga pasayib, yil yakunlari bo'yicha **14,9 foizni** (*minimal talab 10 foiz*) tashkil etdi.

Yuqori likvidli aktivlar kamayishi rivojlangan davlatlar Markaziy banklari asosiy stavkalarini oshirishi natijasida tashqi resurslarning qimmatlashishi va global nobarqarorlik sharoitida investorlar o'z mablag'larini xavfsiz aktivlarga yo'naltirishi fonida sodir bo'ldi.

2.1.5-chizma

### Likvidlilikni qoplash me'yori (*LCR*)




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Yuqori likvidli aktivlar hajmining kamayishiga qaramay, bank tizimida qisqa muddatli likvidlilik (*LCR*) va uzoq muddatli likvidlilik ko'rsatkichlari (*NSFR*) milliy valyutadagi depozitlarning 29 foizga (*38 trln so'mga*) o'sishi natijasida barqaror ichki resurs mablag'lari hosil bo'lishi hisobiga maqbul darajada shakllandi.

2.1.6-chizma

### Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (*NSFR*) dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bank tizimi bo'yicha **likvidlilikni qoplash me'yori** (*qisqa muddatli likvidlilik*) yil davomida **212** foizdan **165** foizgacha (*minimal talab 100 foiz*) pasaygan bo'lsada, bank tizimida kutilmagan stress holatlar yuzaga kelgan taqdirda ham banklar keyingi 30 kun davomida mijozlar oldidagi majburiyatlarni to'liq bajara olish imkoniyati mavjud bo'ldi.

Bank tizimining uzoq muddatli likvidlilik ko'rsatkichi – **sof barqaror moliyalashtirish me'yori** 2023-yil boshidagi **116** foizdan **4** foiz bandga pasayib, **112** foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich milliy va xorijiy valyutalarda ham **112** foizni tashkil etdi.

### 2.1.1. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Hisobot yilida banklarning **jami aktivlari 95** trln so'mga yoki **17,1** foizga oshib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga **652** trln so'mga yetdi.

Aktivlarning **70,2** foizi ajratilgan kreditlar qoldig'i, **8,2** foizi boshqa banklardagi mablag'lar, **5,1** foizi Markaziy bankdagi mablag'lar, **5** foizi investitsiyalar va sotib olingan qimmatli qog'ozlar, **3,1** foizi naqd pullar, **3** foizi asosiy vositalar, **3** foizi hisoblangan foizlar hamda **2,4** foizi boshqa xususiy mulklar va aktivlar hissasiga to'g'ri keladi.

Banklar tomonidan iqtisodiyotning kreditga bo'lgan talabini qondirish va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2023-yilda **251** trln so'm miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan **24** foizga ko'p kreditlar yo'naltirildi. Bunda, mazkur kreditlarning **60** foizi tadbirkorlik subyektlari hamda **40** foizi aholiga ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Xususan, xususiy banklar tomonidan 2023-yilda ajratilgan kreditlarning jami ajratilgan kreditlardagi ulushi **31** foizdan **43** foizga, korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlardagi ulushi **25** foizdan **34** foizga oshishi qayd etildi.


Shuningdek, hisobot yili davomida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining uzluksizligini ta'minlash hamda **aylanma mablag'larni** to'ldirish maqsadlariga **57** trln so'mlik revolver kreditlar yo'naltirildi.

Avval ajratilgan kreditlarning bank aylanmasiga qaytuvchanlik darajasi 2022-yil yakuniga nisbatan **7** foiz bandga oshib, hisobot yili yakuni bo'yicha **74** foizni tashkil etishi tashqi resurs mablag'larining qimmatlashishi sharoitida iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi.

Natijada, banklar tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 2023-yil boshiga nisbatan **21** foizga yoki **81** trln so'mga oshib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga **471** trln so'mga yetdi.


2.1.1.1-chizma

## Ajratilgan va soʻndirilgan kreditlar dinamikasi



2.1.1.2-chizma

## Kredit portfeli dinamikasi



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Mazkur kredit qoʻyilmalari qoldigʻining **milliy valyutada** ajratilgan qismi 2022-yildagiga nisbatan 2 foiz bandga oshib **55 foizni** tashkil etgan boʻlsa, **xorijiy valyutada** ajratilgan kreditlar salmogʻi esa 2 foiz bandga pasayib, jami kredit portfelining **45 foizini** tashkil etdi.

Kredit portfelida xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar qoldigʻi ulushining qisqarib borishi xorijdan jalb qilinadigan resurslar narxining oshishi, xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytuvchanlik darajasining oshishi (*2022-yildagi 69 foizdan 89 foizgacha*) hamda tadbirkorlik subyektlarining valyuta almashinuv kursi bilan bogʻliq xatarlardan himoyalanih boʻyicha koʻnikmasining (*tajribasining*) ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Ajratilgan kreditlar qoldigʻi iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha sanoat sohasida **10,7 foizga** oshib **140,2 trln soʻmni**, qishloq xoʻjaligida **12,3 foizga** oshib **47,3 trln soʻmni**, transport va kommunikatsiya sohasida **15,7 foizga** oshib **34,3 trln soʻmni**, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida **12,5 foizga** oshib **32,5 trln soʻmni** hamda qurilish sohasida **18 foizga** oshib **12,3 trln soʻmni** tashkil qilgan.

Tijorat banklari korporativ boshqaruvining takomillashtirib borilishi, raqamli xorijiy banklarning mamlakat bank bozoriga kirib kelishi, mijozlarga masofaviy xizmat koʻrsatish koʻlamining ortib borishi iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida kreditlash hajmlarining oshib borishiga zamin yaratmoqda.

Xususan, 2023-yil davomida **imtiyozli kreditlar**<sup>13</sup> qoldigʻi 5 foizga oʻsib (*6 trln soʻm*), yil yakunida **145 trln soʻmga** yetgan boʻlsada, jami **ajratilgan**

<sup>13</sup> Imtiyozli kreditlar sifatida foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi va undan past boʻlgan milliy valyutadagi kreditlar hamda Oʻzbekiston tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi va Hukumat kafolati ostida ajratilgan xorijiy valyutadagi kreditlar hisobga olingan.

**kreditlardagi ulushi** o'tgan yil boshidagi **36** foizdan joriy yil boshida **31** foizgacha pasaygan.

2023-yilda iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qondirib borishga sharoit yaratish hamda tashqi resurslar bozorida resurs narxining oshishi va uni jalb etish bo'yicha raqobatning kuchayishi fonida bank tizimiga uzoq muddatli ichki moliyalashtirish manbalarini jalb etishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, hisobot yilida banklarning jami majburiyatlari **555** trln so'mga yetib, 2022-yilga nisbatan 16 foizga yoki **78** trln so'mga oshdi. Majburiyatlar o'sishining **48** foizi jalb qilingan **kredit mablag'lari**, **32** foizi **depozitlar**, 7 foizi mahalliy **banklararo kredit va depozitlar**, 4 foizi **subordinar qarzlilar** hamda 9 foizi boshqa majburiyatlar hisobiga shakllandi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga majburiyatlar tarkibida depozitlar **44** foizni, jalb qilingan kreditlar **40** foizni, boshqa banklardan jalb qilingan mablag'lar **8** foizni, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar **2** foizni, subordinar qarzlilar, hisoblangan foiz to'lovlari, Markaziy bankka to'lanadigan mablag'lar va boshqa majburiyatlar **6** foizni tashkil qildi.

Tijorat banklari tomonidan 2023-yil davomida jalb qilingan depozitlar tarkibidagi aholi omonatlari qoldig'i **37** foizga oshib, **86** trln so'mga, jumladan, milliy valyutada jalb etilgan omonatlar qoldig'i **45** foizga yoki **18** trln so'mga oshib, jami aholi omonatlaridagi ulushi esa 2022-yildagi **63** foizdan **66** foizga yetdi.

Shuningdek, jami depozitlar tarkibida **talab qilib olinguncha** depozitlar ulushi **43** foizdan **35** foizgacha pasaygan bo'lsa, **1** yilgacha (*qisqa muddatli*) bo'lgan depozitlar ulushi **26** foizdan **29** foizgacha, **1** yildan yuqori (*uzoq muddatli*) depozitlar ulushi **31** foizdan **35** foizgacha oshdi.

2023-yilda tijorat banklari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri (*Hukumat kafolatisiz*) jalb etilgan xorijiy kreditlar hajmi **4,3** mlrd dollarni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **2,1** barobarga o'sdi. Bunda, bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli xorijiy kreditlarning ulushi **34** foizni yoki **1,5** mlrd dollarni tashkil etdi.

Hisobot yilida **2,4** mlrd dollarlik xorijiy kreditlar so'ndirilgan bo'lib (*2022-yilda ham 2,4 mlrd dollar so'ndirilgan*), shundan **1,7** mlrd dollari (*72 foizi*) uzoq muddatli kreditlar hissasiga to'g'ri keldi.

Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan **tashqi kredit resurslari** qoldig'i 2022-yilga nisbatan **29** foizga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **8,5** mlrd dollarga yetdi.




### 2.1.2. Tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar tahlili

So‘nggi yillarda bir tomondan, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarib borishi, ikkinchi tomondan, muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun bank kreditlariga bo‘lgan talabi yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yilda **581** mingdan ortiq loyihalarga jami **160** trln so‘m miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan **1,3 barobarga** ko‘p kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.

2.1.2.1-chizma

#### 2023-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

\*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son Farmoniga asosan tadbirkorlik subyektlari yillik pul aylanmasiga qarab **kichik, o‘rta va yirik toifalarga** ajratilgan.

Bunda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar ham inobatga olingan.

Hisobot yilida kichik va o‘rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun **573** mingdan ortiq loyihalarga jami **73** trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi.

Tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha 2023-yilda tijorat banklari tomonidan **xorijiy kredit liniyalari** hisobidan hududlarda **16** mingga yaqin loyihalar uchun **3,2** mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, **to‘g‘ridan-to‘g‘ri** (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag‘lar hisobidan **2,7** mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining **86 foizi**) miqdorida kreditlar yo‘naltirildi. Bunda,



1,2 mlrd dollar miqdoridagi mablag'lar **kichik va xususiy tadbirkorlik** subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

Hisobot yilida sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag'larining yo'naltirilishi qishloq xo'jaligiga hamda xizmat ko'rsatish sohalariga o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, sanoatga **1,5 barobarga**, qurilishga **2,7 barobarga**, savdo va umumiy ovqatlanish **1,6 barobarga** va transport sohasiga **3,3 barobarga** oshdi.

Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni **oziq-ovqat mahsulotlari** bilan uzluksiz ta'minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarga jami ajratilgan kreditlar guldig'i **23,8 trln so'mni** tashkil qildi.

Ushbu kreditlarning **12,3 trln so'mi** issiqxona (*52 foiz*), **4,2 trln so'mi** chorvachilik (*18 foiz*), **2,4 trln so'mi** muzlatgichli omborxonalar (*10 foiz*), **2,0 trln so'mi** parrandachilik (*8 foiz*), **1,3 trln so'mi** bog'dorchilik (*5 foiz*), **591 mlrd so'mi** baliqchilik (*2 foiz*), **557 mlrd so'mi** sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish (*2 foiz*) va **372 mlrd so'mi** go'sht va sutni qayta ishlash loyihalarini (*2 foiz*) moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

2023-yilda tijorat banklari tomonidan **savdo va xizmatlar sohasidagi** tadbirkorlik subyektlarining qariyb **39** mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun **53,7 trln so'm** miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Ushbu mablag'larning **23 trln so'mi** xizmatlar sohasidagi loyihalarga, **16,9 trln so'mi** savdo faoliyatiga va **13,8 trln so'mi** xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan.

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan **3 548 ta** tadbirkorlik subyektlariga **3,5 trln so'mdan** ortiq kreditlar berildi.

Ushbu ajratilgan kreditlarning **1,3 trln so'mi** – mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, **896,7 mlrd so'mi** – restoranlar faoliyati, **449,3 mlrd so'mi** – yo'lovchi tashish xizmatlariga, **112,8 mlrd so'mi** – sport va sog'lomlashtirish turizmi hamda **43,1 mlrd so'mi** – turistik agentlik va oromgohlar faoliyati uchun yo'naltirilgan.


**Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari** (*keyingi o'rinlarda – Dasturlar*) doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'nggi 6 yilda jami **44 trln so'mdan** ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, **1,9 mln** ga yaqin aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi.

Natijada, respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 193 tasi ushbu dasturlar doirasida qo'shimcha daromad olish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

2023-yilda ham Dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi va hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 472 mingdan ortiq loyihalariga jami 9,9 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

2.1.2.2-chizma

### 2023-yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 174 mingdan ortiq loyihalarga 3,8 trln so'm va xotin-qizlarning 262 mingdan ortiq loyihalariga 4,6 trln so'm yo'naltirildi.

Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning 369 mlrd so'mi (4 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 9,5 trln so'mi (96 foizi) o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Dasturlar doirasida barcha jarayonlar elektron imzo yordamida to'liq raqamlashgan holda:

– kredit uchun ariza berish, qarz oluvchini skoring tahlil qilish, hokim yordamchilari tomonidan tavsiya berish, kredit hujjatlarini rasmiylashtirish, mahsulotni buyurtma qilish, monitoring hamda arizachini identifikatsiyalash **oilakredit.uz** platformasi;

– mahsulot va asbob-uskunalar xarid qilish hamda xizmatlarga buyurtma berish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish **erkin tanlov va raqobat muhitiga asoslangan "marketpleys" elektron savdo maydoni (smart-market.uz)** orqali amalga oshirilmoqda.

Elektron savdo maydonini himoyalangan aloqa kanallari orqali Soliq qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi, Personallashtirish agentligi, “Elektron hukumat” va boshqa vazirlik hamda idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish orqali **inson omili** ishtiroki minimallashtirilmoqda. Jumladan,

– tavsiya berishda va kredit hisobiga sotib olingan mahsulot haqiqatda yetkazib berilgani (*xizmat ko‘rsatilgani*) bo‘yicha monitoring dalolatnoma rasmiylashtirishda hokim yordamchisi plansheti orqali loyihani amalga oshirish joyi geolokatsiyasini belgilash, foto lavhalarni joylashtirish va qarz oluvchini **biometrik verifikatsiyalash** (*biografik ma‘lumotlar, raqamli foto*) tizimi yo‘lga qo‘yildi;

– o‘z mahsulot va xizmatlarini taklif qilayotgan tadbirkorlik subyektlari haqiqatda o‘zida mavjud mahsulotlari (*xizmatlari*) hajmiga mos ravishda shartnoma tuzishini ta‘minlash maqsadida “marketpleys” elektron savdo maydoni “**E-aktiv**” elektron platformasiga integratsiya qilinishi ta‘minlandi.

2023-yilda elektron savdo maydoniga jami **20** mingga yaqin yirik ishlab chiqaruvchilar, ulgurji savdo tashkilotlari va mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan **685** turdagi mahsulotlar, **375** mingdan ortiq takliflar sotuvga joylashtirildi. Savdo maydoni orqali **345** mingdan ortiq **9** trln so‘mlik mahsulot va xizmatlar yetkazib berildi.

Dasturlar doirasida 2023-yilda ajratilgan kreditlarning **3,4** trln so‘mi qishloq xo‘jaligi (*shundan, chorvachilik 677 mlrd so‘m, issiqxona tashkil etish uchun 1,1 trln so‘m, meva-sabzavot va bog‘dorchilik uchun 605 mlrd so‘m*), **4,4** trln so‘mi xizmat ko‘rsatish, **1,4** trln so‘mi hunarmandchilik yo‘nalishi uchun hamda **710,4** mlrd so‘mi ishlab chiqarish va boshqa sohalarga yo‘naltirilgan.

### **2.1.3. Banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qo‘llanilgan prudensial va makroprudensial chora-tadbirlar**

2023-yilda prudensial nazorat choralari doirasida bank tizimi kredit portfeli sifatini yaxshilash va ulardagi muammoli kreditlar salmog‘ini pasaytirish, aholining qarz yuki darajasini inobatga olgan holda xizmatlar taklif etish, yirik qarzdorlarning moliyaviy holatini tahlil qilib borish orqali ular bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kredit xatarlarini oldini olish, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2023-yil davomida muammoli kreditlarning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sirilarini oldini olish va ularning salmog‘ini kamaytirish maqsadida banklarning kredit portfelleri muntazam ravishda banklar, hududlar kesimida, segmentlarga ajratilgan holda tahlil qilib borildi.


Tahlillar natijalariga ko'ra, tizimdagi mavjud zaifliklar yuzasidan tegishli banklar boshqaruvlariga kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, muammoli kreditlarning hududlarda undirilishi samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bank rais o'rinbosarlari boshchiligida tijorat banklari rahbar xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tashkil etilib, joylarda muammoli kreditlarning undirilishi holatlari o'rganildi hamda Vazirlar Mahkamasi, Bosh Prokuratura, Markaziy bank va Hisob palatasi tomonidan qo'shma topshiriqlar to'plami tasdiqlanib, hududlarda mas'ullar faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish hamda baholash asosida **vertikal nazorat tizimi** yo'lga qo'yildi.

2023-yil yakunlari bo'yicha bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi **3,5 foizgacha** (2022-yil yakunida 3,6 foiz) pasayishiga erishildi.

2.1.3.1-chizma

### Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kredit portfelining **80 foizi "standart"**, **16 foizi "substandart"** hamda **3,5 foizi muammoli** (1,5 foizi "qoniqarsiz", 1,1 foizi "shubhali" va 0,9 foizi "umidsiz") kreditlar sifatida tasniflanadi.

Banklar tomonidan 2023-yilda aktivlar bo'yicha **2,4 trln so'm** miqdorida qo'shimcha zaxiralar ("standart" kredit portfelisiz) yaratildi hamda **muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplanish** darajasi o'tgan yilning mos davridagi 80 foizdan 2024-yil 1-yanvar holatiga **82 foizga** ko'tarildi.

**Muammoli kreditlarning segmentlar bo'yicha taqsimotida** ularning **85 foizi** (14,1 trln so'm) tadbirkorlik subyektlari, **15 foizi** (2,5 trln so'm) jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

## Jismoniy shaxslarning muammoli kreditlari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Aholining muammoli kreditlari tarkibida **1,0 trln so'mi (40 foizi)** tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar, **709 mlrd so'mi (28 foizi)** ipoteka kreditlari, **470 mlrd so'm (18 foizi)** mikroqarzarlar, **271 mlrd so'mi (11 foizi)** avtokreditlar hamda **89 mlrd so'mi (3 foizi)** boshqa iste'mol kreditlari hissasiga to'g'ri keldi.

Markaziy bank tomonidan tashqi iqtisodiy xatarlarning banklar barqarorligiga salbiy ta'sirlarini yumshatish maqsadida tijorat banklarining chet el banklari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini muddatidan oldin ijro etilishi bilan bog'liq xatarlarning bank tizimi likvidliligiga ta'siri bo'yicha stress-testlar o'tkazildi.

Shuningdek, banklar aktivlarining **diversifikatsiya qilinishini** ta'minlash hamda **aholining qarz yuki** oshishini oldini olish maqsadida makroprudensial choralar kuchaytirib borildi.

Xususan, avtokreditlar konsentratsiyasi bilan bog'liq risklarni oldini olish maqsadida avtokreditlarning tavakkalchilik darajasini ularning garov summasiga ko'ra belgilash amaliyoti joriy etildi.

Natijada, 2023-yilning dastlabki 8 oyi davomida o'rtacha oyiga 3,4 trln so'm avtokreditlar ajratilgan bo'lsa, sentyabr-dekabr oylari davomida oylik ajratilgan kredit miqdori 2,4 trln so'mgacha pasaydi.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslarga kreditlarni (*bunda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar mustasno*) ajratishda tavakkalchilik darajalari **kreditning garovga nisbati** va **aholining qarz yuki** asosida hisob-kitob qilinishi belgilandi.

Mazkur me'yorning joriy etilishi kelgusida banklar tomonidan kreditlar ajratishda jismoniy shaxslarning **kreditga layoqatliligini to'g'ri baholanishini** yanada rag'batlantiradi va aholi qarz yukining oshishi xavfini oldini olishga xizmat qiladi.

Bank tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega yirik tavakkalchiliklarni boshqarish va ularning samaradorligini baholab borish maqsadida bank tizimi kredit portfelidagi **top-50 ta qarzdorning** moliyaviy holatini tahlil qilish, tavakkalchilik darajalarini belgilash va har bir qarzdor bo'yicha alohida ma'lumotlar (*dashboard*) tayyorlash hamda ularning banklar moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganib borish amaliyoti joriy etildi.

Dastlabki tahlillarga ko'ra, tijorat banklari tomonidan 50 ta yirik qarzdorlarga ajratilgan kreditlar 2024-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi kredit portfelning **24 foizini** (*112 trln so'm*) tashkil etib, ularning **70 foizi** (*77 trln so'm*) **davlat ishtirokidagi** korxonalariga va **30 foizi** (*35 trln so'm*) **xususiy korxonalariga** ajratilgan.

Mazkur kreditlarning **77 foizi** (*86 trln so'm*) xorijiy valyutada ajratilgan bo'lib, milliy valyuta almashuv kursining devalvatsiyasi qarzdorlar kredit yukining oshishiga va o'z vaqtida so'ndirish borasidagi xatarlarni kuchayishiga sabab bo'lishini inobatga olib, tijorat banklari tomonidan yirik **20 ta qarzdorni** muntazam ravishda monitoring qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, doimiy daromadga hamda kamida 6 oy davomida bank hisobvarag'ida mablag'lar aylanmasiga ega bo'lgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar uchun tavakkalchilik darajasi 100 foizdan 75 foizgacha pasaytirildi.

Bu esa, o'z navbatida, kelgusida o'zini o'zi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlarini banklar tomonidan kreditlash imkoniyatlarini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan kapital monandligini hisoblash metodologiyasini **Bazel qo'mitasining standartlariga** muvofiqlashtirish maqsadida:

– banklarda aktivlarning tavakkalchilik darajasini belgilash bo'yicha talablar qayta ko'rib chiqilib, birlashmagan nomoliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning tavakkalchilik darajasi **200 foiz** etib;

– banklarning regulyativ kapitali tarkibidagi I va II darajali kapitallar ulushlarini teng miqdorda (*50 foiz*) taqsimlash (*eski talab bo'yicha II darajali kapital ulushi 25 foizdan oshmasligi belgilangan*);

– **subordinar qarz** mablagʻlarini hisob-kitoblardan soʻng I darajali kapitalning **100** foizidan oshmagan miqdorda hisobga olish;

– birlashmagan nomoliyaviy faoliyat bilan shugʻullanuvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlarning kapitaliga kiritilgan **investitsiyalar** regulyativ kapitaldan **chegirilmasdan** hisobga olinishi belgilandi.


### 2.1.4. Aholining qarz yuki

Soʻnggi yillarda iqtisodiyotning barqaror oʻsib borishi hamda aholining daromadlar boʻyicha ijobiy kutilmalarining oshib borayotganligi aholining qarz majburiyatlariga, xususan bank kreditlariga talabini kuchaytirmoqda. Bu esa, aholining bank kreditlari boʻyicha qarz yuki darajasini ortishiga taʼsir koʻrsatmoqda.

2023-yilda aholiga jami ajratilgan kreditlar boʻyicha **qarzga xizmat koʻrsatish** nisbati **7,7** foizni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **1,2** foiz bandga ortishi kuzatildi.


2.1.4.1-chizma

**Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar boʻyicha qarzga xizmat koʻrsatish nisbati**



2.1.4.2-chizma

**Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka, avtokredit va isteʼmol kreditlari boʻyicha qarzga xizmat koʻrsatish nisbati**



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Qarz yuki koʻrsatkichlarini kredit turlari boʻyicha tahliliga koʻra, **avtokredit boʻyicha** qarzga xizmat koʻrsatish koʻrsatkichi boshqa kredit turlariga nisbatan yuqori saqlanib qolmoqda. Xususan, 2023-yilda ushbu kredit turi boʻyicha qarzga xizmat koʻrsatish koʻrsatkichi **58,8** foizni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **7,8** foiz bandga yuqoriroq shakllandi.

2023-yilda **avtokreditlar** boʻyicha oʻrtacha kredit soʻndirish muddatining (*3,8 yildan 4,3 yilga*) hamda oylik ish haqi (*17,2 foiz band*) oshishining



kuzatilishiga qaramay, ushbu kredit turi bo'yicha aholi qarz yuki ko'rsatkichining ortishi, har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha kredit hajmining (45 foiz) oshganligi bilan izohlanadi.

Aholiga ajratilgan **ipoteka kreditlari** bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi 2023-yil yakuniga ko'ra **44** foizni tashkil etdi. Ipoteka krediti bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichining 2022-yilga nisbatan **6,8** foiz bandga o'sishi o'rtacha kredit so'ndirish muddatining (18 yildan 17,5 yilga) kamayishi, shuningdek, ko'chmas mulk bozorida **uy-joy narxlarining qimmatlashishi** natijasida bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit summasi miqdorining (37,8 foiz) ortishi hisobiga shakllandi.

Shuningdek, **mikroqarzlari** bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi hisobot yilida 2022-yildagi **8,9** foizdan **7,6** foizga kamaydi. Mikroqarzlari bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasining sezilarli o'sishiga (5,3 foiz band) qaramay, o'rtacha kredit so'ndirish muddatining (2 yildan 2,5 yilga) ortishi hamda kredit oluvchilarning yillik daromadlarida kuzatilgan sezilarli o'sish (1,9 barobar) ushbu kredit turi bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichining kamayishiga sabab bo'lgan.

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan aholining qarz yuki darajasini ortib ketishi va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida **makroprudensial siyosat choralari** kuchaytirib borildi.

Xususan, 2024-yil 1-iyuldan boshlab ipoteka va avtokreditlar bo'yicha kredit summasini garov summasiga nisbati (*LTV*) mos ravishda **80** va **75** foizdan, shuningdek, jismoniy shaxslarga ajratilgan **barcha kredit turlari bo'yicha** to'lovning daromadga nisbati (*DSTI*) ko'rsatkichi **60** foizdan, 2025-yil 1-yanvardan esa mazkur ko'rsatkich yanada qat'iylashtirilib, **50** foizdan oshirmaslik talabi amaliyotga joriy etiladi.

## 2.2. Bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari

2023-yilda bank tizimini isloh qilish doirasida davlat ishtirokidagi **banklarni transformatsiya qilish** va ularda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga qaratilgan ishlar bilan bog'liq **qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish** ishlari davom ettirildi.

Jumladan, bank ustav kapitalining eng kam miqdorini 2025 yilning 1-yanvariga qadar **100** mlrd so'mdan **500** mlrd so'mgacha bosqichma-bosqich oshirib borishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunga kiritildi.



Mazkur normaning joriy qilinishi banklarning kapitallashuv darajasi va resurs bazalarini oshirish, banklar uchun oʻrnatilgan prudensial meʼyorlarni xalqaro standartlarga yanada muvofiqlashtirish hamda bank sektoriga chet el investitsiyalarini jalb etish imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar, shu jumladan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi hamda operatsion samaradorligini oshirish, xususiylashtirishga tayyorlash va bank tizimiga strategik investorlarni jalb qilish borasida “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Ipoteka-bank” ATIBdagi davlat ulushining kamayishi, tijorat banklarining kapitallashuv darajasining oshirilishi hamda bank xizmatlari bozoriga 3 ta yangi bankning kirib kelishi jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushini 2022-yildagi 78 foizdan 68 foizgacha, jami bank kapitalidagi ulushini esa 78 foizdan 65 foizgacha pasayishiga xizmat qildi.

*2023-yilda Vengriyaning “OTP Bank” banki tomonidan “Ipoteka-bank” ATIBning Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli aksiyalarining 75 foizi sotib olindi.*

Hisobot yilida, banklar tomonidan xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik masalalariga ham alohida eʼtibor qaratilib, xorijiy ekspertlar bilan birgalikda banklar faoliyatini rivojlantirish, shu jumladan bank korporativ boshqaruvi, tavakkalchiliklarni boshqarish, chakana xizmatlar koʻrsatish, axborot texnologiyalari va operatsion xarajatlarni qisqartirish yoʻnalishlarini takomillashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Oʻzmilliybank tomonidan yirik xorijiy banklar ishtirokida “Investor kuni” xalqaro konferensiyasi tashkil etilib, mazkur tadbirda bir qancha xorijiy bank vakillari ishtirok etdi.

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan gʻaznachilik operatsiyalarini amalga oshirish boʻyicha Germaniyaning “Raiffeisen bank” hamda “ODDO BHF” banklari bilan hamkorlik oʻrnatildi. Shuningdek, “Mikrokreditbank” ATBning “Moliyaviy menejment va gʻaznachilik funksiyalari (CFO & Treasury)” yoʻnalishi “PricewaterhouseCoopers (PwC)” xalqaro auditorlik tashkiloti ishtirokida xalqaro standartlar va tajribalar asosida transformatsiya qilindi.

“Asakabank” AJda operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida “KPMG Tax and advisory” tashkiloti tomonidan bankning bosh ofisi va bir nechta filiallari samaradorligi baholanib, olingan natijalar asosida bankning tashkiliy tuzilmasi qayta koʻrib chiqildi.

AT “Aloqabank” aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirish (*IPO*) bo‘yicha “Portfolio Investments” MChJ anderrayter sifatida tanlab olindi.

2023-yilda banklar faoliyati shaffofligini oshirish va **korrupsiyaga qarshi kurashish** masalalariga ham e’tibor kuchaytirilib, ushbu yo‘nalishlarda amaliy ishlar davom ettirildi.

Mikrokreditbankning tavakkalchilikka asoslangan ichki audit, ichki nazorat xizmati (*AML/CFT*) va korrupsiyaga qarshi nazorat tizimlari “Deloitte & Touche” xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda takomillashtirildi.

Yirik strategik investitsiya loyihalarini va tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tashabbuslarini hamda davlat dasturlarini moliyalashtirish maqsadida banklar tomonidan xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklardan resurslar jalb qilish bo‘yicha hamkorlik kengayib bormoqda.

Xususan, **O‘zmilliybank** tomonidan 2022-2023-yillarda “Credit Suisse” (100 mln yevro), Xitoy davlat taraqqiyot banki (1,7 mlrd yuan), “Citibank” (41,5 mln dollar), Xitoy Eksport-import banki (1,5 mlrd yuan), “Landesbank Hessen-Thüringen Helaba” (50 mln yevro), Vengriya eksport-import banki (50 mln yevro), “Societe Generale” (50 mln yevro), “Deutsche bank” (200 mln yevro) kabi yetakchi xorijiy banklardan resurslar jalb qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

“**Mikrokreditbank**” ATB tomonidan xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasining 30 mln dollar, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan 10 mln dollar, “Halyk Bank” va “Altyn Bank”dan (*Qozog‘iston*) 18 mln dollar mablag‘lar jalb qilingan bo‘lsa, “**O‘zsanoatqurilishbank**” ATB tomonidan Osiyo taraqqiyot banki bilan 50 mln dollar miqdorida kredit liniyasini jalb qilish yuzasidan bitimlar imzolandi.

Hisobot yilida “Moody’s” xalqaro reyting agentligi tomonidan “Agrobank” ATB, “Asakabank” AJ, “Ipoteka-bank” ATIB va AT “Aloqabank”ning reytingi “B1” darajasidan “**Ba3**” darajasiga ko‘tarildi.

O‘z navbatida, banklar faoliyatida zamonaviy texnologik yutuqlardan keng foydalanish hamda amaldagi axborot texnologiya tizimlarini takomillashtirish ishlari ham davom ettirilmoqda.

Jumladan, “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda kredit ta’minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulklarni garovga olish jarayonlarining shaffofligini ta’minlash maqsadida baholash ishlarini onlayn tekshirib borish dasturi ishga tushirildi.

“Asakabank” AJ tomonidan xodimlar harakati bilan bog‘liq jarayonlar, kadrlar hisobini yuritish hamda ish haqi hisobini yuritish maqsadida SAP HCM xodimlarni boshqarish tizimi joriy qilindi. SAP Success Factors tizimi yordamida

bankda kadrlarni tanlab olish, yangi xodimlarni ish jarayoniga moslashtirish, ularni o'qitish va malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, maqsadlarni belgilash va baholash jarayonlarini raqamlashtirish imkoniyati yaratildi.

SAP DWH tizimi bilan bankning boshqaruv hisobotlari (117 ta) avtomatlashtirildi va amaliyotda qo'llash uchun topshirildi. "Asakabank" AJ tomonidan bankdagi ichki operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ANET ichki portali ishlab chiqilib, barcha turdagi hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, AT "Aloqabank"da bank to'lov tizimlarini "Sello" savdo maydonchasi (*marketplaces*) bilan integratsiya qilish ishlari yakunlanib, hozirda ushbu savdo maydonchasining barcha onlayn to'lovlari bankning maxsus moduli orqali amalga oshirilmoqda. 2023-yil iyul oyida AT "Aloqabank"ning "Zoomrad" mobil ilovasida "Sello" savdo maydonchasi tovarlarini xarid qilish imkoniyati yaratildi.

"Turonbank" ATB tomonidan Masterkard xalqaro to'lov tizimi va "Tourist-uz" sayohat agentligi bilan hamkorlikda maxsus kobrending kartalari hamda "Humo" to'lov tizimi bilan birgalikda Visa&Humo kobeyjing kartalari bank amaliyotiga kiritildi.

2023-yilda "Turonbank" ATB va "Mikrokreditbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan yangi mobil ilovalar ("*MyTuron*", "*Mavrid*") yaratilib, "MyTuron" ilovasi orqali 6 daqiqada bankka bormasdan onlayn mikroqarz olish, FaceID texnologiyasi orqali identifikatsiyadan o'tib, bank mijozi sifatida 30 dan ortiq bank xizmat turlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lsa, "Mavrid" ilovasi orqali bankning 36 dan ortiq onlayn xizmatlaridan foydalanish mumkin.

"Yashil" moliyalashtirishni rag'batlantirish maqsadida ushbu sohaga yo'naltirilgan kredit mahsulotlari bo'yicha makroprudensial talablar yengillashtirildi. Bunda,

– **aholi uchun** quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitgichlari, shamol generatorlari, quvvati 1 MVt gacha bo'lgan mikro va kichik gidroyelektrostansiyalar, biogaz ishlab chiqaruvchi uskuna va qurilmalari, qayta tiklanuvchi energiya manbasi qurilmalari, energiya saqlash tizimlari, maishiy energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar va qozonlarni sotib olish uchun **Green product** kredit mahsuloti;

– **kichik va o'rta biznes sub'yektlari** uchun quyosh panellari o'rnatish, elektromobillarni quvvatlash stansiyalari tashkil qilishga mo'ljallangan, soddalashtirilgan shartlardagi **Green Energy Microloan** kredit mahsulotlari joriy qilindi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan umumiy qiymati 100 mln dollari bo‘lgan 5 yillik xalqaro “yashil” obligatsiyalarni joylashtirish ishlari yakunlandi.

Mazkur jarayonga Xalqaro moliya korporatsiyasi, Avstriya taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, Germaniya taraqqiyot moliya instituti kabi xalqaro moliya institutlari investor sifatida, Fransiyaning “Societe Generale” banki tashkilotchi bank sifatida jalb etildi.

Shuningdek, “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda “Standard & Poor’s” reyting agentligi bilan xalqaro ESG reytingini olish yuzasidan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, YTTB texnik ko‘magi asosida ijtimoiy va ekologik risklarni boshqarish tizimi joriy etilmoqda.

## 2.3. Kredit va to‘lov tashkilotlari infratuzilmasi

### 2.3.1. Faoliyat yuritayotgan kredit va to‘lov tashkilotlari

2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni **35 tani**, shundan kapitalida davlat ulushi mavjud banklar – **10 tani**, xususiy banklar – **19 tani** hamda xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar – **6 tani** tashkil etdi.

Bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish maqsadida 2023-yilda “APEX BANK”, “HAYOT BANK” va “YANGI BANK” aksiyadorlik jamiyatlariga bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar berildi.

Tijorat banklari filiallari – **696 taga**, mini-banklar – **69 taga**, bank xizmatlari ko‘rsatish ofislari – **1 747 taga** hamda tunu-kun “24/7” rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari – **3 723 taga** yetdi.

Shuningdek, 2023-yilda **2 ta** mikromoliya tashkiloti, **5 ta** lombard va **10 ta** to‘lov tashkiloti o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, **8 ta** to‘lov tashkilotlari, **2 ta** mikromoliya tashkilotlari va **2 ta** lombardlar qonunchilik talablarini buzganligi uchun belgilangan tartibda litsenziyalari chaqirib olindi hamda hisob ro‘yxatidan chiqarildi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizda faoliyat yuritayotgan **nobank kredit tashkilotlari** soni – 169 tani (*mikromoliya tashkilotlari – 84 ta, lombardlar – 84 ta va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti – 1 ta*), **to‘lov operatorlari** – 3 tani, **to‘lov tashkilotlari** – 49 tani hamda **kredit byurolari** – 2 tani tashkil etdi.

### 2.3.2. Kredit axborotining davlat reyestri, Kredit byurosi va Garov reyestri faoliyati

Banklar o'rtasida raqobat muhitining kuchayishi hamda raqamli bank xizmatlarining kengayib borayotganligi sharoitida bank tizimida ma'lumotlar assimetriyasini kamaytirish, xususan mijozlarni skoringdan o'tkazish jarayonlarini tezlashtirish hamda ularni to'lovga layoqatlilik darajasini to'liq baholashda ma'lumotlar almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi.


Kredit axboroti almashinuvi tizimi o'z ichiga Markaziy bankning Kredit axborotining davlat reyestri hamda KATM va "CRIF Kredit-axborot xizmatlari" kredit byurolarini qamrab oladi.

**Kredit axborotining davlat reyestrda** tijorat banklariga kredit (*lizing, faktoring*) bo'yicha kelib tushgan buyurtmalar, tuzilgan bitimlar va ushbu bitimlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan.

Xususan, 2024-yil 1-yanvar holatiga qarzdorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 35,5 foizga oshib, 5,6 mln taga, qarzdorlar soni esa 24,1 foizga o'sib, 4,1 mln taga yetdi.


2.3.2.1-chizma

#### Amaldagi kredit bitimlari soni



2.3.2.2-chizma

#### Amaldagi qarzdorlar soni



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Hisobot yilida amaldagi kredit bitimlarini banklarning mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishida tarkibiy o'zgarish kuzatilgan bo'lib, **davlat banklariga** tegishli kredit bitimlari ulushi 2022-yildagi 71,9 foizdan **54,7 foizga** qisqargan bo'lsa, **xususiy va xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar** ulushi 28,1 foizdan **45,3 foizga** oshgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga mavjud qarzdorlar sonining 96,2 foizini **jismoniy shaxslar** va 3,8 foizini **korporativ mijozlar** tashkil etadi. Kredit qarzdorligi mavjud jismoniy shaxslarning 53,6 foizi erkaklar, 46,4 foizi ayollardan iborat (*ayollarning ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,8 foizga oshgan*).

Qarzdorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni kredit turlari bo'yicha tasniflanganda **ta'lim kreditlari** soni 2022-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga, **mikroqarzarlar** soni 1,5 barobarga, **avtokreditlar** soni 1,4 barobarga, **kredit kartalari** soni 1,4 barobarga, **mikrokreditlar** soni 1,3 barobarga hamda ipoteka kreditlari soni 1,1 barobarga ko'paygan.


2.3.2.3-chizma

### Kredit qarzdorligi mavjud jismoniy shaxslar soni



2.3.2.4-chizma

### Jismoniy shaxslarning amaldagi kredit bitimlari ulushi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yilda Kredit axborotining davlat reyestri dasturiy majmuasini modernizatsiya qilish ishlari yakuniga yetkazilib, to'liq yangi tizim doirasida axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Mazkur dasturiy majmua negizida ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy tahlil qilish kompleksi (*Business Intelligence*) ishga tushirilib, hisobotlar va tahliliy ma'lumotlarning avtomatik ravishda shakllantirilishini ta'minlovchi qo'shimcha dasturiy modullar amaliyotga joriy etildi.

Bu esa, tijorat banklari kredit portfelidagi risklarni real baholash, reyestr ma'lumotlaridan tahlil va statistika uchun foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shu bilan birga, ma'lumotlarning balans ko'rsatkichlari bilan muvofiqligini hamda kreditlarga oid axborotlarning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida tegishli dasturlash tillaridan foydalangan holda muntazam ravishda inventarizatsiya o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.



2023-yilda KATM kredit byurosi tomonidan kredit axboroti subyektlari, ya'ni aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun kredit tarixiga oid ma'lumotlarni masofadan turib KATM kredit byurosi veb-saytidagi portal (*portal.infokredit.uz*) hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (*my.gov.uz*) orqali onlayn tarzda olish amaliyotini takomillashtirish ishlari davom ettirildi.

Xususan, 2023-yilda KATM kredit byurosi axborot bazasidan kredit tarixiga oid olingan ma'lumotlar soni qariyb 2 barobarga oshib, **506,4** mingtaga yetgan.

KATM kredit byurosi bazasidagi kredit axboroti subyektlariga (*jismoniy va yuridik shaxslar*) oid ma'lumotlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 15,4 mln tani tashkil etib, shundan 93,9 foizi (*qariyb 14,5 mln tasi*) jismoniy shaxslar va 6,1 foizi (*942 mingtasi*) yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

2023-yil davomida KATM kredit byurosi bilan kredit axboroti almashinuvi bo'yicha shartnomalar tuzgan kredit axboroti foydalanuvchilari soni 151 taga ko'payib, **630** taga yetdi.

2.3.2.1-jadval

#### Kredit axboroti foydalanuvchilari soni, donada

Tashkilotlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tijorat banklari	30	32	33	31	35
Mikromoliya tashkilotlari	55	59	68	83	84
Lombard tashkilotlari	60	62	70	80	84
Lizing tashkilotlari	3	5	8	20	31
Sug'urta tashkilotlari		1	1	4	8
Reteyler tashkilotlar	13	70	175	256	381
Boshqalar				5	7
<b>Jami</b>	<b>161</b>	<b>229</b>	<b>355</b>	<b>479</b>	<b>630</b>

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, 2023-yilda KATM kredit byurosiga **kredit axborotini yetkazib beruvchilar** soni 148 taga ko'payib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **637** tani tashkil etdi. Hozirda byuro tomonidan jami 50 dan ortiq turdagi kredit hisobotlari bank va nobank kredit tashkilotlariga taqdim etib kelinmoqda.

2023-yil davomida banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan KATM kredit byurosidan jami 62,8 mln ta kredit hisobotlari olingan bo'lib, shundan 41,8 mln tasi tijorat banklari, 17,9 mln tasi nobank kredit tashkilotlari, 2,6 mln tasi "e-auksion", "oila-kredit" va boshqa platformalar, shuningdek 506,4 mingtasi jismoniy va yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Hisobot yilida **garov reyestri** xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish hamda jismoniy shaxslardan to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida **“Click”** to'lov tashkiloti bilan garov reyestri ma'lumotlar bazasi integratsiya qilindi.

Shuningdek, barcha tijorat banklari va kredit tashkilotlariga garov reyestri orqali **“Notarius”** axborot tizimiga birlamchi bozordan sotib olingan ko'chmas mulk va avtotransport vositasi bo'yicha qo'yilgan taqiqlarni kredit qarzdorliklari to'liq so'ndirilgandan so'ng avtomatik tarzda bekor qilish imkoniyati yaratildi.

Garov reyestridan foydalanuvchilar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga **1 279** tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **383** taga ko'paydi. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan garov mulkiga bo'lgan huquqlari to'g'risida garov reyestriga kiritilgan yangi yozuvlar soni **593** mingdan oshgan bo'lsa, tijorat banklari tomonidan garov reyestri sayti orqali Adliya vazirligining **“Notarius”** avtomatlashtirilgan axborot tizimiga **131** mingga yaqin garovdagi mol-mulkka taqiq qo'yilgan hamda **80** mingdan ortiq mol-mulk holati to'g'risida ma'lumot berilgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga garov reyestri ma'lumotlar bazasida jami aktiv yozuvlar soni 2022-yildagiga nisbatan 1,2 mln taga oshib, deyarli **1,6** mln tani tashkil etdi va mavjud yozuvlarga **79,6** mingdan ortiq o'zgartirishlar kiritildi.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarga yozuvlar bo'yicha garov reyestridan **50** mingga yaqin ko'chirmalar taqdim etilib, **224** mingdan ortiq yozuvlar garov reyestridan chiqarildi.

### 2.3.3. Aholi omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish

Aholi omonatlarini ularning birinchi talabidayoq to'lig'icha qaytarish va jozibador omonat turlarini kengaytirib borish bilan bir qatorda, banklarda saqlanadigan ushbu mablag'larning qaytarilishini kafolatlash aholining banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2023-yilda omonatlarni kafolatlash tizimini isloh qilish, bank moliya tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, uni ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Omonatchilarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash orqali banklarda omonatlarni kafolatlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida **“Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida”**gi yangi qonun loyihasi sohaga oid xalqaro standartlarga – **“Omonatlarni kafolatlashning samarali tizimi asosiy tamoyillari”**ga muvofiq ishlab chiqildi.



Bunda, omonatlarni kafolatlash agentligi faoliyati, kafolatlash tizimi, banklarning kafolatlash tizimida ishtiroki, omonatlarni kafolatlash jamg'armasi mablag'lari manbalari, kafolatlash ob'yektlari, kafolatlangan omonatlar miqdori va ular bo'yicha kompensatsiya to'lash tartibi nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondiga (*keyingi o'rinlarda – Fond*) yo'naltirilgan kalendar badallar miqdori 2022-yilga nisbatan 1,6 barobarga oshib, **666,1** mlrd so'mga yetdi.

Bunda, Fond faoliyat boshlaganidan buyon kelib tushgan kalendar badallar miqdori 2024-yil 1-yanvar holatiga jami **2,0** trln so'mni tashkil etdi.

2023-yilda banklardan kelib tushgan kalendar badallar, olingan daromad va muddati tugaganligi sababli Fondga qaytarilgan jami 2,1 trln so'mlik mablag'lar daromad keltiruvchi aktivlarga, shu jumladan, 1,2 trln so'mi davlat qimmatli qog'ozlariga, 45 mlrd so'mi O'zbekiston ipotekani qayta moliyalash kompaniyasi obligatsiyalariga hamda qolgan qismi tijorat banklarining depozit va depozit sertifikatlariga joylashtirildi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga Fondning jami qo'yilmalari yil boshiga nisbatan qariyb 1,0 trln so'mga yoki **1,5 barobarga** oshib, **3,1** trln so'mga yetdi hamda mazkur qo'yilmalar hisobidan olingan daromadlar 457,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

#### 2.4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining samaradorligi

2023-yilda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirishga, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi nobank kredit tashkilotlarining mikromoliya bozoridagi ulushining ortishiga imkoniyat yaratmoqda.


2024-yil 1-yanvar holatiga NKTning umumiy soni 169 tani tashkil etib, hududlar kesimida Toshkent shahrida – 79 ta, Farg'ona viloyatida – 22 ta, Buxoro viloyati – 15 ta, Toshkent viloyati – 14 ta, Andijon viloyatida – 9 ta hamda boshqa hududlarda – 30 ta NKT faoliyat yuritmoqda.

2023-yilda NKT aktivlari qariyb **1,9 barobarga** oshib, **8,3** trln so'mga yetdi. Bunda, **mikromoliya tashkilotlari** aktivlari **2,2 barobarga** (*2,5 trln so'mga*), **lombardlar** aktivlari esa **29** foizga (*76 mlrd so'mga*) o'sib, ularning hajmi mos ravishda **4,5** trln so'mni va **336** mlrd so'mni tashkil etdi.

Aktivlar hajmining o'sishi asosan, kreditlarning mikromoliya tashkilotlarida **2,3** trln so'mga va lombardlarda **65** mlrd so'mga o'sishi hisobiga shakllandi.

## 2.4.1-chizma

## NKT aktivlari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

**Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining jami aktivlari 1,7 barobarga (1,4 trln so'mga) o'sgan holda, 3,5 trln so'mni tashkil etdi.**

2023-yil davomida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan **moliyaviy xizmatlar hajmi** 2022-yilga nisbatan **1,9 barobarga** oshib, **8,7 trln so'mni** tashkil qildi.

## 2.4.2-chizma

## NKT tomonidan 2023-yilda ajratilgan kreditlar dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilning 1-yanvar holatiga jami moliyaviy xizmatlar qoldig'i (4,4 trln so'm) **2,2 barobarga**, xususan, **mikromoliya tashkilotlari** kredit qo'yilmalari qoldig'i (4,1 trln so'm) **2,3 barobarga** va **lombardlar** kredit qoldig'i (280 mlrd so'm) 30 foizga o'sdi.

## 2.4.3-chizma

## NKT kredit qo‘yilmalari qoldig‘i va umumiy kreditlash hajmidagi ulushi



Manba: Markaziy bank ma’lumotlari


O‘z navbatida, **ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti** tomonidan aholini uy-joylarga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida tijorat banklariga ajratilgan resurslari qoldig‘i **65 foizga** ortib, **3,1 trln so‘mga** yetdi.

2023-yilda NKTning **jami kredit qo‘yilmalari qoldig‘i** 2022-yilga nisbatan **1,9 barobarga** ko‘payib, **7,5 trln so‘mni** yoki barcha **kredit tashkilotlari** umumiy kreditlash hajmidagi ulushi **1,6 foizni** tashkil etdi.

NKT tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan **mikroqarzlarni qoldig‘i** 2022-yilga nisbatan 2 barobarga ortib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **3,9 trln so‘mga**, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan **mikrokreditlarni qoldig‘i** 8 barobarga ko‘payib, **466 mlrd so‘mga** hamda **lizing xizmatlari** hajmi esa 3,5 barobarga oshib, **8,3 mlrd so‘mga** yetdi.

## 2.4.4-chizma

## NKT muammoli kreditlari ulushi



Manba: Markaziy bank ma’lumotlari


NKTda muammoli kreditlar (*NPL 90+*) ulushi 2023-yil boshiga nisbatan **0,4 foiz** bandga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **1,4 foizni** yoki **104 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

Xususan, muammoli kreditlar (*NPL 90+*) **mikromoliya tashkilotlarida** 0,7 foiz bandga ortgan holda, **2,1 foizni** (*qoldig‘i 88 mlrd so‘m*), **lombardlarda** esa 1,2 foiz bandga kamayib, **6 foizni** tashkil qilgan (*qoldig‘i 17 mlrd so‘m*) bo‘lsa, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida mavjud emas.

NKTning **jami majburiyatlari** 2023-yilda **2,1 barobarga** oshib, 6 trln so‘mni tashkil etgan. Xususan, **mikromoliya tashkilotlari** majburiyatlari **2,9 barobarga** oshib **2,7 trln so‘mni**, **lombardlarda** **37 foizga** ko‘payib **41 mlrd so‘mni** tashkil etgan bo‘lsa, **ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida** **1,7 barobarga** ortgan holda **3,3 trln so‘mga** yetgan.

2.4.5-chizma

NKT jami majburiyatlari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

Majburiyatlar o‘shishida jalb etilgan mablag‘larning **1,8 barobarga** (*2,3 trln so‘mga*) oshishi asosiy omil bo‘lgan. Xususan, mikromoliya tashkilotlari majburiyatlari tarkibida bank kreditlari **2,9 barobarga** ortib **1,3 trln so‘mni**, ta’sischilarning qarz mablag‘lari **1,9 barobarga** ko‘payib **456 mlrd so‘mni**, yuridik shaxslardan olingan qarz mablag‘lar **2,1 barobarga** oshib **274 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

## 2.4.6-chizma

## Mikromoliya tashkilotlari tomonidan jalb etilgan mablag'lar qoldig'i




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag'lar mikromoliya tashkilotlarida **2 barobarga** o'sib, **215 mlrd so'mga** va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida **1,5 barobarga** ko'payib, **2,9 trln so'mga** yetdi.

## 2.4.7-chizma

## NKT kapitali miqdori dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

**Mikromoliya tashkilotlarining** jami kapitali 64 foizga va **lombardlarning** jami kapitali esa 28 foizga oshib, mos ravishda **1,7 trln so'mni** va **295 mlrd so'mni**, **ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida** jami kapital 21 foizga ko'payib, 166 mlrd so'mni tashkil etgan.

2.4.1-jadval

**NKTning 2023-yil yakuni bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlari, mlrd so'mda**

Daromadlar va xarajatlar tarkibi	Jami	Mikromoliya tashkilotlari	Lombardlar	Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti
Foizli daromadlar	1 884,2	1 364,1	201,9	318,2
Foizli xarajatlar	591,6	316,5	5,7	269,4
Foizsiz daromadlar	377,5	326,5	51,0	0,01
Foizsiz xarajatlar	96,1	85,2	8,5	2,4
Boshqa xarajatlar*	745,5	614,0	116,2	15,3
<b>Sof foyda</b>	<b>828,4</b>	<b>674,9</b>	<b>122,5</b>	<b>31,1</b>

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

\*Boshqa xarajatlar operatsion xarajatlar, soliq va aktivlar bo'yicha yaratilgan zaxiralarni o'z ichiga oladi.

NKT jami kapitalining ko'payishi asosan ustav kapitalining **292 mlrd so'mga (39 foizga)** va taqsimlanmagan foydasining **71 mlrd so'mga (64 foizga)** oshishi hisobiga shakllangan.

NKTning jami daromadlari **2,3 trln** doirasida shakllanib, uning tarkibida foizli daromadlar ulushi **83 foizni** tashkil etdi.

NKTning jami xarajatlari **570 mlrd so'mga (66 foizga)** ko'payib, **1,4 trln so'mni** tashkil etgan. Jami xarajatlarning **41,3 foizi** yoki **591,6 mlrd so'mi** foizli xarajatlar, ularning asosiy qismi (*417 mlrd so'm*) banklardan jalb etilgan kreditlar bo'yicha foiz to'lovlaridan iborat.

Iqtisodiyotda biznes imkoniyatlarining kengayishi, o'z navbatida, mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni oshirib, mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi o'rnini va mavqegini yaxshilash zaruratini oshirdi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rnini va ulushini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari qabul qilinib, mikromoliya xizmatlari ommabopligini oshirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, hududlarda mikromoliya xizmatlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish borasida amaliy ishlar boshlandi.

Joylarda aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida mikromoliya tashkilotlarini hamda **mikromoliya xizmatini ko'rsatishning yangi "zanjiri"** bo'lgan mikromoliya banklarini tashkil etish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish maqsadida kredit tashkilotlarining rahbar va mas'ul xodimlari ishtirokida **2 ta** seminar-treninglar tashkil etilgan bo'lib, 2024-yil davomida qo'shimcha **20 ta** konferensiya, seminar va davra suhbatlari o'tkazilishi belgilab olindi.

Mazkur tadbirlar **Xalqaro moliya korporatsiyasi**, **YTTB** hamda **Osiyo taraqqiyot banki** kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorligida o‘tkazilib, sohada ilg‘or tajribaga ega mutaxassislar jalb etilmoqda.

Bundan tashqari, kredit tashkilotlari tomonidan **kredit tarixiga ega bo‘lmagan** aholining tadbirkorlik faoliyatini boshlashini rag‘batlantirishga qaratilgan “**Biznesga birinchi qadam**”, **ijobiy kredit tarixi shakllangan** qarzdorlarga tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan kredit miqdori tabaqalashtirilgan **mikromoliya bank mahsulotlari** yo‘lga qo‘yilmoqda.

## 2.5. Kredit va to‘lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

### 2.5.1. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

So‘nggi yillarda kuzatilayotgan iqtisodiy nobarqarorliklar sharoitida global moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq xatarlar mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini ta‘minlashda **nazorat mexanizmlarini** takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ushbu maqsadda 2023-yilda bank nazorati sohasida xalqaro standartlar va **Bazel qo‘mitasi tavsiyalari** asosida kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ishlar davom ettirildi.

Xususan, Bazel qo‘mitasining tavsiyalari va xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarini boshqarish tizimiga doir talablar joriy etildi.

Bunda, banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi “**himoyaning uch chizig‘i**” metodiga asoslanib, bankning **kuzatuv kengashi** va uning **huzuridagi qo‘mitalar** hamda tavakkalchiliklarni boshqarishga mas‘ul **tarkibiy bo‘linmalarning** vazifalari belgilandi.

Banklarning kredit, likvidlilik, operatsion va bozor tavakkalchiliklarini boshqarish hamda **kredit tavakkalchiligini boshqarish** tizimi doirasida muammoli aktivlarni aniqlash va ular bilan ishlash bo‘yicha talablar o‘rnatildi.

Mazkur talablar doirasida banklar konsolidatsiyalashgan moliyaviy va nazoratga oid hisobotlarni tuzishi, banklar guruhiga kiruvchi moliya institutlarining balans konsolidatsiyasi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (*MHXS*) asosida amalga oshirilishi lozimligi belgilandi.

Shuningdek, 2023-yil davomida tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashning vaqtinchalik tartibida belgilangan **4 ta** mezon bo‘yicha guruhlashtirilgan **9 ta** ko‘rsatkich asosida tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash uslubiyotini sinovdan o‘tkazish ishlari yakunlanib, mazkur amaliyotni banklar ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishda foydalanish bosqichi boshlandi.

Keyingi bosqichda esa, tizimli ahamiyatga molik deb e'tirof etilgan banklarga nisbatan qonunchilikka muvofiq **prudensial normativlarga qo'shimcha ustamalar** belgilash masalalarini ko'rib chiqish mo'ljallanmoqda.

Bank va banklar guruhida auditorlik tekshiruvini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish maqsadida Bazel qo'mitasining tavsiyalari va standartlari hamda xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida bank va banklar guruhida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari hamda banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatini berish bilan bog'liq talablar takomillashtirildi.

Mazkur tartibda bank auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotining mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga oid talablar, shuningdek, **auditorlik tekshiruvi** samaradorligini oshirish va tekshiruv chog'ida bankning audit qo'mitasi va auditorlik tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklarni bartaraf etishga qaratilgan normalar kiritildi.

Hisobot yilida tijorat banklari tomonidan ko'chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar joriy etildi.

Mazkur talablar doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hamda zaruriyati mavjud bo'lmagan (*foydalanilmaydigan*) ko'chmas mulk va boshqa mol-mulklarga ajratilib, ularni sotib olish hamda egalik qilishga oid talablar hamda banklar uchun ko'chmas mulk va boshqa mol-mulklarning jami qiymatiga nisbatan **prudensial me'yorlar** belgilandi.

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan talablarni yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish maqsadida banklar tomonidan kreditlar, mikroqarzlilar, omonatlar, qarz munosabatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlarni hisoblash tartibi batafsil bayon etilgan **tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi** yangi tahrirda tasdiqlandi.

Xususan, mazkur tartibda buxgalteriya hisobining "hisoblab yozish" usulini qo'llagan holda kreditlar (*mikroqarzlilar*) va nominal qiymati bo'yicha xarid qilingan moliyaviy vositalar bo'yicha foizli daromadni hamda omonatlar (*depozitlar*), qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlarni tan olish tartibi o'rnatildi.

Banklarda kredit tavakkalchiligi hisob-kitobini yanada maqbullashtirish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.



Xususan, jismoniy shaxslarga avtomobil sotib olish uchun ajratilgan kreditlarning tavakkalchilik darajalari, jismoniy va yuridik shaxslarga ajratiladigan kreditlarning yillik foiz stavkasidan kelib chiqib tavakkalchilik darajalari Markaziy bank tomonidan oʻrnatilishi boʻyicha qoʻshimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, Markaziy bankning kredit tashkilotlarini nazoratga oid vazifalari samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bank tomonidan asoslantirilgan mulohazani shakllantirish va undan foydalanish tartibi joriy etildi.

Bunda, Markaziy bankning tegishli nazorat boʻlinmasi tomonidan kredit tashkilotlariga nisbatan asoslantirilgan mulohaza nazorat doirasida olingan axborotlar, jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlardan yoki davlat organlaridan, chet el nazorat organlari va tashkilotlaridan hamda boshqa ochiq manbalardan olingan maʼlumotlarga muvofiq shakllantirilishi belgilandi.

Kredit tashkilotlari tomonidan qarz yukini hisoblash tartibini yanada takomillashtirish maqsadida qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish toʻgʻrisidagi nizomga tegishli qoʻshimcha va oʻzgartirishlar joriy qilindi.

Bunda, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar (*mikroqarzlar*) boʻyicha kunlik eng yuqori stavkani hisoblashda foiz toʻlovlaridan tashqari toʻlanadigan boshqa toʻlovlarni ham hisobga olish amaliyoti joriy etilib, foizlar, vositachilik haqi, penya va javobgarlikning boshqa choralari miqdori yillik qarz summasining yarmidan koʻp boʻlmasligi yuzasidan hisob-kitoblarga aniqlik kiritildi hamda hisob-kitob qilinishini osonlashtirish maqsadida formula va uni qoʻllash boʻyicha bir nechta koʻrsatmalar kiritildi.

Hisobot yilida banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, ularda samarali korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning moliya bozoridan chiqishi va tugatilishi mexanizmlarini takomillashtirishga ham eʼtibor qaratildi.

Xususan, **“Banklarni sanatsiya qilish va tugatish toʻgʻrisida”**gi qonun loyihasi Moliyaviy barqarorlik kengashi (*MBK*) standartlari asosida ishlab chiqilib, unda banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va tamoyillari, sanatsiya qilish vositalari, sanatsiya qilishni moliyalashtirish mexanizmlari hamda banklarni ixtiyoriy va majburiy tugatish tartibi nazarda tutilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-apreldagi “Kreditorlarning garov bilan taʼminlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF–63-son Farmoniga asosan majburiyatlar bajarilishi taʼminoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkka nisbatan kreditorlar huquqlari ustuvorligini taʼminlash, garovga qoʻyilgan mol-mulkini auksion orqali sotish jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, garov bilan taʼminlangan majburiyatlarni suddan tashqari tartibda undirish amaliyotini yanada takomillashtirga qaratilgan boʻlib, amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar belgilandi.

Hisobot yilida tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, MHXSga o'tishni jadallashtirish ishlari davom ettirildi.

Xususan, tijorat banklarida buxgalteriya hisobining "hisobvaraqlar rejasini"ni MHXSga muvofiqlashtirish, banklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarni bank hisobvaraqlarida aks ettirish orqali ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida hisobvaraqlar rejasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan:

– hisob-kitobli forvard shartnomalarini hisobini alohida yuritish uchun "standart" deb tasniflangan har bir aktiv uchun alohida zaxiralar shakllantirilishi, hosilaviy instrumentlar bo'yicha foizli daromad va xarajatlar hisobini yuritish uchun mijozlarning investitsiyaviy va **"yashil energiya"** loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari hisobini yuritish uchun va bank amaliyotidan kelib chiqib, valyuta birjasi bilan hisob-kitoblarni hisobini alohida yuritish uchun alohida hisobvaraqlar;

– zaxira xarajatlarning 20 foizidan soliq to'lanayotganligi va ushbu summalarni takroran soliqqa tortilishining oldini olish maqsadida alohida daromad hisobvarag'i;

– Tezkor to'lovlar tizimi va Markaziy bank kliring tizimlari uchun majburiyatlar qismini alohida hisobini yuritish maqsadida yangi hisobvaraqlar;

– moliyaviy aktivlar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, kassa amallari va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritish yuzasidan namunaviy buxgalteriya o'tkazmalari yozuvlari hisobvaraqlar rejasiga kiritildi.

Shuningdek, hisobot yilida banklarda hisobvaraqlar ochish huquqiga ega shaxslar ro'yxatini kengaytirish maqsadida bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi qayta ishlab chiqildi. Jumladan:

– ta'rischilari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga bank hisobvaraqlarini nafaqat davlat ro'yxatidan o'tish jarayonida balki, faoliyati davomida ham bank hisobvaraqlarini masofadan turib ochishga;

– imzolar namunalari qo'yilgan varaqcha shakli va taqdim etiladigan soni bank tomonidan ichki hujjatlariga muvofiq o'rnatilishiga;

– hisobvaraqni ochish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni elektron saqlash imkoniyati bo'lganda, qog'ozda saqlamaslikka;

– nogironligi bo'lgan shaxslarga faksimil imzodan foydalanishiga;

– xo‘jalik subyektiga asosiy hisobvaraqlar ochgan bank orqali o‘zining barcha banklardagi hisobvaraqlari ro‘yxatini Bank depozitorlarining milliy axborot bazasidan olishiga;

– “Milliy kliring markazi” AJ va “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJga hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Markaziy bankda vakillik hisobvarag‘i ochilishiga;

– uyushgan savdolarida aksiyalar bilan bir qatorda korporativ obligatsiyalarni sotuvchi (*sotib oluvchi*) chet ellik investorlarga banklarda hisobvaraqlar ochilishiga imkoniyat yaratildi.

2023-yilda Markaziy bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzgan banklarga nisbatan ayrim operatsiyalarini to‘xtatish, **jarima sanksiyalari** va boshqa ta’sirchan choralar qo‘llanib borildi.

Xususan, 2023-yil davomida Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasi qarorlariga asosan **22 ta** tijorat banklari va **4 ta** mikromoliya tashkilotlaridan jami **3 mlrd** so‘m miqdorida jarimalar undirildi.

Bunda, mazkur jarimalarning:

– **1,6 mlrd** so‘mi yoki **55,5 foizi** iqtisodiy me‘yorlar talablari bajarilmaganligi uchun (*10 ta bankka nisbatan*);

– **542 mln** so‘mi yoki **18,2 foizi** bank xizmatlari iste‘molchilari huquqlari buzilganligi uchun (*16 ta bankka nisbatan*),

– **530 mln** so‘mi yoki **17,8 foizi** banklar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinmaganligi uchun (*4 ta bankka nisbatan*) undirilgan.

Markaziy bankning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari talablari ta‘minlanmaganligi, prudensial normativlarga va valyuta mavqeiga o‘rnatilgan me‘yorlarga rioya qilinmaganligi sababli **7 ta** banklarga nisbatan omonatlar jalb qilish, kreditlar (*lizing, faktoring, pul mablag‘lari bilan qoplanmagan akkreditivlar ochish va kafolatlar*) berish amaliyotlariga **vaqtinchalik cheklov o‘rnatish** bilan bog‘liq ta’sir choralari qo‘llanildi.

Shuningdek, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarning bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sirini kamaytirish, ularda makroprudensial buferlar shakllanishini ta‘minlash maqsadida, **oldindan chora ko‘rish doirasida** bank aksiyadorlariga oddiy aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lash orqali foydani taqsimlash bo‘yicha **22 ta** bankka nisbatan **taqiqlash chorasi qo‘llanildi**.

## 2.5.2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

Hisobot yilida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga doir muayyan ishlar amalga oshirildi.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rnini va ulushini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari doirasida:

– 2024-2026-yillarda mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish;

– mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik sub'yektlarini qamrab olish;

– mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan mablag'lar miqdorini 2 barobarga oshirish;

– mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali rasmiy daromadga ega bo'lmagan 500 mingga yaqin shaxslarni o'zini o'zi band qilish va biznesni rivojlantirishga ko'maklashish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish va ularga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida:

– norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag'larini jalb qilish hamda yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

– jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchilardan (*aksiyadorlardan*) ustav fondiga kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki barobaridan oshmaydigan miqdorda qarz mablag'larini jalb etish;

– tegishli lisenziya olgan holda to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berildi.

Bundan tashqari, mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshirildi.

Hududlarda mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish maqsadida bazaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi mikromoliya banklarini tashkil etish va mikromoliya tashkilotlarini **mikromoliya banklariga transformatsiya qilish** mexanizmini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi.

Hisobot yilida nobank kredit tashkilotlari faoliyatining nazorati masofadan turib (*distansion*) va joyida o'rganish yo'li bilan amalga oshirildi.

Bunda, 2023-yilda jami 14 ta nobank kredit tashkilotlari, xususan, 7 ta mikromoliya tashkilotlari va 7 ta lombardlar faoliyati bo'yicha joyida tematik o'rganishlar o'tkazildi.

O'rganishlardan kelib chiqib, me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari buzilishiga yo'l qo'ygan 1 ta mikromoliya tashkilotiga nisbatan 30 mln so'm miqdoridagi jarima chorasi va 11 ta mikromoliya tashkilotlari va lombardlarga ogohlantirish choralari qo'llanilib, 1 ta mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestridan va 1 ta lombard lombardlar reyestridan chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

### 2.5.3. To'lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

Hisobot yilida to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish borasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va ularni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan:

– to'lov tizimi operatori va to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talablari, shu jumladan, muassislarga (*ishtirokchilar, aksiyadorlar*), ustav kapitaliga minimal talablar hamda tashkiliy, texnik, xavfsizlik hamda faoliyatning uzluksizligiga doir talablar;

– to'lov tizimi operatori va to'lov tashkiloti faoliyati ustidan kuzatuvni amalga oshirish, masofaviy nazorat qilish va inspeksiya tekshiruvlarini o'tkazish tartibi joriy etildi.

Shuningdek, sohada tavakkalchiliklarni boshqarish va to'lov tizimlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida **muhim to'lov tizimi operatorini** aniqlashning mezonlari belgilandi.

To'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlash maqsadida to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatining qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan davriy ravishda **masofaviy kuzatuvlar** olib borildi. O'rganishlar natijalari bo'yicha ushbu tashkilotlarga:

– to'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etgan holda to'lov tizimi infratuzilmasining doimiy ravishda uzluksiz va barqaror ishlab turishini ta'minlash va nazorat qilish;

– to'lov tizimi ishtirokchilari hamda to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilar bilan ikki tomonlama doimiy aloqa mexanizmini ta'minlash;

– to‘lov tizimlarida yuzaga kelgan ko‘zda tutilmagan uzilishlar va to‘xtalishlar haqida to‘lov tizimi ishtirokchilari va to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchilarni, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini rasmiy kommunikatsiya kanallari orqali tezkor xabardor qilib borish;

– faoliyatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida to‘lov tashkilotlari Markaziy bankni belgilangan tartibda xabardor qilishi, shu jumladan, elektron pullar tizimi operatori faoliyatini boshlash bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

Markaziy bank tomonidan 2023-yilda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzgan to‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlariga nisbatan litsenziyani amal qilish muddatini vaqtincha to‘xtatish, ayrim to‘lov xizmatlarini vaqtincha to‘xtatish, jarima sanksiyalari va boshqa ta‘sirchan choralar qo‘llanib borildi.

Jumladan, to‘lov tizimlariga oid qonunchilik talablarini buzganligi uchun **1 ta** to‘lov tizimi operatori va **1 ta** to‘lov tashkilotidan **2 ta** holat uchun jami **200 mln** so‘m miqdorida:

– to‘lov tizimi barqarorligini ta‘minlash borasida berilgan bir necha ogohlantirishlarga qaramasdan yuzaga kelayotgan uzilishlar va to‘xtalishlar uchun **1 ta** holat bo‘yicha **100 mln** so‘m miqdorida;

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid qonunchilik hujjatlariga amal qilmaganligi uchun **1 ta** holat bo‘yicha **100 mln** so‘m miqdorida jarima undirildi.

Aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha yuborilgan tavsiyalarga amal qilinmaganligi, xususan jismoniy shaxslar o‘rtasidagi pul o‘tkazmalari (*P2P amaliyotlari*)ni amalga oshirishda tavakkalchilik darajasini o‘rganish, baholash va kamaytirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmaganligi sababli **1 ta** to‘lov tashkilotiga ayrim to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha **olti oy muddatga cheklov o‘rnatildi**.

To‘lov tashkilotlari faoliyatiga litsenziya olingan kundan e‘tiboran **bir yil davomida** faoliyat ko‘rsatmaganligi va faoliyatini **olti oydan ortiq** davrga to‘xtab turganligi munosabati bilan **4 ta** to‘lov tashkilotining, shuningdek, qonunchilikda belgilangan ustav kapitaliga qo‘yilgan minimal talablar bajarilmaganligi uchun **4 ta** to‘lov tashkilotining faoliyatini olib borish huquqini beruvchi litsenziyalari chaqirib olindi.

#### 2.5.4. Tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini amaliyotga joriy etish

Hisobot yilida Markaziy bankning tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati tizimini takomillashtirish ishlari davom ettirildi.

Xususan, Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda **“Tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati qo‘llanmasi”** ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Mazkur Qo‘llanmani **amaliyotga tatbiq etish doirasida** 4 ta bankning (*“Asakabank” AJ, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Kapitalbank” ATB va AITB “Ipak Yo‘li”*) **biznes-modellari, kredit, bozor, foiz, operatsion, kapital va likvidlilik** xatarlarini baholash bo‘yicha namunaviy taqdimot ma‘lumotlari tayyorlandi.

Ushbu yondashuvlar asosida **23 ta tijorat bankida**, jumladan, 18 ta bankda prudensial me‘yorlar, 17 ta bankda to‘lov tizimlari, 16 ta bankda valyuta amaliyotlari va 5 ta bankda moliyaviy monitoring faoliyati bilan bog‘liq **xatarlarni, 15 ta nobank** kredit tashkilotida ularning umumiy moliyaviy holati bilan bog‘liq **xatarlarni baholash** yuzasidan **tematik inspeksiyalar** o‘tkazildi.

Tematik inspeksiyalar banklarda **kapital va likvidlilik xatarlarini** minimallashtirish orqali ularning bank faoliyati bilan bog‘liq **xatarlarga bardoshlilikini mustahkamlashga**, shuningdek, bankka aloqador shaxslarga hamda ko‘chmas mulkka qilingan investitsiyalarga to‘g‘ri keluvchi **xatarlarni yumshatishga** qaratildi.

Inspeksiya natijalariga ko‘ra, Markaziy bankka taqdim etilgan prudensial hisobotlarda xatarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni haqqoniy aks ettirmagan banklarga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi.

Shuningdek, **10 ta davlat bankida** mijozlarga ajratilgan **yangi korporativ kreditlarning** kelgusida muammoga aylanish ehtimolini baholash yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazildi.

O‘rganishlar natijalari bo‘yicha har bir bank kesimida korporativ kreditlarning kelgusida muammoga aylanish ehtimolini vujudga keltiruvchi omillar hamda ushbu omillar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan **xatarlarni kamaytirishga doir takliflar** berildi.

Banklarda korporativ kreditlar bo‘yicha kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan **xatarlarni oldindan baholash** imkoniyatini beruvchi Markaziy bankning **Matrix BI** dasturiy ta‘minotida muammoli qarzdorligi mavjud bo‘lgan mijozlarga ajratilgan yangi kreditlar va kredit shartlariga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida **signal beruvchi modul** joriy qilindi.



Bundan tashqari, 2023-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlardan Markaziy bank xodimlarini tekshirishlarga jalb qilish bo'yicha jami 2 944 ta so'rov kelib tushgan bo'lib, ushbu so'rovlarning 1 392 ta (47 foiz) bo'yicha ijrosi belgilangan tartibda tashkil etildi.

Qolgan 1 552 ta (52 foiz) so'rov, xususan 35 ta so'rov korxonalar va tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish masalasida bo'lganligi uchun, 49 ta so'rov tekshirish o'tkaziladigan masala bank faoliyatiga taalluqli emasligi uchun va 1 468 ta so'rov tekshirishga mutaxassis ajratish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmaganligi uchun rad etildi.

### **2.5.5. Moliyaviy monitoring, iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish**

Hisobot yilida banklar, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar hamda to'lov tashkilotlarining ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq (*keyingi o'rinlarda – sohaga oid*) shubhali operatsiyalar to'g'risida axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazoratni ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar davom ettirildi.

Mazkur jarayonda banklar, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar hamda to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tashkilotlar faoliyatida sohaga oid risklarni aniqlash hamda ularni minimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishini ta'minlash, tizimning ishlash samaradorligini oshirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Markaziy bank 2023-yilda FATF tavsiyalarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-sonli "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida sohaga oid tavakkalchiliklarni milliy baholash jarayonida bevosita ishtirok etdi.

Sohaga oid tavakkalchiliklarni kamaytirish va milliy tizim zaifliklarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ijrosi yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sohaga oid risklarni baholash natijalari bank, nobank kredit tashkilotlari hamda to'lov tashkilotlariga o'z faoliyatida risklarni boshqarishda foydalanish uchun yuborildi.



Ta'kidlash lozimki, Markaziy bank tomonidan risklarni sektoral baholash ishlari 2018-yildan boshlab Jahon bankining texnik ko'magi doirasida ishlab chiqilgan metodologiya asosida Markaziy bank tomonidan bank, nobank kredit tashkilotlari hamda to'lov tashkilotlarida sohaga oid risklarni baholash ishlari amalga oshirilmoqda.

Baholashni o'tkazish doirasida nazorat ostidagi sektorlar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan mijozlar turlari, taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar, ularni amalga oshirish kanallari, shuningdek, nazorat faoliyatining turli ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar qayta ishlanib, tahlil qilinmoqda.

Ushbu hisobotda yuridik shaxslarning hisobvarag'idagi pul mablag'larini noqonuniy naqdashtirish bilan bog'liq operatsiyalar, jismoniy shaxslar o'rtasidagi kartadan-kartaga pul o'tkazmalar, xalqaro pul o'tkazmalari hamda xorijiy elektron hamyonlar bilan operatsiyalar bo'yicha mavjud risklarni minimallashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar keltirilgan bo'lib, ular nazorat ostidagi tashkilotlarning sohaga oid risklarni tushunish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bank tomonidan sohaga oid nazorat bank, nobank kredit tashkilotlari hamda to'lov tashkilotlarining risk profilidan kelib chiqqan holda riskka asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Jumladan, hisobot yilida risk profili bo'yicha tavakkalchilik darajasi yuqori darajani tashkil etgan 2 ta tijorat bankida joyiga chiqqan holda tekshirishlar o'tkazildi.

Shuningdek, nazorat ostidagi tashkilotlarning risk profilini baholash jarayonida yuqori riskni tashkil etgan operatsiyalar va mijozlar bo'yicha 17 ta tijorat bankida va 1 ta to'lov tashkilotida sohaga oid masalalar yuzasidan masofadan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklarni kelgusida oldini olish maqsadida tijorat banklarida shubhali operatsiyalarni aniqlash bo'yicha minimal protseduralar belgilab qo'yish hamda bank xizmatlarini ko'rsatish tizimidagi zaifliklarni qayta baholashdan o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha tegishli xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan 1 ta to'lov tashkilotiga nisbatan 100 mln so'm miqdorida jarima chorasi, shuningdek, 19 ta tijorat bankiga nisbatan kelgusida kamchiliklar aniqlangan taqdirda qat'iy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirish bilan bog'liq choralar qo'llanildi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasida kripto-aktivlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish doirasida “P2P” operatsiyalari va tijorat banklari, to‘lov tizim operatorlari va to‘lov tashkilotlarida “P2P” operatsiyalarini amalga oshiruvchi mijozlarga nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish yuzasidan kuchaytirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar” ishlab chiqdi hamda banklar, to‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlariga foydalanish uchun yuborildi.

Shu bilan birga, sohaga oid tizim samaradorligini oshirish, sektoral baholash, shuningdek, nazorat tadbirlari natijalariga muvofiq aniqlangan risklarni kamaytirish, qonunchilik hujjatlarining FATF tavsiyalariga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida nazorat ostidagi tashkilotlar uchun mo‘ljallangan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarining shubhali operatsiyalar mezon va alomatlari hamda mijozlarning tavakkalchilik darajasini aniqlash va baholash mezonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Shuningdek, to‘lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga ichki nazorat tizimini tashkil etish, mijozlarni lozim darajada tekshirish, tavakkalchilik darajasini aniqlash va baholash hamda shubhali operatsiyalar mezonlari va alomatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

### III. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT, VALYUTA VA KOMMUNIKATSIYA SIYOSATI BORASIDAGI FAOLIYATI

#### 3.1. Narxlar barqarorligini ta'minlash

##### 3.1.1. 2023-yilda pul-kredit sharoitlari va instrumentlari tahlili


2023-yilda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul-kredit siyosati tashqi iqtisodiy holatlardagi o'zgarishlar, milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar ko'lamini va inflyatsion jarayonlarning sekinlashishi fonida nisbatan qat'iy darajada shakllandi.

Xususan, inflyatsiya darajasi pasayish tendensiyasiga o'tganligi va yil oxiriga prognozlar ham pasayuvchi dinamikani ko'rsatayotgani tufayli 2022-yilda inflyatsion kutilmalarni jilovlash maqsadida asosiy stavkaga qo'yilgan qo'shimcha yuklamani pasaytirish imkonini berib, 2023-yil mart oyidan asosiy stavka 14 foizga tushirildi va **“nisbatan qat'iy”** pul-kredit sharoitlari saqlab qolindi.

Xalqaro moliya bozorlaridagi qat'iy sharoitlar va ayrim savdo hamkorlardagi valyuta kurslarining qadrsizlanishi, bir tomondan, ichki iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda tashqi resurslarni qayta jalb qilishni qiyinlashtirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, valyuta oqimlaridagi nomutanosibliklarning kengayib borishiga olib keldi.


3.1.1.1-chizma

**Markaziy bank asosiy stavkasi  
dinamikasi**



3.1.1.2-chizma

**Banklararo pul bozori  
foiz stavkalari**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Markaziy bank asosiy stavkasini mart oyidagi pasaytirishdan so'ng yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz saqlanishi hamda yil davomida inflyatsiya darajasining pasayib borishi pul bozoridagi real foiz stavkalarining biroz o'sib, **3,7-4,8** foiz oralig'ida shakllanishiga va shu orqali iqtisodiyotda "nisbatan qat'iy" pul-kredit sharoitlarini ta'minlashga xizmat qildi.

Pul bozorining overnayt segmentida o'rtacha tortilgan foiz stavkalari aprel oyida 13 foizni tashkil etgan bo'lsa, umumiy likvidlikning qisqarishi hisobiga joriy stavka dekabr oyiga kelib 14 foizgacha ko'tarildi va to'liq foiz koridorida shakllandi.

Pul bozoridagi foiz stavkalarining o'zgarishi depozit va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ham o'zgarishida namoyon bo'lib, iqtisodiyot subyektlarining qarorlarida o'z aksini topdi.


Jumladan, aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2023-yil yanvar-mart oylarida 20,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyida 21,5 foizgacha o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiyotda inflyatsion jarayonlarning nisbatan sekinlashishi hisobiga, ushbu depozitlar bo'yicha real foiz stavkalari 2023-yil boshidagi 7,4 foizdan dekabr oyida 11,7 foizgacha o'sishi kuzatildi.

Milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha real foiz stavkalarini aholining kelgusi 12 oy uchun inflyatsion kutilmalariga (*13-14 foiz*) nisbatan hisoblanganda ham uning real ijobiy darajasi 6,5-7,5 foiz atrofida saqlanib qoldi.


3.1.1.3-chizma

#### Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari



3.1.1.4-chizma

#### Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shakllangan real foiz stavkalari aholining milliy valyutadagi depozitlari hajmining sezilarli darajada o'sib borishida namoyon bo'lib, 2023-yil davomida aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari 1,5 barobarga oshdi.


Chakana kreditlarga bo'lgan yuqori talab, shuningdek, bank tizimi umumiy likvidlik profitsiti qisqarishi fonida 2023-yilda milliy valyutadagi kreditlar foiz stavkalarida biroz o'sish tendensiyasi kuzatildi. Natijada, dekabr oyida milliy valyutadagi jismoniy shaxslarning kreditlari bo'yicha foiz stavkalari 25,2 foiz va yuridik shaxslarning kreditlari bo'yicha 23,1 foiz darajasida shakllandi.

O'z navbatida, 2023-yilda Markaziy bankning likvidlikni tartibga solish operatsiyalariga bo'lgan talab, tizimdagi umumiy likvidlik holatiga bog'liq bo'ldi. 2023-yilda banklar tizimli likvidligining qisqarishi fonida Markaziy bankning likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga bo'lgan talab ortib bordi.

Fevral oyidan boshlab umumiy likvidlik hajmining kamayib borishi bilan overnajt REPO va SVOP operatsiyalariga talab sezilarli oshgan bo'lsa, depozit operatsiyalariga bo'lgan talab qisqarib bordi.


3.1.1.5-chizma

**Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari**



3.1.1.6-chizma

**Markaziy bank obligatsiyalari emissiyasi dinamikasi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Markaziy bank tomonidan 2023-yilning II yarim yilligida kunlik o'rtacha 1,7 trln so'mlik likvidlik taqdim etish operatsiyalari (*overnajt REPO, overnajt svop*) amalga oshirildi. Ayni shu davrda Markaziy bankning likvidlikni jalb qilish operatsiyalariga (*overnajt depozit, depozit auksioni*) bo'lgan talab nisbatan muvozanatlashib, I yarim yillik bilan solishtirganda 1,9 barobarga kamaydi va kunlik o'rtacha 2 trln so'mni tashkil etdi.

Shakllangan qo‘shimcha likvidlikni uzoqroq muddatga jalb etish maqsadida 2023-yilda jami 26 trln so‘mlik Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarildi.

O‘z o‘rnida, avgust-noyabr oylarida bank tizimidagi tizimli likvidlikning qisqarib borishi fonida Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarilmadi va muomalada mavjud bo‘lgan Markaziy bank obligatsiyalari sentyabr oyiga kelib to‘liq so‘ndirildi.

Dekabrda byudjet xarajatlarining mavsumiy ortishi va muddati kelgan DQQlarning qaytarilishi hisobiga kunlik o‘rtacha 5,7 trln so‘mlik ortiqcha likvidlik kuzatildi. Ushbu qo‘shimcha likvidlikni sterilizatsiya qilish maqsadida dekabr oyida 4,7 trln so‘mlik Markaziy bank obligatsiyalari joylashtirildi va 2024-yilning 1-yanvar holatiga muomaladagi Markaziy bank obligatsiyalari qoldig‘i 4,7 trln so‘mni tashkil etdi.

Umuman olganda, 2023-yilda umumiy likvidlik darajasini boshqarishda qisqa muddatli pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanildi va ushbu operatsiyalar hajmlarining bank tizimi likvidligi holatiga va belgilangan normativlarning tijorat banklari tomonidan bajarilish darajasiga bog‘liqligi kuchaydi.

### 3.1.2. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmidagi o‘zgarishlar

2023-yilda ham Markaziy bank pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflyatsion targetlash rejimi standartlariga moslashtirish jarayonlari davom etdi.

Pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish va tijorat banklarining o‘z likvidligini boshqarish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida Xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari ko‘magida operatsion mexanizmga bir qator o‘zgarishlar kiritildi.

Jumladan, Markaziy bank boshqaruvining 2023-yil 14-dekabrda 41/1-sonli qarori bilan banklararo pul va REPO bozorlarining bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng **30 daqiqa** davomida ochiq bo‘lishini ta‘minlash hamda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalaridan bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng **1 soat** davomida foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bunda, tijorat banklari uchun to‘lov kuni yakunlanganidan so‘ng pul bozorlarida umumiy likvidlikni qayta taqsimlash, so‘ngra Markaziy bank overnait operatsiyalariga murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu o‘zgarishlar likvidlikni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklariga likvidlik taqdim etishga mo'ljallangan **kun davomidagi kredit instrumenti** hamda **valyuta garovi asosidagi overnight va 1 haftagacha bo'lgan kredit auksionlari** joriy etildi. Bu banklardagi likvidlik uzilishlarini oldini olishga va to'lov tizimining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Markaziy bankning likvidlik taqdim etish bo'yicha operatsiyalarida garov mulkini **5 foizlik chegirma** bilan qabul qilish yo'lga qo'yildi.

Pul-kredit siyosati operatsiyalariga kiritilgan o'zgartirishlar asosida "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi" va "Markaziy bankning pul bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirish tartibi"ga tegishli o'zgartirishlar kiritildi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar mazkur qaror talablariga muvofiqlashtirildi.

### 3.1.3. Banklararo pul bozori faoliyati tahlili va foiz stavkalari



2023-yilda banklararo pul bozorida jami 310,5 trln so'mlik yoki 2022-yilga nisbatan qariyb 2,1 barobarga ko'proq operatsiyalar amalga oshirildi.

3.1.3.1-chizma

3.1.3.2-chizma

**Pul bozoridagi operatsiyalar hajmi va foiz stavkalari**

**Banklararo REPO bozori operatsiyalari**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yilda umumiy likvidlik hajmining qisqarib borishi va REPO bozori platformasining takomillashtirilishi hisobiga (2023-yilda XVJning "Banklararo REPO bozorini rivojlantirish" bo'yicha texnik ko'mak dasturi doirasida bildirilgan tavsiyalar asosida) banklararo REPO bozori sezilarli darajada faollashib bordi.

Jumladan, 2023-yil yakunlari bo'yicha banklararo REPO bozoridagi operatsiyalar hajmi 76,4 trln so'mni tashkil qilib pul bozori amaliyotlaridagi ulushi dekabr oyida 30 foizga yetdi.




Pul bozorida operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari hisobot davrida to'liq foiz koridori doirasida shakllandi. Birinchi yarim yillikda foiz stavkalari asosan asosiy stavkadan past shakllangan bo'lsa, ikkinchi yarim yillikda foiz stavkalar asosiy stavkadan yuqori, 14,1-14,8 foiz oralig'ida shakllandi.

Pul bozorida foiz stavkalarining asosiy stavkadan yuqoriroq shakllanishi bank tizimidagi umumiy likvidlik profitsitining qisqarishi va banklararo pul bozorida uzoqroq muddatli depozit operatsiyalarining nisbatan ko'payishi bilan izohlanadi.

Pul bozorining benchmark foiz stavkasini hisoblangan UZONIA foiz stavkasi 2023-yilda to'liq foiz koridori doirasida asosiy stavkaga yaqin shakllandi. UZONIANing asosiy stavkadan tafovutining qisqarishi umumiy likvidlik profitsitining qisqarishi va banklar tomonidan narxni belgilash jarayonidagi ijobiy o'zgarishlar bilan izohlanadi.


3.1.3.3-chizma

### UZONIA benchmark foiz stavkasi dinamikasi



3.1.3.4-chizma

### Muddatli UZONIA stavkalari va UZONIA indeksi shakllanishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


UZONIA stavkasining o'rtacha 14 foiz atrofida shakllanishi turli muddatli UZONIA foiz stavkalarining ham kumulyativ hisobda ushbu darajaga yaqinlashishiga xizmat qilmoqda.

Banklararo pul bozorida tijorat banklari tomonidan likvidlikni boshqarish samaradorligi va faolligini ortib borishi o'tkazilayotgan operatsiyalar hajmining ortishi va o'rtacha muddatining qisqarishida namoyon bo'lmoqda. Xususan, pul bozorida amalga oshirilgan oylik o'rtacha amaliyotlar hajmi 2023-yilda 2,1 barobarga oshdi va 25,9 trln so'm doirasida shakllandi.

2023-yilda tijorat banklari tomonidan likvidlikni asosan overnait operatsiyalar orqali boshqarish afzal ko'rib, pul bozorida jami amaliyotlarning 80,1 foizi 1 kunlik depozit operatsiyalariga to'g'ri keldi.

3.1.3.5-chizma

**Pul bozoridagi operatsiyalarning muddati bo'yicha ulushi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


**3.1.4. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar tahlili**

2023-yilda ichki valyuta bozori o'zgaruvchan tashqi bozor konyunkturas i, global qat'iy pul-kredit sharoitlari hamda yuqori iqtisodiy faollik fonida chet el valyutasiga bo'lgan umumiy talabning taklif hajmidan sezilarli darajada ortishi bilan xarakterlandi.

Hisobot yilida ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi **umumiy taklif hajmi** (Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmaganda) **34,4** mlrd dollarni tashkil etib, shundan **14,7** mlrd dollari (**43 foizi**) xo'jalik yurituvchi subyektlar, **13,5** mlrd dollari (**39 foizi**) banklar va jismoniy shaxslar hamda **6,2** mlrd dollari (**18 foizi**) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi.

3.1.4.1-chizma

**Ichki valyuta bozoridagi chet el valyutasi taklifi manbalari**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Shuningdek, ushbu davrda chet el valyutasiga bo‘lgan **talabning umumiy hajmi 42,5 mlrd dollarga** yetib, 2022-yilga nisbatan **16 foizga** oshdi. Ushbu talabning **78,6 foizi** yuridik shaxslar va **21,4 foizi** jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Yuridik shaxslarning valyuta operatsiyalari.** 2023-yilda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo‘lgan talab **33,4 mlrd dollarni** tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **1,2 barobarga** oshdi va import hajmi o‘shishiga mutanosib bo‘ldi.

Ichki valyuta bozoridagi chet el valyutasining **56 foizi** ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, xomashyo va xizmatlar importi, **20 foizi** xorijiy kreditlarni so‘ndirish, **21 foizi** xalq iste‘moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, **1 foizi** xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va **2 foizi** boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

3.1.4.2-chizma

#### Sotib olingan chet el valyutasi maqsadlari tarkibi




Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

2023-yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning import to‘lovlari hajmi 2022-yilga nisbatan **12 foizga** oshib, **36,5 mlrd dollarga** (*reeksport hisobga olinmagan*) yetdi va ushbu to‘lovlarning **64 foizi** ichki valyuta bozoridan sotib olingan valyuta mablag‘lari hisobidan qoplandi.

Hisobot yilida milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif omillari hamda tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar ta‘sirida shakllandi.

3.1.4.3-chizma

**Import to'lovlari manbalari**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jahonda qat'iy pul-kredit sharoitlarining saqlanib qolishi, asosiy savdo hamkorlar milliy valyutalarining qadrsizlanishi va inflyatsiya ko'rsatkichlarining muvozanatlashib borishi fonida 2023-yil avgust oyida so'm real samarali almashuv kursida sezilarli mustahkamlanish kuzatildi. Bu esa, o'z navbatida, turli valyuta kanallari orqali ichki valyuta bozorida so'm almashuv kursining ma'lum to'g'rilanishiga sabab bo'ldi.

3.1.4.4-chizma

**AQSh dollarining milliy valyutaga nisbatan  
almashuv kursi dinamikasi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ichki valyuta bozorida so'm almashuv kursining fundamental omillar ta'sirida to'g'rilanishi real samarali almashuv kursining uzoq muddatli trendiga qaytishiga olib keldi va valyuta bozorining barcha segmentlarida xorijiy valyutaga talab va

taklifning muvozanatlashuvi kuzatildi. Moslashuvchan almashuv kursi ushbu to'g'rilanish orqali tashqi shoklarning ichki iqtisodiyotga bo'lgan ehtimoliy salbiy oqibatlarini yumshatishga xizmat qildi.

2023-yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi **11 263-12 390 so'm** diapazonida shakllanib, **9,8** foizga qadrsizlangan bo'lsa, real samarali almashuv kursi yil boshiga nisbatan **0,8** foizga mustahkamlangani holda barqaror darajada saqlanib qoldi.

### 3.2. Valyuta siyosati va valyuta operatsiyalari tahlili

2023-yilda global xomashyo bozorida narxlarning pasayishi eksport tushumlarining deyarli o'zgarishsiz qolishi hamda ichki talabning yuqori darajada saqlanib qolayotganligi import tovarlariga bo'lgan talabni oshishi hisobiga tashqi savdo balansining manfiy saldosini kengaytdi.

Shuningdek, qator davlatlarda qat'iy pul-kredit siyosati davom ettirilishi natijasida kapitalning rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan iqtisodiyotlarga ko'chishi sharoitida O'zbekistonga so'xorijiy investitsiyalar oqimi kamayganligiga qaramasdan, hukumat va korporativ (*xususiy*) sektor korxonalarini tomonidan davlat dasturlari va investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish doirasida tashqi qarz mablag'larini jalb qilish ko'lamining ortganligi kuzatildi.

Bunday vaziyat mamlakatda valyuta siyosatining ehtiyotkorlik bilan yuritilishini hamda valyuta operatsiyalari ustidan nisbatan kuchaytirilgan monitoring olib borilishini taqozo etdi.

XVJ bilan kelishuv moddalari doirasida qabul qilingan majburiyatlarni to'laqonli bajarish maqsadida joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarning erkin amalga oshirilishi hamda ushbu operatsiyalar uchun chet el valyutasining cheklovlarsiz sotib olinishini ta'minlash borasida barcha zaruriy choralar ko'rildi.

O'z navbatida, ichki valyuta bozoridagi muvozanatni turli xil xatarlardan himoya qilish maqsadida kapital harakati operatsiyalariga nisbatan konservativ yondashuv davom ettirildi.


Valyutani tartibga solish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va ularni iqtisodiy jarayonlarga muvofiqlashtirish ishlari doirasida sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarga ayrim o'zgartirishlar kiritilib, rezidentlar va nerezidentlar uchun ichki valyuta bozorida chet el valyutasini xarid qilish va ulardan foydalanish borasida qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

### 3.2.1. Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha mablag'lar harakati tahlili

2023-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlarning jami **eksport tushumlari** (*maxsus eksportdan tashqari*) 2022-yilga nisbatan **5 foizga kamayib, 15,5 mlrd** dollarni tashkil etgan bo'lsa, tovar va xizmatlar uchun xorijga o'tkazilgan **import to'lovlari** miqdori 2022-yilga nisbatan **10 foizga ortib, 38 mlrd** dollarga teng bo'ldi.

3.2.1.1-chizma

**Eksport tushumlari va import to'lovlari hajmi dinamikasi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha valyuta mablag'lari harakatining manfiy saldosinga kengayishi, o'z navbatida import to'lovlarni eksport tushumlari bilan qoplanish darajasining (*“Terms of trade”*) pasayishida ham o'z aksini topib, bu ko'rsatkich 2022-yildagi 47 foizdan **41 foizgacha** qisqardi.

Importga yo'naltirilgan to'lovlarning qolgan qismi korxonalarining o'z mablag'laridan tashqari, asosan ichki valyuta bozorida xarid qilingan mablag'lar yoki qisman xorijiy valyutadagi kreditlar hisobidan qoplangan.


**Eksport tushumlarining** 41 foizi yoki 6,3 mlrd dollari iqtisodiyotning tarmoq korxonalari, 59 foizi yoki 9,2 mlrd dollari hududiy va xususiy korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan.

Eksport tushumlari savdo hamkor davlatlar kesimida tahlil qilinganda, ularning **65 foizi 5 ta** xorijiy davlatlarga, xususan, **27 foizi Rossiya, 13 foizi Xitoy, 10 foizi Qozog'iston, 8 foizi Birlashgan Arab Amirliklari, 7 foizi Turkiya** davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hisobot yilida jami eksportdan kelib tushgan valyuta mablagʻlarining **78 foizi** dollar, **14 foizi** Rossiya rubli, **5 foizi** yevro va qolgan **3 foizi** boshqa valyutalardan iborat.

3.2.1.2-chizma

**Import toʻlovlarini eksport tushumlari bilan qoplanish darajasi  
(Terms of trade) dinamikasi**




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

2023-yildagi jami **import toʻlovlarining 61 foizi** yoki **23,3 mlrd dollari** ichki valyuta bozorida xarid qilingan mablagʻlar hisobidan amalga oshirilib, mazkur koʻrsatkich 2022-yilga nisbatan **3 foiz** bandga oshdi.

3.2.1.3-chizma

**Eksport tushumlarining hamkor-davlatlar kesimidagi dinamikasi**




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari



Shuningdek, xorijiy valyutadagi kreditlar hisobidan amalga oshirilgan import to'lovlari 2022-yilga nisbatan **14 foizga** yoki **494 mln** dollarga ko'payib, **4 mlrd** dollarni tashkil etdi.

3.2.1.4-chizma

**2020-2023-yillarda korxonalarining import to'lovlari va manbalari dinamikasi**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jami import to'lovlarining **60 foizi 5 ta** hamkor mamlakatlarga o'tkazilgan bo'lib, shundan 20 foizi **Xitoy**, 16 foizi **Rossiya**, 8 foizdan mos ravishda **Turkiya**, **Qozog'iston** va **Birlashgan Arab Amirliklari** davlatlariga to'g'ri keladi.

3.2.1.5-chizma

**Import to'lovlarining hamkor-davlatlar kesimidagi dinamikasi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yilda tashqi savdo shartnomalari doirasidagi import to'lovlarining 74 foizi (-5 foiz kam) dollarda, 13 foizi (+4 foiz ko'p) Rossiya rublida, 11 foizi (o'zgarishsiz) yevroda va qolgan 2 foizi (+1 foiz ko'p) boshqa valyutalarda amalga oshirilgan.


### 3.2.2. Jismoniy shaxslar bilan valyuta operatsiyalari

2023-yilda jismoniy shaxslarning chet el valyutasini ayirboshlash amaliyotlariga bo'lgan talabidan kelib chiqib, aholi va xorijiy sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, valyuta ayirboshlash infratuzilmasini yanada rivojlantirish va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar davom ettirildi.

Xususan, valyuta ayirboshlash infratuzilmasini yaxshilash hamda aholi punktlaridagi joylashuv zichligini oshirish maqsadida **valyuta ayirboshlash shoxobchalarining** umumiy soni 24 foizga oshirilib, 5,2 mingga yetkazildi (shulardan 2,6 mingtasi "24/7" rejimida ishlaydigan avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari).

3.2.2.1-chizma

#### 2019-2023-yillarda valyuta ayirboshlash shoxobchalari umumiy sonining o'sishi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalar aylanmasi (chet el valyutasi xaridi va sotuvi) hajmi 2022-yilga nisbatan 3 foizga o'sib, jami 21,5 mlrd dollarni tashkil etdi.


2023-yilda jami valyuta ayirboshlash operatsiyalaridagi AQSh dollarining ulushi o'zgarishsiz 99 foizda qoldi.

2023-yilda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan jami **12,3** mlrd dollar ekvivalentida (2022-yilga nisbatan 4 foizga ko‘p) xorijiy valyuta sotib olingan bo‘lsa, jismoniy shaxslarga jami **9,1** mlrd dollar ekvivalentida (2022-yilga nisbatan 2 foizga ko‘p) valyuta mablag‘lari sotildi.

Ta’kidlash joizki, valyuta ayirboshlash operatsiyalarining ijobiy saldosini 2022-yildagi 3 mlrd dollardan **3,2** mlrd dollargacha ko‘payib, **ichki valyuta bozoriga qo‘shimcha taklif omili** bo‘lib xizmat qildi.

3.2.2.2-chizma

### 2022-2023-yillarda jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmi




Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

Jismoniy shaxslardan **xarid qilingan chet el valyutasida** 1 000 dollargacha bo‘lgan tranzaksiyalar summasining jami tranzaksiyalardagi ulushi 2022-yildagi **56** foizdan **49** foizga tushgan bo‘lsa, 1 000 dollardan yuqori bo‘lgan tranzaksiyalarning ulushida **44** foizdan **51** foizga o‘shish kuzatildi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarga **sotilgan chet el valyutasida** 1 000 dollardan yuqori bo‘lgan tranzaksiyalar summasi jami tranzaksiyalar hajmining **75** foizini (o‘tgan yil darajasida) tashkil etdi.

2023-yilda aholi gavjum joylarda, turistik zonalarda, aeroport, vokzal va savdo majmualarida tashkil etilgan **“24/7” rejimida** ishlovchi **avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari** orqali jismoniy shaxslardan sotib olingan naqd chet el valyutasi **169** mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, jismoniy shaxslarga 100 dollargacha bo‘lgan miqdorda jami **117** mln dollar sotildi.

### 2023-yilda jismoniy shaxslardan xarid qilingan chet el valyutalarining miqdoriy tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida jismoniy shaxslarga masofaviy tarzda, zamonaviy axborot texnologiyalari va mobil ilovalar orqali jami **2 mlrd** dollar sotilgan va ulardan **900** ming dollar xarid qilingan.

2023-yilda xalqaro **transchegaraviy pul o'tkazmalari aylanmasi (chet eldan kelib tushgan va yuborilgan)** o'zining tarixiy trendiga qaytishi kuzatilib, uning hajmi 2022-yilga nisbatan qariyb **30** foizdan ko'proq kamayib, **13,8 mlrd** dollarga teng bo'ldi.

Xalqaro transchegaraviy **pul o'tkazmalari orqali respublikaga** jami **11,4 mlrd** dollar miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan **1,5 barobarga** kam xorijiy valyuta mablag'lari kelib tushdi.


Hisobot yilida kelib tushgan jami xalqaro pul o'tkazmalarining **34** foizi jismoniy shaxslarning kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (*P2P orqali*)<sup>14</sup> kelib tushgan transchegaraviy o'tkazmalar hissasiga to'g'ri keldi.

2023-yilda Rossiyadan kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmida kamayish kuzatilgan bo'lsa, Turkiya (*1,3 barobar*), Koreya (*1,2 barobar*), Litva (*2,3 barobar*) va Polsha (*1,8 barobar*) davlatlaridan kelib tushgan mablag'lar hajmi **155 mln** dollarga oshgan.

<sup>14</sup> P2P o'tkazmalari – chet eldan jismoniy shaxslarning milliy va chet el valyutasidagi kartalariga kirib kelgan xalqaro onlayn transchegaraviy pul o'tkazmalari.

3.2.2.4-chizma

**Xalqaro transchegaraviy pul o‘tkazmalar orqali kelib tushgan va xorijga jo‘natilgan mablag‘lar dinamikasi**




Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

Mazkur tarkibiy o‘zgarishlar asosiy hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy faollikning pasayishi va hukumatlararo shartnomalar doirasida muhojirlarni tashkiliy asosda ishga qabul qilish dasturlarining joriy etilishi natijasida mehnat migratsiyasi oqimining an’anaviy davlatlardan boshqa muqobil davlatlarga o‘tayotgani bilan izohlanadi.

Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy davlatlarga yuborilgan pul o‘tkazmalari hajmi 2,3 mlrd dollar miqdorida shakllanib, 2022-yilga nisbatan 12 foizga o‘sd. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank o‘tkazmalari orqali mablag‘larning jo‘natilishi qariyb 70 foizga o‘sishi - nosavdo tUSDagi to‘lovlar hajmining oshishi bilan izohlanadi.

3.2.2.5-chizma

**2022-2023-yillarda chet elga yuborilgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari mamlakatlar kesimida**



Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

Shu bilan birga, transchegaraviy o'tkazmalar bo'yicha yuborilgan mablag'larning asosiy qismi, ya'ni **65 foizi 5 ta** mamlakat hissasiga to'g'ri kelib, xususan Turkiyaga **442,6 mln** dollar, Xitoyga **434,1 mln** dollar, Rossiyaga **305,5 mln** dollar, Birlashgan Arab Amirligiga **197 mln** dollar hamda Qozog'istonga **133,3 mln** dollar jo'natilgan.

### 3.3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini boshqarish

2023-yilda Markaziy bank tomonidan xalqaro zaxiralarni boshqarishda xavfsizlik, likvidlilik va daromadlilik tamoyillariga hamda ushbu amaliyotlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, xalqaro zaxiralarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish maqsadida Jahon banki bilan "Xalqaro zaxiralar bo'yicha maslahat va boshqarish dasturi" doirasida hamkorlik ishlari davom ettirildi.

Mazkur dastur doirasida xalqaro zaxiralarni boshqarishning aniq maqsad va yo'nalishlarini belgilash, aktivlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha investitsion takliflar tayyorlash, zaxiralarni boshqarishni tartibga solish va samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bankning Investitsiya qo'mitasi tashkil etildi.

Investitsiya qo'mitasi tomonidan xalqaro zaxiralarni boshqarishda qo'llaniladigan yetakchi xorijiy axborot tizimlari va dasturiy ta'minotlarni Markaziy bankda joriy etish hamda zaxiralar tarkibini diversifikatsiya qilish, xususan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqildi.

Shuningdek, hisobot yilida Jahon bankining mazkur dasturi doirasida Markaziy bank xodimlari qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish, investitsiyalar hisobini yuritish bo'yicha xalqaro standartlar, kredit va bozor xatarlarini baholash hamda boshqarish kabi yo'nalishlarda maxsus seminarlarda qatnashib malaka sertifikatlariga ega bo'lishdi.

"Sertifikatlangan moliyaviy tahlilchi" (*Chartered Financial Analyst – CFA*) va "Sertifikatlangan Diplomli Buxgalterlar Assotsiatsiyasi" (*Association of Chartered Certified Accountants – ACCA*) yo'nalishlari bo'yicha tegishli sertifikatlarni olish borasida o'qish jarayonlari davom ettirilmoqda hamda "Davlat moliyaviy aktivlarini boshqarish" borasida Jahon banki G'aznachiligida mablag'larni boshqarish bo'yicha amaliyot o'tash tizimi joriy etildi.

**7-havola**

Markaziy bank “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq xalqaro zaxiralarni boshqarish, hisobga olish va saqlash vazifalarini amalga oshiradi. Xalqaro zaxiralarni saqlash va boshqarish maqsadlaridan kelib chiqib, maqbul xavfsizlik va likvidlik darajasini ta‘minlashga ustuvorlik beriladi.

Xalqaro zaxiralarning likvidligi xalqaro operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi va uzluksizligini ta‘minlash, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda tezkor va samarali choralar ko‘rish imkonini beradi.

Shu sababdan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida xalqaro zaxiralar Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish, shuningdek, xalqaro operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni ta‘minlashga yetarli bo‘lgan darajada saqlanishiga asosiy e‘tibor qaratiladi.

Xalqaro zaxiralar Markaziy bankning va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining aktivlaridan iborat bo‘lib, monetar oltin, chet el valyutalari, XVJdagi mablag‘ jalb qilishga doir maxsus huquqlar (*SDR*) va zaxira pozitsiyasi, chet el hukumatlari va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan chiqarilgan yoki kafolatlangan qimmatli qog‘ozlarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro zaxiralar tarkibiga kiritilgan aktivlar likvidligi yuqori bo‘lishi, norezidentlarga bo‘lgan talabni o‘zida aks ettiruvchi tashqi aktivlar ko‘rinishida bo‘lishi, xalqaro to‘lovlarda erkin foydalaniladigan xorijiy valyutada bo‘lishi, pul-kredit organlarining erkin tasarrufi va nazoratida bo‘lishi talab etiladi.

### **3.3.1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi va tarkibining tahlili**

Yalpi xalqaro zaxiralar hajmi 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 34,6 mlrd dollarni, zaxiralar tarkibida oltin hajmi 24,6 mlrd dollarni hamda chet el valyutasidagi aktivlar 9,9 mlrd dollarni tashkil etadi.

Hisobot yilida zaxiralar tarkibidagi oltin hajmi deyarli o‘zgarishsiz qolgan bo‘lsada, narx o‘sishining ta‘sirida oltin zaxiralar qiymati 3,1 mlrd dollarga o‘sdi.

Global iqtisodiyotda yuqori inflyatsion bosim hamda geosiyosiy noaniqliklarning saqlanib qolayotganligi xalqaro bozorda oltinning xavfsiz aktiv va inflyatsiyadan xedjirlash vositasi sifatidagi ahamiyatini oshirib bormoqda. Bu esa, oltinga bo‘lgan talabni va uning narxini yuqori darajalarda saqlanib qolishiga zamin yaratmoqda.


Xususan, 2023-yil davomida oltin narxi 1 troy unsiyasi uchun 13,8 foizga oshib, yil oxiriga kelib 2 062,4 dollarni tashkil qildi.

Oltin narxining davomiy o‘sovchi trendi xalqaro zaxiralar tarkibida oltin hajmi ulushini sezilarli oshishida muhim omil bo‘lmoqda.

Xususan, zaxiralar tarkibida oltinning ulushi 2022-yildagi 66 foizdan 71 foizgacha oshgan bo‘lsa, chet el valyutasidagi zaxira aktivlarning ulushi 34 foizdan 29 foizgacha qisqarishi kuzatildi.



### O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Zaxiralar tarkibidagi chet el valyutasidagi aktivlarning kamayishi asosan:

– rivojlangan davlatlar markaziy banklari, jumladan AQSh FZT tomonidan asosiy foiz stavkalarining 2023-yil davomida oshirib borilishi, o‘z navbatida, tashqi qarz jalb qilish va unga xizmat ko‘rsatishning qimmatlashishi va investitsiyalar hajmini oshirish imkoniyatini cheklashi;

– hisobot davrida xalqaro pul o‘tkazmalarining 2022-yilda kuzatilgan noodatiy o‘shish sur‘atlaridan o‘zining tarixiy trendiga qaytishi ta‘sirida yuz bergan.

Ichki valyuta bozoridagi talab va taklif orasida yuzaga kelgan salbiy tafovut, xalqaro to‘lovlarni amalga oshirishning qo‘shimcha manbasi sifatida xalqaro zaxiralardagi chet el valyutasi hisobidan “neytrallik” tamoyili doirasida moliyalashtirildi.

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalaridan 105,6 tonna monetar oltin sotib olindi va 110 tonna oltin eksporti amalga oshirildi. Oltin eksportidan kelgan valyuta tushumi ichki valyuta bozoriga yo‘naltirildi.

Shuningdek, hisobot yili yakunida chet el valyutasidagi aktivlarning 82 foizi AQSh dollarida, 14 foizi Xitoy yuanida hamda 4 foizi boshqa valyutalarda shakllandi.

Valyuta aktivlari tarkibida Xitoy yuani ulushini oshirishning iqtisodiy ahamiyati unga xalqaro zaxira valyutasi maqomi berilganligi hamda so‘nggi

yillarda Xitoyning O‘zbekiston bilan tashqi savdo aylanmasidagi ulushi oshganligi (2022-yilda 18 foiz, 2023-yilda 22 foiz) bilan izohlanadi.

Xalqaro zaxiralarni boshqarishda hamkor-banklarning xalqaro maqomi va moliyaviy holati muhim ahamiyat kasb etadi.


2023-yilda valyuta aktivlari yuqori suveren kredit reytingiga ega mamlakatlarda faoliyat yuritadigan va xalqaro miqyosda investitsion reytingga ega banklarga muddatli depozitlarga joylashtirildi.

Xalqaro zaxiralar tarkibidagi valyuta aktivlarining bir mamlakat yoki bir hamkor-bank hissasiga to‘g‘ri keladigan konsentratsiya riski darajasini kamaytirish maqsadida, 2023-yilda hamkor-banklar soni 7 taga ortib, yil yakuniga hamkorlik munosabatlari o‘rnatilgan mamlakatlar soni 17 taga va hamkor banklar soni 45 taga yetkazildi.


Ushbu hamkor banklarning 32 tasi birinchi darajali kapital hajmi bo‘yicha dunyoning 100 ta eng katta banklari reytingida qayd etilgan bo‘lib, qolgan qismi esa dunyoning 200 ta eng yirik banklari ro‘yxatiga kiritilgan.

3.3.1.2-chizma

**Chet el valyutasidagi aktivlarning  
mamlakatlar suveren kredit reytingi  
bo‘yicha ulushi**



**Chet el valyutasidagi aktivlarning  
hamkor-banklar kredit reytingi bo‘yicha  
ulushi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Valyuta aktivlari bo‘yicha risklarni oldini olish hamda tezkor choralar ko‘rish maqsadida hamkor-banklarning moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin xatarlar muntazam ravishda Markaziy bank tomonidan monitoring qilib boriladi.

Xususan, 2023-yilning I choragida AQShning ayrim banklari hamda Shveysariyaning “Kredit Sviss” bankida kuzatilgan xatarli holatlar yuzasidan valyuta aktivlari bo‘yicha risklarni oldini olish maqsadida AQSh hamda Shveysariya banklari bilan vaziyat barqarorlashgunga qadar operatsiyalar o‘tkazish hajmi vaqtinchalik cheklandi.


Bozor konyunkturasi kelib chiqib, valyuta aktivlarining bir hamkor-bank yoki bir mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladigan konsentratsiya riski darajasini pasaytirish maqsadida aktivlarning mamlakatlar va banklar kesimidagi diversifikatsiyasi ta‘minlanmoqda.

2023-yilda xalqaro pul bozorida foiz stavkalarining oshib borishi ortidan valyuta aktivlarini xorijiy hamkor-banklarga muddatli depozitlarga joylashtirishdan olingan foizli daromadlar hajmiga ijobiy ta‘siri kuzatildi.

Xususan, depozitga joylashtirilgan valyuta aktivlaridan olingan daromad 2022-yilga nisbatan 2,4 barobarga oshib, 2023-yilda 436 mln dollarga yetdi. Depozitga joylashtirilgan mablag‘larning o‘rtacha daromadlilik darajasi 2023-yilda AQSh dollari bo‘yicha 4,5 foizdan 5,6 foizgacha o‘sgan bo‘lsa, Xitoy yuanida 2,5 foizdan 2,8 foizgacha oshgan.

3.3.1.3-chizma

### Valyuta aktivlari bo‘yicha foizli daromad va o‘rtacha foiz stavkalari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

### 3.3.2. Xalqaro zaxiralarning yetarlilik ko‘rsatkichlari va ularning tahlili


Har bir rivojlanayotgan davlat uchun xalqaro zaxiralarni yetarli darajada saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro zaxiralarning yetarli darajasi to‘lov balansi inqirozi ehtimolini kamaytiradi, mamlakatdagi valyuta ayirboshlash kursiga bosim bo‘lgan davrlarda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi hamda boshqa iqtisodiy inqirozlar davrida bufer vazifasini bajaradi.

Valyuta siyosatining erkinlashtirilishi hamda xalqaro zaxiralarni boshqarishda ehtiyotkorona siyosat olib borilishi, **Zaxiralarning qisqa muddatli qarzlarni qoplash darajasi** (*minimal talab 100 foiz*), **Importni qoplash darajasi** (*kamida uch oylik importni qoplash*), **Keng ma'nodagi pul massasiga nisbati** (*20 foiz*), hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun **ARA EM Zaxiralar yetarliligi** (*100-150 foiz*) ko'rsatkichlarining xalqaro amaliyotda foydalaniladigan minimal talablardan yuqori shakllanishida o'z aksini topmoqda.<sup>15</sup>

Xususan, xalqaro zaxiralarning keng ma'nodagi pul massasiga nisbati 2024-yil 1-yanvar holatiga 201 foizni tashkil qilib, 20 foizlik minimal talabdan 10 barobar ko'pdir.

3.3.2.1-chizma

### Xalqaro zaxiralarning pul massasiga nisbati




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, O'zbekistonning 2023-yil yakuni bo'yicha shakllangan xalqaro zaxiralari 11 oylik importni qoplashga yetadi. Bu esa, minimal talab etiladigan ko'rsatkichdan qariyb 4 barobarga yuqoridir.

3.3.2.2-chizma

### Xalqaro zaxiralarning importni qoplash darajasi




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

<sup>15</sup> (ARA EM – ko'rsatkichi) *Assessing Reserves Adequacy for Emerging Markets* – bu ko'rsatkich Xalqaro valyuta jamg'armasining metodologiyasi asosida mamlakatning valyuta siyosati, eksport-import hajmi, pul massasi, tashqi qarzlari kabi ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi)

Mavjud xalqaro zaxiralar O'zbekistonning 2024-yil davomida so'ndirilishi kutilayotgan qisqa muddatli tashqi qarzlarni to'liq qoplaydi hamda bugungi kunda minimal talabga nisbatan qariyb **5,8 barobar** yuqori darajada shakllangan.

3.3.2.3-chizma

### Xalqaro zaxiralarning qisqa muddatli tashqi qarzni qoplashi




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

XVJning ARA EM ko'rsatkichi bo'yicha zaxiralar yetarliligiga qo'yiladigan minimal talabdan **3,5 barobarga** ko'proqdir.

3.3.2.4-chizma

### ARA EM ko'rsatkichi o'zgarishi




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkor mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, O'zbekiston xalqaro zaxiralarning YaIMdagi ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **38** foizni tashkil etdi.

3.3.2.5-chizma

### Xalqaro zaxiralarning YaIMga nisbatan o'zgarishi, foizda



Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

### Xalqaro moliya bozorlari bo'yicha kutilmalar

2024-yilda, kutilayotgan xalqaro moliya bozorlari dinamikasi global iqtisodiy rivojlanishning **bazaviy**, **muqobil-xatarli** va **muqobil-optimistik** ssenariylari asosida tahlil qilindi.

**Bazaviy ssenariyda** jahonda iqtisodiy o'sish sur'atlari 2023-yil darajalarida saqlanib qolishi hamda inflyatsiya ko'rsatkichlari pasayishda davom etishi natijasida 2024-yilda yetakchi markaziy banklar (*AQSh, Yevropa va Buyuk Britaniya*) pul-kredit siyosatini yumshatish fazasiga o'tishi va Yaqin Sharqdagi geosiyosiy ziddiyatlarning o'rta muddatda saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda.

Xususan, FZT 2024-yil yakuniga AQShda inflyatsiyaning 2,4 foizgacha pasayishi (*2023-yil dekbar – 2,9 foiz*), ishsizlik darajasi 4,1 foizgacha o'sishi (*2023-yil dekbar – 3,7 foiz*) va mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'ati 1,4 foizgacha sekinlashishi bo'yicha prognozlarni e'lon qildi. Bunda, FZTning inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichi o'rtacha 2 foizni tashkil qiladi.

2024-yil davomida inflyatsiya ko'rsatkichlari pasayishidan kelib chiqib, FZT foiz stavkasi 4,75 foizgacha (*2023-yil dekbar holatiga – 5,5 foiz*) tushirilishi mumkinligi ma'lum qilindi.

Foiz stavkalarining tushishi, o'z navbatida, zaxira valyutalari daromadligi hamda iqtisodiyotda kredit narxi pasayishi natijasida investorlar tomonidan kapitalning fond bozoriga va iqtisodiyotning real tarmoqlariga yo'naltirilishi ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, ekspertlar tomonidan Yaqin Sharq mintaqasidagi ziddiyatlar qimmatbaho metallarga xavfsiz aktiv sifatida talabni saqlab turuvchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

**Muqobil-xatarli ssenariyda** jahonda geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi kuzatilib, inflyatsion bosim saqlanib qoladi.

Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar keskinlashuvi, xususan, mintaqaning dengiz yo'llari orqali o'tadigan global savdo va energiya resurslari erkin xarakatlanishi yuzasidan xatarlar jahonda inflyatsiya ko'rsatkichlarining kutilganidan sekinroq pasayishiga sabab bo'ladi.

Bu, o'z navbatida, zaxira valyutalari daromadligini qisqa muddatda yuqori darajalarda saqlanib turishiga xizmat qiladi va fond bozorlaridan kapitalning xavfsiz aktivlarga yo'naltirilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunda, qimmatbaho metallarga inflyatsiyaga qarshi xedjirlash instrumenti hamda xavfsiz aktiv sifatida bo'lgan talab yanada ortishi tahmin qilinmoqda.

**Muqobil-optimistik ssenariy** jahonda geosiyosiy vaziyatning barqarorlashuvi ortidan jahon bozorida iste'mol tovarlari va energiya resurslari narxlari pasayishi bilan bog'liq.

Bunda, Yaqin Sharqda geosiyosiy ziddiyatlarning yechim topishi global inflyatsiya darajasini pasayish sur'atlarining jadallashuviga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, dunyoning yetakchi markaziy banklari pul-kredit siyosatini bazaviy ssenariyga nisbatan tezroq yumshatishga undaydi va iqtisodiyotning kutilmalarga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ladi.

Mazkur holat zaxira valyutalari daromadligining sezilarli pasayishi va jahon moliya bozorlarida xavfsiz aktivlarga ehtiyojning kamayishi natijasida xalqaro qimmatbaho metallar bozorida narxlarning tushishi ortidan investorlar kapitalni yuqoriroq daromad keltiruvchi fond bozorlariga yo'naltirishi kuchayishi mumkin.

### 3.4. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati

2023-yilda pul-kredit siyosati, bank tizimi va to'lov tizimlari barqarorligini ta'minlashda Markaziy bank kommunikatsiya siyosatining rolini hamda uning ta'sirchanligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.



Ushbu maqsadda xorijiy markaziy banklar tajribasidan kelib chiqib XVJ bilan hamkorlikda “2023-2025-yillarga mo‘ljallangan Kommunikatsiya strategiyasi” va uni amalga oshirish yuzasidan Yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

Mazkur strategiyada Markaziy bankning faoliyati yo‘nalishining maqsadlari va amalga oshirayotgan ishlarini jamoatchilikka yetkazishda:

– inflyatsiyani targetlash rejimi doirasida narxlar, xususan, bank tizimi moliyaviy holatini mustahkamlash, to‘lov tashkilotlari hamda regulyator faoliyatining boshqayo‘nalishlarida olib borayotgan ishlari mazmun-mohiyati bilan ommaviy axborot vositalari va zamonaviy kommunikatsiya kanallari orqali jamoatchilik xabardorligini oshirish;

– iqtisodiy islohotlar jarayoni, o‘zgarishlar hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarining to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi va kelgusi xatti-harakatlarini shakllantirishiga ko‘maklashish;

– o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun jamoatchilik bilan erkin axborot, fikr almashinuv muhitini yaratish kabi vazifalar ustuvor etib belgilandi.

**Pul-kredit siyosati kommunikatsiyasi.** 2023-yilda Markaziy bankning asosiy e‘tibori pul-kredit siyosati mohiyati va mazmunini keng jamoatchilikka targ‘ib qilish va o‘rta muddatli inflyatsion targetga bosqichma-bosqich erishishda kommunikatsiya instrumentlarining sifatini yaxshilashga qaratildi.

Hisobot yilida pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari nashri, pul-kredit siyosati sharhlari va asosiy stavka bo‘yicha qarorlar yuzasidan press-relizlar pul-kredit siyosati kommunikatsiyasining asosiy instrumentlari sifatida qo‘llanildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan nashrlar keng jamoatchilikning barcha qatlamlari hisobga olingan holda sodda va ommabop tilda yozilishiga e‘tibor qaratildi. Muhim ma’lumot va xabarlar bo‘yicha alohida tushuntirishlar berildi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini ommaviy axborot vositalarida ochiq e‘lon qilishi, muayyan davr oralig‘ida yuzaga kelgan vaziyat bo‘yicha sharh va prognozlar hamda hisobotlarini keng jamoatchilikka taqdim etishi orqali aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kutilmalariga ta’sir ko‘rsatmoqda va shu asosida o‘z maqsadlariga erishish choralari ko‘rmoqda.

Bu borada aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari va sezilgan inflyatsiya darajalari bo‘yicha oylik so‘rovnomalari o‘tkazilmoqda hamda natijalari doimiy ravishda infografikalar ko‘rinishida e‘lon qilib borilmoqda.

Shu bilan birga, YTTBning texnik ko‘mak missiyasi doirasida pul-kredit sohasida e‘lon qilinadigan har bir material tajribali mutaxassislar ishtirokida tahliliy

tomondan ko‘rib chiqilishi va nashrlar istiqbolli munosabat (*forward-looking*) tamoyili asosida tayyorlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2023-yil davomida asosiy stavkaga bag‘ishlangan tayanch boshqaruv yig‘ilishlaridan so‘ng matbuot anjumanlari o‘tkazib borildi, ularda qatnashish istagini bildiruvchi OAV vakillari soni yanada ortib bormoqda va onlayn yoritib borayotgan jurnalist va blogerlar safi kengaymoqda.

OAV vakillari orasida bank-moliya mavzusini yoritishga ixtisoslashgan jurnalistlar doirasi kengayib bormoqda. Bu bilan Markaziy bank xatti-harakatlariga nisbatan noto‘g‘ri tasavvur shakllanishining, axborotlarning noto‘g‘ri talqin etilishining oldi olinmoqda.

Iqtisodiyot va bank-moliya sohasidagi ilmiy doiralarni Markaziy bank faoliyati bilan tanishib borishga keng jalb qilish va ular bilan dolzarb masalalar bo‘yicha fikr almashish maqsadida “Pul-kredit siyosati va inflyatsion targetlash” mavzusida iqtisodiy yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlovchi 10 ga yaqin yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va xorijiy oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari hamda talabalari o‘rtasida seminar-treninglar tashkil etildi.

**Markaziy bank faoliyatida shaffoflik va ochiqlik.** Pul-kredit, bank va to‘lov tizimlari sohasidagi dolzarb ma‘lumotlar jamoatchilikka aloqa kanallari (*rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari*) orqali tezkor ravishda yetkazilmoqda. Bunda:

- regulyatorning faoliyati haqidagi axborotlar ommaviy, keng auditoriyaga ega nashrlarda yoritilishi;
- bank tizimiga oid o‘zgarishlar xususidagi axborotlarning to‘laqonliligi va tushunarlilik;
- axborotlarning o‘z vaqtida taqdim qilinishi, kelgusidagi rejalarning bayon etilishiga e‘tibor qaratilmoqda.

2023-yilda jamoatchilikning tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari va to‘lov tashkilotlari samaradorligiga ishonchni mustahkamlash maqsadida Bank nazorati qo‘mitasining majlislarida ko‘rilgan masalalar va ular bo‘yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan tayyorlangan axborotlarni yoritib borish yo‘lga qo‘yildi.

Aholi va tadbirkorlik subyektlarining ishonchini qozonishda kommunikatsiyaning, ayniqsa, yuzma-yuz muloqotlarning ahamiyati yuqori. Bu borada, Markaziy bank rahbariyati va mas‘ul xodimlari tomonidan 2023-yilda joylarda 100 dan ortiq turli uchrashuv va ochiq muloqotlar tashkil etilib, ularda bank xizmatlari iste‘molchilariga respublikamizdagi joriy makroiqtisodiy holat, pul-kredit siyosati, bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarga doir zarur tushuntirishlar berib borildi.

Kommunikatsiya sohasidagi to‘plangan tajribalar va joriy vaziyatni atroflicha o‘rganish natijalari Markaziy bankning joriy va rejalashtirilayotgan sa‘y-harakatini oldindan xabardor qilishning samarali mexanizm ekanligini ko‘rsatdi.

Bunga Markaziy bank tomonidan “Maxsus huquqiy rejim – tartibga solish qumdoni doirasida joriy etilgan yangi moliyaviy xizmatlar va texnologiyalar” hamda “Bank tizimi barqarorligini ta‘minlashda banklarni sanatsiya qilish va omonatlarni kafolatlash tizimlarining ahamiyati” mavzusida o‘tkazilgan media-muloqotlar yaqqol misol bo‘la oladi.

2023-yilda ayrim tahliliy sharhlar umumlashtirilib, veb-saytga 55 ta sharh, 214 ta xabar, 10 ta press-reviz, Markaziy bank boshqaruvi a‘zolarining 3 ta ma‘ruza hamda kredit tashkilotlari va to‘lov tizimlari faoliyatiga doir 300 dan ziyod statistik ma‘lumotlar joylashtirildi.

So‘nggi yillarda kommunikatsiya siyosatini olib borishdagi global tendensiyalar hamda kuzatuvchilar so‘rovlariga asosan ma‘lumotlar va axborotlarni ko‘proq vizual ko‘rinishda taqdim etishga e‘tibor berilmoqda. Xususan, OAV va ijtimoiy kanallarda 2022-yilga nisbatan **1,5 barobar** ko‘p yoki **500** dan ortiq video va infografika shaklidagi ma‘lumotlar e‘lon qilindi.

Bank-moliya mavzusini yoritadigan ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar uchun har chorakda seminar-trening o‘tkazish amaliyoti davom ettirilib, ularda **50** nafardan ortiq soha vakillarining moliyaviy bilimlari oshirildi.

Shuningdek, 40 dan ortiq teleko‘rsatuv, seminar, konferensiya va forumlar tashkil etilib, tegishli ma‘lumotlar kuzatuvchilar e‘tiboriga havola etildi. Markaziy bank rahbariyati va xodimlarining xalqaro moliyaviy tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlari veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda doimiy yoritib borilmoqda.

Markaziy bank xodimlari uchun “Notiqlik san‘ati: omma oldida nutq so‘zlash va fikrni erkin bayon etish usullari” mavzusida taniqli professional jurnalist va blogerlar ishtirokida davriy ravishda interaktiv seminar-trening o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tadbirlar xodimlarda intervyu berish ko‘nikmasini shakllantirish, kamera oldida o‘zlarini erkin tutish, o‘z fikrlarini qisqa va tushunarli bayon etish mahoratlarini oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bankning ochiq axborot siyosati belgilangan maqsadlariga erishish uchun zarur shartlardan hisoblanadi. Bu moliyaviy munosabatlar ishtirokchilarining amalga oshirayotgan chora-tadbirlar, qarorlarni batafsil tushunishiga, shuningdek, bank xizmatlari iste‘molchilariga asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar bo‘yicha o‘z kutilmalarini boshqarishiga imkoniyat yaratadi, pul-kredit siyosatining iqtisodiy jarayonlarga ta‘siri, xususan, bozor kutilmalarining yanada samarali shakllanishiga yordam beradi.

Markaziy bank faoliyatida axborot ko‘lami va tezkorligining ortishi, shu jumladan, bank tizimidagi axborotlar bilan muntazam tanishib borish jamoatchilikning kengroq va ko‘proq ma’lumot olishga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda.

Bu o‘z navbatida, bank tizimi faoliyatiga doir taqdim etilayotgan materiallar mundarijasini boyitish, yangicha yondashuvlar, yo‘nalishlarni belgilab olishni taqozo etmoqda. Bu borada, bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, asosiy ko‘rsatkichlar tahlili, xususan, kredit muassasalaridagi transformatsiya jarayonlari, xizmatlarni innovatsion shaklda tashkil etish, ya’ni bank ekotizimini ommalashtirishga qaratilgan ixcham tahliliy materiallar taqdim etish rejalashtirilmoqda.

## IV. MILLIY TO'LOV TIZIMINING RIVOJLANISHI, BANK TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, AXBOROT MUHOFAZASI VA KIBERXAVFSIZLIK


### 4.1. Markaziy bankning to'lov tizimlari faoliyati

2023-yilda to'lov tizimlari ishlashining uzluksizligini ta'minlash va infratuzilmasini yaxshilash orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, 2023-yilda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan **1,3 barobarga** oshib, 5 480 trln so'mni tashkil etdi. Tizim orqali bir kunlik o'rtacha tranzaksiyalar hajmi 2022-yildagi 16,6 trln so'mdan **22,1 trln so'mgacha** ko'paydi.

4.1.1-chizma

#### Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotni moliyalashtirish ko'lami, investitsion faollik hamda Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida pul bozoridagi operatsiyalar hajmining ortib borishi bilan izohlanadi.

2023-yilda 3 ta tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berilishi hisobiga Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari soni 36 taga yetdi.

Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi takomillashtirilib, bank amaliyot kuni oxirida vakillik hisobvarag'ida overdraft (*qarzdorlik*) shakllangan banklarning Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring va Tezkor to'lovlar tizimidagi ishtiroki kamchilik bartaraf etilguniga qadar cheklanishiga oid norma bilan to'ldirildi.

Shuningdek, tijorat banklari bo‘linmalarini optimallashtirish hamda ixcham bank xizmatlari markazlarini tashkil etish orqali mijozlarga istalgan bank bo‘linmalari orqali sifatli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi yagona bank kodi (MFO) texnologiyasi asosida faoliyat yurituvchi banklar 2 taga ko‘payib, 9 taga yetdi.

### Hisob-kitoblar kliring tizimi


Jismoniy va yuridik shaxslarning chakana to‘lovlarini real vaqt rejimida o‘tkazishga ixtisoslashgan **Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi** faoliyatining uzluksizligi ta‘minlandi.

Xususan, mazkur tizim orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qiluvchi tashkilotlar ro‘yxatini kengaytirish, mijozlar uchun qulay va sodda to‘lov xizmatlarini joriy etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali to‘lovlarni qabul qiluvchi idora va tashkilotlar (*xizmatlar taqdim etuvchilar*) soni hisobot yilida **48** taga yetdi.

4.1.2-chizma

#### Hisob-kitob kliring tizimi ko‘rsatkichlari



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

2023-yilda Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi **78,0** trln so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **1,3 barobarga**, tranzaksiyalar soni esa **102** mln dan ortiqni tashkil etib, qariyb **1,2 barobarga** oshdi.

To‘lov xizmatlari bozorida yangi to‘lov turlari hamda usullari salmog‘ini oshirish, sog‘lom raqobat va yangi texnologik yechimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida aholi tomonidan to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror talablari asosida Hisob-kitoblar kliring tizimining dasturiy ta'minotiga o'zgartirish kiritilib, kommunal to'lovlar, davlat bojlari va jarimalar, davlat xizmatlari to'lovlari hamda boshqa to'lovlar bo'yicha vositachilik haqini mablag'larni oluvchi tashkilotlar (*benefitsiarlar*)dan undirish mexanizmi joriy etildi.

To'lov xizmati ko'rsatilganligi uchun to'lanadigan vositachilik haqi mablag' oluvchilar hisobidan to'lov summasidan chegirib qolinib, tijorat banklariga o'tkazib berilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, benefitsiari byudjet va korporativ subyektlar bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishda to'lanadigan vositachilik haqi (*yig'imglar*)ning chegaraviy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi etib belgilandi.

Natijada, **aholidan** kommunal, davlat xizmatlari, jarimalar, bojlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirishdagi vositachilik haqi olish amaliyoti bekor qilindi.

2023-yilning may-dekabr oylari davomida jami **50** mln dan ortiq to'lovlar bo'yicha qariyb **85** mlrd so'm mablag' to'lov xizmati uchun vositachilik haqi (*komissiya*) tarzida banklar va boshqa to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarga to'lab berildi.

Mazkur vositachilik haqi bo'yicha to'lovlarning mablag' oluvchilardan undirilishi aholining **85** mlrd so'mga yaqin mablag'ini tejab qolishiga imkon berdi.

### **Tezkor to'lovlar tizimi**

Hisobot yilida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'lov operatsiyalarini tunu-kun "24/7" rejimida onlayn amalga oshirish imkonini beruvchi Markaziy bank **Tezkor to'lovlar tizimining** barqaror va uzluksiz ishlashi ta'minlandi.


2023-yilda mazkur tizim orqali amalga oshirilgan **tranzaksiyalar** soni 2022-yilga nisbatan **1,8 barobarga** oshib **31,4** mln tani, **to'lovlar hajmi** esa qariyb **1,4 barobarga** oshib **603,8** trln so'mni tashkil etdi.

Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar ko'lamining ortib borishi natijasida, hisobot yili yakuniga kelib xo'jalik yurituvchi subyektlar jami to'lov hujjatlarining **92** foizi bankka tashrif buyurmagan holda masofadan amalga oshirilgan.

Bu esa, respublikamizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining masofadan hisobvaraqlarini boshqarish orqali Tezkor to'lov tizimi imkoniyatidan keng ko'lamda foydalanish darajasi oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.



### Tezkor to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida ushbu tizimdan amalga oshirilgan jami tranzaksiyalar sonining **28 foizi kechki/tungi vaqtda** amalga oshirilgan amaliyotlar hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda 17 foizni tashkil etgan.

G‘aznachilik tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlar byudjet to‘lovlarini (*xarajatlarini, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bank ish kuniga bog‘liq bo‘lmagan holda*) 24/7 rejimida, onlayn tartibda Tezkor to‘lovlar tizimi orqali amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

## 4.2. Bank kartalariga asoslangan chakana to‘lov tizimlarining rivojlanishi

2023-yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish borasida bank kartalariga asoslangan chakana to‘lov tizimlari infratuzilmasini va mavjud infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ishlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Milliy to‘lov tizimlari hisoblangan “Humo” va “Uzcard” o‘rtasida bankomatlar tarmog‘ini o‘zaro integratsiya qilish orqali bank kartalari foydalanuvchilari uchun ikkala to‘lov tizimi infratuzilmasidagi bankomatlardan muqobil foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, mazkur ikkala to‘lov tizimlari o‘rtasidagi jarayonlar “host2host” bog‘lanish asosida tashkil etilib, naqd pul yechish bo‘yicha to‘lov operatsiyalari to‘liq amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.


Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko‘lamining oshib borayotganligi, o‘z navbatida, bank kartalariga bo‘lgan talabning ortib borishiga xizmat qilmoqda. Xususan, 2023-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni **46,2 mln donaga** yetib, 2022-yilga nisbatan **35 foizga o‘sdi**.

Aholiga respublika va xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi **kobeyjing** bank kartalari soni 2022-yilga nisbatan **1,7 barobarga** oshib, 3,1 mln donaga yetdi.

2023-yilda 429 mingta to'lov terminallari orqali qabul qilingan to'lovlar hajmi 2022-yilga nisbatan **1,4 barobarga** oshib, **254,7 trln** so'mni tashkil etdi.

4.2.1-chizma

**Bank kartalari soni**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Chakana to'lovlar tizimlarining funksionali va infratuzilmasini kengayib borayotganligi hamda ushbu bozorda raqobat muhitining shakllanayotganligi milliy to'lov tizimlari ishtirokchilari tomonidan terminallar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida ham tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Xususan, 2023-yilda jami terminallar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida Humo terminallari ulushi 2022-yildagi 49 foizdan **59 foizgacha** oshgan bo'lsa, Uzcard terminallari ulushi 51 foizdan **41 foizgacha** qisqargan.

4.2.2-chizma


**Banklar tomonidan o'rnatilgan terminallar soni**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

4.2.3-chizma


**To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar**



To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilariga qulaylik yaratish maqsadida bank infratuzilmalari hamda turizm obyektlariga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni hisobot yilida qariyb **1,3 barobarga** oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga **26,6** mingdan ortiqni tashkil etdi.

4.2.4-chizma

### Bankomat va infokiosklar soni




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2023-yilda jami bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida Humo bankomatlarining ulushi 2022-yildagi 33 foizdan **47 foizgacha** oshgan bo'lsa, Uzcard bankomatlari ulushi 41 foizdan **40 foizgacha** hamda bank protsessingiga ulangan bankomatlar ulushi 26 foizdan **13 foizgacha** qisqargan.

4.2.5-chizma

### Bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni qariyb **1,5 barobarga** oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 44,1 mlnga yetdi. Bunda, ushbu foydalanuvchilarning **1,3 mln tasi tadbirkorlik subyektlari**, 42,8 mln tasi **jismoniy shaxslar** hissasiga to‘g‘ri keladi.

Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi hisobot yilida **250,1 trln so‘mni** tashkil etdi.


Mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan **onlayn depozit operatsiyalari hajmi** – 46,5 trln so‘m, **onlayn konversiya amaliyotlari** – 27,4 trln so‘m, **onlayn mikroqarzarlar** – 13,3 trln so‘m va **kreditlarni so‘ndirish hajmi** – 15,3 trln so‘mni tashkil etdi.

Aholi uchun bazaviy bank xizmatlarini (*omonat va konversiya amaliyotlari, mikroqarz olish, bank kartasiga buyurtma berish, identifikatsiyadan o‘tish*) onlayn rejimda bajarish imkoniyati, **tadbirkorlik subyektlari** uchun esa to‘lovlarni hisob-kitob terminallaridan tashqari QR-kod, NFC va boshqa kontaktsiz to‘lov texnologiyalarini qo‘llagan holda qabul qilish xizmatlari ko‘lami kengaytirib borildi.

Xususan, 2023-yilda “QR-online” axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni qariyb **101,0 ming** donaga yetkazilib, unda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi qariyb **2,5 barobarga** ortib 337 mlrd so‘mga yetdi.

4.2.6-chizma

#### QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shu bilan birga, kontaktsiz to‘lov texnologiyasini kengaytirish doirasida “HUMO PAY” dasturi orqali bank kartasidan bevosita foydalanmasdan savdo hamda pullik xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish xizmati **23** ta tijorat banking mobil ilovalari orqali ko‘rsatib kelinmoqda.

Kontaktsiz to‘lov xizmatlarini rivojlantirish doirasida joriy etilgan **Tap-to-phone** tizimi (*to‘lov terminali kabi to‘lov qabul qilish imkonini beradi*) xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga **3,1** mingdan ortdi.

2023-yilda NFC texnologiyasi asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan **1,5 barobarga** oshgan holda **37,7** trln so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvar holatiga **Face ID** texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari soni **27 taga**, to‘lov tashkilotlari soni esa **15 taga** yetib, banklar va to‘lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar soni 2023-yil 1-yanvarga nisbatan **4,2** mln taga ortgan holda, hisobot yili yakuniga kelib **6,8** mln taga yetdi.


Mazkur o‘svuchi tendensiya mijozlarga, nafaqat to‘lovlarni onlayn rejimida bankka bormasdan turib amalga oshirish, balki bank hisobvaraqlarini ham masofadan identifikatsiya qilish tizimi (*Face ID*) orqali ochish imkoniyatlarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

### 4.3. To‘lov xizmatlari bozorida fintex kompaniyalari faoliyati

Hisobot yilida to‘lov xizmatlari bozorida raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida Markaziy bank tomonidan to‘lov tashkilotlariga litsenziyalarning berilishi davom ettirildi va to‘lov tashkilotlari soni **49** taga yetdi.

4.3.1-chizma

#### To‘lov tashkilotlari tomonidan 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bu esa, aholiga to'lov xizmatlari ko'rsatishda nafaqat tijorat banklari, balki to'lov tashkilotlarining xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

2023-yilda to'lov tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2022-yilga nisbatan **1,6 barobarga** ortib 183 trln so'mni tashkil qildi.


Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan to'lov tashkilotlarining xizmatlaridan foydalangan holda mobil operatorlar xizmatlari uchun – 9,8 trln so'm, davlat xizmatlari uchun – 8,2 trln so'm, kommunal xizmatlar uchun – 7,9 trln so'm, kredit to'lovlari uchun – 6,5 trln so'm, byudjet va soliq to'lovlari uchun – 1,4 trln so'm mablag' o'tkazilgan.

To'lov xizmatlari bozorida elektron pullar tizimlarining joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning yanada rivojlanishi va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilmoqda.

2024-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankning elektron pullar tizimlari reyestriga 13 ta elektron pullar tizimlari kiritilgan bo'lib, mazkur tizimlarda ochilgan elektron hamyonlar soni hisobot yilida 8,4 mln tadan 15,6 mln tagacha oshdi.

4.3.2-chizma

**2023-yilda to'lov tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan to'lovlar maqsadlari bo'yicha tarkibi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, hisobot yilida elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2022-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib 16,6 mln tani, tranzaksiyalar hajmi esa 4,5 barobarga ko‘payib, 1,2 trln so‘mni tashkil etdi. Elektron pullardan foydalanish darajasining tobora oshib borishi iste‘molchilar tomonidan mazkur to‘lov vositasining onlayn xaridlarda foydalanish imkoniyati mavjudligi, shu jumladan, marketpleyslarda to‘lovlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratilayotganligi bilan izohlash mumkin.


Elektron hamyon egalari tomonidan o‘tkazilgan tranzaksiyalarning 92 foizi tadbirkorlik subyektlariga tovarga (*xizmat, ishlar*) to‘lovni amalga oshirish uchun hamda 8 foizi jismoniy shaxslarga mablag‘ o‘tkazishga yo‘naltirilgan.

Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarning 59 foizi onlayn tovar va xizmatlar xaridi, 17 foizi ijtimoiy tarmoqlardagi to‘lovlar, 7 foizi mobil operator xizmatlari, 4 foizi kommunal xizmatlar, 2 foizi joyida xaridlar uchun to‘lovlar, 1 foizi davlat xizmatlari uchun to‘lovlar, 1 foizi xorijiy elektron hamyonlarni to‘ldirish va 6 foizi boshqa xizmatlar uchun o‘tkazilgan to‘lovlarni tashkil etadi.

Hisobot yilida to‘lov tashkilotlarining maxsus huquqiy rejim doirasida yangi to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ham muayyan ishlar olib borilmoqda.

4.3.3-chizma

### 2021-2023-yillarda elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

Aholi tomonidan to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarida xaridlar bilan bir vaqtda bank kartalari egalariга naqd pul berish xizmati bo‘yicha vaqtinchalik tartib ishlab chiqildi.

Mazkur xizmat turini dastlabki bosqichda virtual kassa tarmog'i bilan ta'minlangan "Uzpaynet" MChJning barcha hududlardagi to'lov agentlari tomonidan naqd pul berish xizmati ko'rsatilishiga ruxsat berilib, uning amal qilish muddati 2024-yilning 1-iyuniga qadar uzaytirildi.

2023-yilning iyun-noyabr oylari mobaynida "Uzpaynet" MChJ to'lov tashkiloti "tartibga solish qumdoni" doirasida Toshkent shahridagi to'lov agentlari orqali 146 ta xizmat ko'rsatish nuqtasida 3 mlrd so'mlik (11 381 ta tranzaksiya) naqd pul mablag'larini berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatildi.

Bunda, to'lov agentlari orqali berilgan naqd pullar bo'yicha yuzaga keladigan xatarlarni muntazam tahlil qilib borish va har oylik natijalari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar asosida respublikada virtual kassa bilan qamrab olingan savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida Markaziy bank tomonidan belgilanadigan cheklangan limit va kunlik naqd pul tushumlari doirasida naqd pul berish xizmatini ko'rsatish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi mo'ljallanmoqda.

#### 4.4. To'lov tizimlari va tijorat banklari axborot tizimlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash

Hisobot yilida, banklar va to'lov tashkilotlari axborot tizimlari va resurslari kiberxavfsizligi ta'minlanganlik darajasi maxsus dasturlar yordamida o'rganib borildi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha Markaziy bank tomonidan monitoring tizimlarini yaratish hamda Markaziy bankning monitoring tizimiga integrasiyalash, bankomatlarning xavfsizligini ta'minlash, axborot tizimlari va mobil ilovalarni ekspertizadan o'tkazish hamda antifrod tizimlarini joriy etish yuzasidan qariyb **50 ta texnik** talablarni bajarishi belgilandi.

To'lov tizimi operatorlari, kredit va to'lov tashkilotlari tomonidan kiberxavfsizlik hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Markaziy bankning "CERT-CBU" kiberxavfsizlik markaziga tezkorlik bilan xabardor qilish bo'yicha markazning rasmiy saytida ma'lumot berish imkoniyati yaratilib, tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan ularning nomi va rasmiy logotiplaridan foydalangan holda yasalgan soxta havolalar to'g'risida ma'lumotlar kiritib borilishi yo'lga qo'yildi.

2023-yilda Markaziy bankka huquqni muhofaza qiluvchi organlardan bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlari yuzasidan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni qonunchilikka muvofiq sanksiya asosida olish bo'yicha 917 ta hujjat kelib tushdi.



Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlari bo'yicha aholi orasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish maqsadida to'lov xizmatlari iste'molchilarini ogohlikka chaqiruvchi 6 ta matnli axborotlar, firibgarlardan ogohlikka undovchi 3 ta video materiallar tayyorlanib, OAV hamda Markaziy bankning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallari orqali muntazam ravishda e'lon qilinib borilmoqda.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari, shuningdek ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda firibgarlik holatlarida ishtirok etgan bank kartalarini bloklash hamda mazkur bank kartalaridagi pul mablag'larini mobil ilovalar orqali xorijiy hisobraqamlarga o'tkazishni oldini olish bo'yicha choralar ko'rib borildi.

Bunda, bank kartalari bilan bog'liq frod operatsiyalarni oldini olish maqsadida mobil ilovalar orqali pul mablag'larini o'tkazishda mijozlarni biometrik identifikatsiyadan o'tkazish, pul o'tkazmalarini tasdiqlash va mobil akkauntlaridan foydalanishda qo'shimcha xavfsizlik talablari joriy etildi.

O'z navbatida, tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan o'zlarining mobil ilovalaridan foydalanishda mijozlar uchun bank kartalari ma'lumotlarini, ulardan foydalanish huquqini beradigan bir martalik tasdiqlash OTP kodlarini hech kimga oshkor etmaslik to'g'risidagi ogohlantirishlar, mobil ilovalardan xavfsiz foydalanish to'g'risidagi axborotlarni berib borilishi hamda mobil ilovalardan foydalanishda **ko'p faktorli autentifikatsiya metodlarini** qo'llash yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, raqamli mahsulotlar (*xizmatlar*) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari doirasida to'lov tizimi operatorlarida **tranzaksion antifrod tizimidan** hamda banklar va to'lov tashkilotlarida **session antifrod tizimlaridan** foydalanish uchun Markaziy bankda **markazlashgan antifrod** hamda zamonaviy biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etish ishlari boshlandi.

2023-yilda tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining faoliyatida kibertahdidlarni aniqlash, ularning yangi turlariga qarshi kurashish va oldini olish, shuningdek bu borada tajriba almashish maqsadida tegishli vazirlik va idoralar hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash yo'nalishidagi yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Mazkur hamkorliklar doirasida, tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik yo'nalishidagi mas'ul xodimlari ishtirokida forum va o'quv-seminarlari tashkil etilib, unda tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining 200 nafardan ziyod mas'ul xodimlari malakasi oshirildi.

#### 4.5. Markaziy bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish

2023-yilda Markaziy bankning raqamli texnologiyalar infratuzilmalarini va moddiy-texnik bazani takomillashtirish, jumladan, yangi axborot tizimlari va resurslarini joriy etish, mavjudlarini uzluksiz va barqaror ishlashini ta‘minlash, davlat organlari va tashkilotlari hamda bank tizimi axborot tizimlarining integratsiyalashuvini kengaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Markaziy bank va Bojxona qo‘mitasi o‘rtasida bojxona deklaratsiyasi bo‘yicha axborot ma‘lumotlari almashinuvi uchun yagona axborot makonini tashkil etish, tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun amalga oshirilgan valyuta oldi-sotdi operatsiyalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisobini yuritishga mo‘ljallangan valyuta operatsiyalari hisobini yuritish (*FERUZ*) tizimini takomillashtirish bo‘yicha texnik-loyiha hujjatlari ishlab chiqildi.

Tijorat banklari bo‘linmalari o‘rtasida naqd pullar va vakillik hisobvarag‘i hisobini yuritishda qulayliklar yaratish, naqd pullar va vakillik hisobvarag‘ining almashinuvini tezlashtirish, barcha tijorat banklari bo‘linmalariga teng huquqlar va shartlar asosida ishtirokini ta‘minlash imkoniyatini beruvchi naqd pullarning elektron maydoni axborot tizimlari loyihalashtirilib, texnik-loyiha hujjatlari ishlab chiqildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga joylashtirishni inson omilisiz amalga oshirish imkoniyatini yaratish maqsadida “G‘azna-resurs” tizimini Markaziy bank tizimi bilan integratsiyasi amalga oshirildi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti axborot tizimi bilan Markaziy bankning axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi kengaytirildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq va Bojxona qo‘mitalari, Bosh Prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zsuvta‘minot” bilan “BankMail” tizimi orqali elektron to‘lov hujjatlarini ijroga qo‘yish bo‘yicha tijorat banklari bilan ma‘lumot almashinuvi ishlari takomillashtirildi.

Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring (*MUNIS*) tizimida yangi xizmatlar taqdim etuvchi sifatida “Veolia Energy Tashkent” MChJ XKning issiqlik bilan ta‘minlash xizmatlari uchun to‘lov turlari va “Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” xizmatlar yetkazib beruvchining “Kontrakt to‘lovi”, “Yotoqxona uchun to‘lov”, “Kredit moduliga to‘lov”, “Diplomni qayta tiklash uchun to‘lov” va boshqa to‘lov turlari joriy etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy veb-saytini uzluksiz ishlashini ta‘minlash, sayt dizayni va tuzilmasini takomillashtirish hamda ma‘lumotlarni bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechtasini (*yoki hammasini*) vizual (*grafiklar*) ko‘rinishda olish imkoniyatlari kengaytirib borilmoqda.

Aholi va tadbirkorlik subyektlari hamda xorijiy investorlarga ma‘lumotlarni to‘laqonli va sifatli yetkazish maqsadida, “Ochiq ma‘lumotlar portaliga”ga joylashtiriladigan ma‘lumotlar soni 60 taga yetkazildi.

Bundan tashqari, Markaziy bank tizimida samarali va yuqori texnologik nazorat tizimini (*SupTech*) joriy etish maqsadida jahon moliya bozorlarida mavjud yuqori texnologik yechimlar, markaziy banklar (*regulyatorlar*) tomonidan qo‘llanilgan zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari o‘rganildi.

Xususan, xalqaro konsalting kompaniya va vendorlar Bearing Point Software Solutions (*Niderlandiya*), Oracle (*AQSh*), CoreFiling (*Buyuk Britaniya*), Invoke (*Fransiya*), Finastra (*Buyuk Britaniya*), DIS GROUP (*Rossiya*), ADAstra (*Chexiya*) bilan hamkorlik muzokaralari olib borildi va ularning taqdimotlari ko‘rib chiqildi.

SupTech loyihalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar doirasida tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobot va ma‘lumotlarni avtomatlashtirilgan holda shakllantirish hamda banklar faoliyatini masofadan turib nazorat qilish maqsadida hisobotlar va elektron talabnomalarni o‘rganish amaliyotini joriy etish boshlandi.

Ma‘lumotlarni taqdim etish uchun 140 dan ortiq elektron talabnomalar ishlab chiqilib, ularga asosan ma‘lumot yetkazib beruvchilar ma‘lumotlari **avtomatik tarzda** Markaziy bank axborot tizimiga uzatish imkoniyatlari yaratildi.

Markaziy bank mutaxassislari “Bank tizimining ma‘lumotlar omborxonasi” axborot tizimi orqali Oracle Discoverer biznes tahliliy platformasi yordamida ma‘lumotlarni tahlil etish, jadvallar va hisobotlarni, shu bilan birga, tizim tomonidan avtomatik shakllantirilgan va elektron hujjat aylanishi tizimi orqali 3 200 dan ortiq (*banklar va hududlar kesimida*) hisobotlardan foydalanmoqda.

Nazorat hisobotlarini avtomatlashtirish (*ADR*) loyihasining birinchi bosqichini amalga oshirish maqsadida konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi “KPMG Audit” tashkiloti bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur hamkorlik doirasida Markaziy bankda amalda bo‘lgan axborot tizimlari va ma‘lumotlar hamda ularga doir me‘yoriy-huquqiy baza tahlil qilinib, ma‘lumotlarni boshqarish tizimi va modeli, transformatsiya rejasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

## V. PUL MUOMALASINI TASHKIL ETISH

2023-yilda pul muomalasi tizimi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, shu jumladan, pul-kredit siyosati hamda bank-moliya infratuzilmalaridagi o'zgarishlar ta'sirida shakllandi.

2023-yilda naqd pulga talabning mavsumiy omillar ta'sirida o'zgarib borishi kuzatilib, asosiy e'tibor, naqd pulga bo'lgan ehtiyojni uzluksiz ta'minlashga, hisob-kitoblarda, aholi va tadbirkorlik subyektlariga naqd pul bilan bog'liq xizmatlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratildi.

Shuningdek, hisobot yilida naqd pul muomalasini tartibga solish va naqd pul harakatini boshqarish uslublarini liberallashtirish, naqd pullarning logistikasi bilan bog'liq jarayonlarni yanada qulaylashtirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi olib borilayotgan ishlar davom ettirildi.

### 5.1. Naqd pul aylanmasi va uning o'zgarish dinamikasi


2023-yilda bank kassalaridagi naqd pul oqimlari va chiqimlari dinamikasida keskin o'zgarishlar kuzatilmasdan o'zining doimiy trendi doirasida shakllandi.

Xususan, naqd pullarning banklar orqali aylanmasi 2023-yilda 831,4 trln so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshdi hamda bank kassalariga kelib tushgan naqd pullar hajmi 2022-yilga nisbatan 20,4 foizga ortib, 413,9 trln so'mni tashkil qildi.

Bank kassalariga tovarlar sotishdan tushgan naqd pullar hajmi 16,8 foizga, pullik xizmat ko'rsatish sohasidan tushumlar 50,5 foizga, bank xizmatlari (*aholi tomonidan bank omonatlariga qo'yilmalar, kredit to'lovi, naqd valyuta sotib olish va konversiya operatsiyalari*) bo'yicha tushumlar 20,5 foizga, soliqlar va boshqa sohalardan tushumlar 14,6 foizga ko'paydi.

5.1.1-chizma

Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Bank kassalariga tushgan jami naqd pul tushumlarining manbalar bo'yicha tarkibida tovarlarni sotishdan tushum 38,0 foizni, pullik xizmat ko'rsatish sohasidan tushum – 10 foizni, bank xizmatlari bo'yicha tushum – 33 foizni, soliqlar va boshqa sohalardan tushumlar – 18 foizni tashkil etdi.

Bank kassalariga naqd pul tushumlari hajmining yalpi ichki mahsulotga nisbat ko'rsatkichida o'tgan yillarga qaraganda o'sish kuzatildi. Ushbu nisbat 2022-yilda 38,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilida 38,8 foizga yetdi.

2023-yilda naqd pullarning bank orqali aylanmalarida aholi va xo'jalik subyektlariga berib borilgan naqd pullar hajmi 2022-yilga nisbatan 17,1 foizga oshib, 417,5 trln so'mni tashkil etdi.

5.1.2-chizma

### Naqd pullarning taqsimlanish yo'nalishlari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida naqd pulga bo'lgan talabning o'tgan yilga nisbatan 61,6 trln so'mga oshishi asosan:

– aholining bank kartalariga tushgan (*kirim qilingan*) mablag'lar hajmining 42,6 foizga oshganligi kartalardagi mablag'larni naqdlashtirish hajmining 39,8 trln so'mga;

– mamlakatga xorijiy pul o'tkazmalari hajmining yuqori darajada saqlanib qolishi evaziga banklar tomonidan aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish hajmining 10,7 trln so'mga;

– omonat hisobraqamlaridan olingan naqd pullar hajmining 11,1 trln so'mga ko'payganligi bilan izohlanadi.

2023-yilda bankomatlar orqali yechilgan naqd pullar hajmi 2022-yilga nisbatan 37,0 trln so'mga (*31,6 foiz*) ko'payib, bevosita bankomatlar orqali olingan pullar ulushi 2022-yildagi 78,4 foizdan 81,5 foizgacha yetdi.


Ushbu holat bankomatlar tarmog'ining kengayib borayotganligi, xususan, "Humo" va "Uzcard" o'rtasida bankomatlar tarmog'ini o'zaro integratsiya qilinishi hamda ularni naqd pul bilan uzluksiz ta'minlanib borilayotganligi bilan izohlanadi.

## 5.2. Muomaladagi naqd pullar va ularning tarkibiy o'zgarishi

2023-yilda tijorat banklari orqali muomaladagi naqd pullarning tarkibini yangilab borish, muomalaga banknotlar va tangalar chiqarish, ularni zarur nominallari bo'yicha optimal zaxirasini ta'minlash, eskirgan pullarni yo'q qilish ishlari davom ettirildi.

5.2.1-chizma

### 2023-yil davomida muomalaga chiqarilgan naqd pullar hajmining o'zgarishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Muomaladagi naqd pullar hajmi (*tijorat banklari kassalaridagi naqd pullar goldig'i hisobga olingan holda*) 2023-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 6,1 trln so'mga yoki 11,1 foizga ko'payib, uning yillik o'sish sur'ati 2022-yil (*49,1 foiz*) va 2021-yilga (*17,1 foiz*) nisbatan sekinlashdi.

Hisobot yilida muomalaga chiqarilgan naqd pullar qatorini optimallashtirish doirasida 1 000 so'mlik, 5 000 so'mlik, 10 000 so'mlik, 50 000 so'mlik banknotlarning jami 3,1 trln so'mga kamayishi hamda 2 000 so'mlik, 20 000 so'mlik, 100 000 so'mlik va 200 000 so'mlik banknotlarning jami 9,2 trln so'mga ortishi kuzatildi.

Shuningdek, muomaladagi tangalar hajmi 2,1 barobarga oshib, ularning jami muomalaga chiqarilgan pul belgilari tarkibidagi ulushi 0,3 foizga yetdi.

**Muomalaga chiqarilgan pul belgilari (banknotlar va tangalar)ning  
nominal qiymatlari bo'yicha ulushi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2021-yilgacha muomalaga chiqarilgan va bank kassalariga kiritilgan banknotlarni yangi namunadagi 5 000, 10 000, 50 000 va 100 000 so'mlik banknotlar bilan bosqichma-bosqich almashtirish orqali muomaladagi naqd pullarni yangilab borish choralari davom ettirildi.

2023-yil yakunida yangi namunadagi 5 000 so'mlik banknotlar ushbu nominaldagi banknotlarning – 33,2 foizini, 10 000 so'mlik banknotlarda – 36 foizni, 50 000 so'mlik banknotlarda – 39,4 foizni hamda 100 000 so'm banknotlarda – 61,2 foizni tashkil qildi.

2024-yil 1-yanvar holatiga yangi ko'rinishdagi (2021-2022-yillar namunasi) banknotlar sonining (2 000, 20 000, 200 000 so'mlik banknotlar bilan birga) muomaladagi jami banknotlar sonidagi ulushi 2022-yildagi 20,8 foizdan 45,6 foizga (miqdor bo'yicha ulushi esa 44,9 foizdan 62,1 foizga) yetdi.

Muomaladagi naqd pullar tarkibida asosan yangi namunadagi va yangi nominaldagi yirik banknotlar salmog'ining oshishi hisobiga muomaladagi banknotlar soni 2023-yil boshiga nisbatan 54,0 mln donaga yoki 2,6 foizga kamayib, bir kishiga to'g'ri keladigan banknotlar soni 55 tani tashkil qildi.

Shu bilan birga, qaytim pullari sifatida muomalada tangalar harakatini faollashtirish maqsadida qo'shimcha 88,7 mlrd so'm miqdorida tangalar muomalaga chiqarildi va uning hajmi 2022-yilga nisbatan 2,1 barobarga oshib, 167,2 mlrd so'mga yetdi.



Pul muomalasini tartibga solish va naqd pul oqimini boshqarishga bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalarni, yangi va maqbul mexanizmlarni joriy etib borish, naqd pullarni qayta taqsimlash (*harakati*) jarayonlarini erkinlashtirish va yengillashtirish choralari ko‘rib borilmoqda.

Tijorat banklari o‘rtasida naqd pulga bo‘lgan talab va taklif bo‘yicha real vaqt rejimida o‘zaro axborot almashinuv imkoniyatini beruvchi “Naqd pullarning elektron maydoni” axborot tizimi joriy etildi.

Mazkur mexanizm tijorat banklari filiallari o‘rtasida naqd pullar harakati bilan bog‘liq jarayonlarni yanada yengillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, naqd pullarni tashish va milliy valyutadagi naqd likvidli aktivlarni naqdsiz shakldagi likvidlikka almashtirish jarayonlarini tezlashtirish imkonini bermoqda.

Bunda, tijorat banklari bo‘linmalaridagi naqd pullarni o‘zaro yetkazilishi (*harakati*)da Markaziy bank ishtirok etmasdan, tijorat banklari filiallari o‘zlaridagi naqd pullarni inkassatsiya xizmati orqali o‘zaro logistikasi yo‘lga qo‘yildi.


### 5.3. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar

To‘lov tizimlari infratuzilmasining kengayib borishi va foydalanuvchilar tomonidan naqd pulsiz to‘lovlarning afzal ko‘rilayotganligi jismoniy shaxslarning bank kartalari orqali operatsiyalari hajmining oshishida namoyon bo‘lib, ushbu operatsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan **470,8** trln so‘mga yoki 42,7 foizga oshib, **1 574,2** trln so‘mni tashkil etdi.

Bunda, bank kartalariga kelib tushgan mablag‘lar miqdori 789,5 trln so‘mni, bank kartalaridan amalga oshirilgan to‘lovlar miqdori (*naqdlashtirish bilan birga*) **784,7** trln so‘mni tashkil etdi.

5.3.1-chizma

#### Bank kartalari orqali aylanmalar dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari




Hisobot yilida bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar tarkibida pensiya, nafaqa, stipendiya va ish haqi to'lovlari uchun o'tkazilgan mablag'lar ulushi 29,2 foizni, naqd pul hisobiga bank kartasiga kirim qilingan va omonat hisobvaraqlaridan kelib tushgan mablag'lar – 20,4 foizni, masofaviy o'tkazmalar (P2P) orqali tushgan mablag'lar – 35,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz to'lovlarning jami tovar va xizmatlar uchun to'lovlar hamda pul o'tkazmalaridagi ulushi 2022-yildagi 73 foizdan 76 foizgacha oshdi.

5.3.2-chizma

### 2023-yilda bank kartalariga kelib tushgan mablag'larning manbalari bo'yicha ulushi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar hajmining oshishi savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblarni to'lov terminallari orqali amalga oshirish hajmlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

5.3.3-chizma

### Bank kartalaridan chiqim qilingan mablag'lar hajmi (chiqim turi bo'yicha)



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xususan, savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha terminal tushumlarining umumiy tushumdagi ulushi 2022-yilga nisbatan 2,7 foiz bandga oshib, 39,9 foizni tashkil etdi.

## VI. MOLİYAVIY XIZMATLAR OMMABOPLIGINI OSHIRISH VA BANK XIZMATLARI ISTE'MOLCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BORASIDAGI FAOLIYAT

### 6.1. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish

2023-yilda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, banklar tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlarini aholining barcha qatlamlariga yetkazish maqsadida ixcham va bankning barcha xizmatlarini ko'rsatuvchi ofislar tarmog'ini kengaytirish ishlari davom ettirildi.

Ushbu maqsadlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida bank xizmatlari ko'rsatish nuqtalari soni o'tgan yilga nisbatan **539 ta**ga ko'payib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga **13 761 ta**ga yetkazildi.

Xususan, 2023-yilda banklar tomonidan mamalakat hududlari bo'ylab qo'shimcha **286 ta** bank xizmatlari ko'rsatish markazlari tashkil qilinib, ularning **88 tasi** bank xizmatlari ko'rsatish markazlari bilan oldin qamrab olinmagan hududlarda faoliyatini boshladi.

Aholi tomonidan bank xizmatlaridan tun-u kun foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida 2023-yilda banklar tomonidan **749 ta** 24/7 tartibida ishlovchi o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilib, ularning soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **25 foizga** oshib, **3 723 tani** tashkil qildi.

Aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi **har yuz mingta katta yoshli aholiga** to'g'ri keluvchi bank xizmatlari ko'rsatish nuqtalari soni ko'rsatkichi o'rtacha **56 ta**ga yetib, yil boshiga nisbatan 2 bandga ko'paydi.

Bunda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (*177 ta*) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Andijon (*32 ta*), Surxondaryo (*36 ta*) hamda Qashqadaryo (*37 ta*) viloyatlarida kuzatilgan.

2023-yilda Markaziy bank tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasida belgilangan vazifalar yakunlandi.

Mazkur strategiya doirasida **5 ta yo'nalish** – bazaviy moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni kengaytirish, moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlari himoyasini kuchaytirish hamda aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan **51 ta** tegishli tadbirlar amalga oshirilib, belgilangan **22 ta** maqsadli ko'rsatkichga erishildi.

Xususan, **so'ngi uch yil** ichida eng kamida bitta bank xizmatlari ko'rsatish nuqtasiga ega katta yoshli aholisi 5 ming kishidan ortiq bo'lgan ma'muriy hududiy birliklar ulushi **58 foizdan 85 foizga** (*maqsad – 70 foiz*), bankomatlar soni **6,5 mingtadan 13,6 mingtaga** (*maqsad – 9 ming*), muomaladagi faol bank kartalari soni **25,8 mln tadan 46,2 mln taga** (*maqsad – 30 mln*), elektron hamyonlar soni 1,5 mln tadan 15,6 mln taga (*maqsad – 3 mln*), bankdan kredit olgan yoki kredit liniyasiga ega bo'lgan katta yoshli aholi ulushi **13 foizdan 21 foizga** (*maqsad – 15 foiz*), xalqaro ta'lim tadbirlari doirasida qamrab olingan aholi soni **20 ming nafardan 191 ming nafarga** (*maqsad – 40 ming nafar*) ko'paydi.

Hisobot yilida bank xizmatlarini boshqa muqobil yo'llar (*kanallar*) orqali ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham davom ettirildi.

Jumladan, mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, aholining keng qatlamlari orasida tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan depozit jalb qilish imkoniyatini yaratish, mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasidagi "zanjir"ni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori qabul qilindi.

## 6.2. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish

Hisobot yilida moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida to'plangan tajriba asosida raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda chekka hududlardagi aholiga moliyaviy bilimlarni yetkazish, ta'lim muassasalarida moliyaviy bilim va ko'nikmalar kanallarini takomillashtirish hamda bu boradagi loyihalarni yangicha yondashuvlar asosida joriy etish ishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Loyihalar doirasida aholida jamg'arish kayfiyatini oshirish, mas'uliyatli qarz olish munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, raqamli moliyaviy savodxonlikni yaxshilash yo'nalishlari bilan bir qatorda shaxsiy moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, tadbirkorlikni boshlash va yo'lga qo'yish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish choralari ko'rildi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha **21 ta loyiha** doirasida **90 dan ortiq ta'lim tadbirlarida 508 ming nafardan ortiq aholi** ishtirok etdi va bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **1,3 barobarga** oshdi.

Hisobot yilida viloyat markazlaridan yiroqda joylashgan, xususan, 4-5-toifaga kiruvchi tuman aholisiga moliyaviy bilimlarni yetkazish loyihalariga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, **xotin-qizlar, yoshlar, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining** moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasining **127 ta** tumanida **154 ta** seminar-treninglar o'tkazilib, ularda jami **16 317** nafar aholi ishtirok etdi.

Xalqaro ta'lim tadbirlarini o'tkazishda **21 ta** bank va **14 ta** sug'urta kompaniyalari bilan birgalikda tizimli ishlar olib borildi:

“Butunjahon pul haftaligi” va “Butunjahon jamg'arish kuni” xalqaro ta'lim tadbirlari doirasida o'tkazilgan **10 ta** tadbirning umumiy qamrovi **214 869** nafar aholini, shundan **25 866** nafari maktab o'quvchilarini tashkil etib, ularga moliyaviy matematika, jamg'arish madaniyati va shaxsiy moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash qoidalari o'rgatildi.

Maktab o'quvchilariga boshlang'ich moliyaviy bilimlarini va ularda bazaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida **17 ta** bank tomonidan respublikaning barcha hududlari bo'ylab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida **195** ming nafardan ortiq 5-11 sinf o'quvchilari uchun **5 871 ta** ochiq darslar tashkil etildi.

Yoshlarda mas'uliyatli qarz olish, moliyaviy firibgarlik va piramidalarga aldanib qolmaslik, pullarni xavfsiz ko'paytirish vositalari va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan mahorat darslarida respublika bo'yicha **2 471** nafar ishtirokchilar qamrab olindi.

Mavjud va potensial mijozlarga bankning maxsus kutib olish joylarida (*resepshn*) mahsulot va xizmatlar to'g'risida ma'lumot berilayotgan bir vaqtda moliyaviy savodxonlik bo'yicha konsultativ ma'lumotlarni yetkazish maqsadida **13 ta** bankning **186** nafar mutaxassislar malakasi **trenerlik darajasi** bo'yicha oshirilib, ular tomonidan hududlarda aholiga moliyaviy maslahatlar beruvchi jami **329** nafar trener-konsultantlar tayyorlandi. Loyiha doirasida **30 389** nafar aholiga moliyaviy maslahatlar berildi.

Manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda **an'anaviy va nostandart shaklda o'qitish** texnologiyalarini qo'llagan holda aholining raqamli moliyaviy savodxonlikni o'rganishga bo'lgan imkoniyatlari kengaytirildi.

Xususan, **IT parkning** “Kompyuter savodxonligi” bepul o'quv kursiga “Raqamli moliyaviy savodxonlik” o'quv moduli kiritildi. IT parkning 14 ta IT markazlari orqali o'quv modulida **2 224** nafar tinglovchilar o'z bilimini oshirdi. Loyiha ToT (*Training of trainers*) texnikasi asosida an'anaviy o'qitish tashkil qilindi.

Shuningdek, **VISA xalqaro kompaniyasi** bilan “edutainment” texnologiyasidan foydalanib ishlab chiqilgan “Moliya dunyosi” (<https://financeworld.uz>) platformasi orqali foydalanuvchi masofaviy tarzda bank va uning xizmatlari to‘g‘risida tushunchalar, xarajatlarni boshqarish, jamg‘arish madaniyati va tadbirkorlik asoslarini o‘rganish imkoniyatlari qaratildi.

**Ta’lim muassasalarida** tahsil oluvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida bilimlarni yetkazish va ko‘nikmalarni shakllantirishning ratsional instrumentlari tanlandi va alohida yondashuv bilan loyihalar amalga oshirildi. Xususan,

“Kundalik” MChJ bilan tuzilgan hamkorlik memorandumini doirasida 5-11-sinf o‘quvchilarining maktab fanlariga integratsiya qilingan “Maktablarda moliyaviy savodxonlik” o‘quv dasturini **“eMaktab” platformasida** joylashtirilishi boshlandi. Shuningdek, o‘quvchilarning moliyaviy savodxonlik bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazish va o‘qituvchilar malakasini oshirish rejalashtirilgan;

**noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida** moliyaviy ta’limni rivojlantirish maqsadida “Moliyaviy savodxonlik asoslari” o‘quv qo‘llanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining tavsiyasi bilan 22 ta noiqtisodiy oliy o‘quv yurtlariga maxsus kurs yoki dars sifatida kiritish uchun taqdim etildi;

shuningdek, noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari talabalarining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarining **190** nafar talabalarini volontyor-trenerlar sifatida tayyorlandi va ular tomonidan o‘tkazilgan **88 ta** seminar-treninglarda **8 057** nafar talabalar ishtirok etdi. Loyihada ishtirok etgan talaba-volontyorlarni mukofotlash mexanizmi tadbirlarini sifatli o‘tkazilishida o‘ziga xos motivatsiya bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy media (*Finlit.uz veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar sahifalari*)da aholida to‘g‘ri moliyaviy xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha kreativ shakldagi keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari orqali qamrov qariyb 3,5 mln taga, ommaviy axborot vositalari, xususan, Darakchi gazetasida maqolalar, Avtoradio, Oriatdono, Vodiy Sadosi hamda 8 ta hududiy radio kanallarida ta’lim loyihalari va radioviktorina, MY5 va Uzreport telekanalining tonggi dasturlari davomida moliyaviy savodxonlik rukni orqali qamrov deyarli 4,4 mlnga yetkazildi.

### **6.3. Bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish**

2023-yilda Bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tomonidan iste‘molchilarning bank xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha amaliyotda duch kelayotgan hamda Markaziy bankka kelib tushayotgan murojaatlarda ko‘p marotaba ko‘tarilayotgan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida sohadagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilib borildi.

Xususan, kredit qarzdorligini o'z vaqtida to'liq to'lay olmagan qarzdorlarning qarz yuklamasini oshishini oldini olish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining kreditlarni qaytarish qobiliyati yaxshilanishini ta'minlash maqsadida:

– qarzdorlarning kreditlar bo'yicha amalga oshirgan to'lovlari majburiyatlarni qoplashga yetarli bo'lmaganda, to'lovlarni, birinchi navbatda, asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va foiz to'lovlariga yo'naltirish tartibi belgilandi;

– kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish haqida sud qarori chiqarilganda, foizlar va neustoyka hisoblash to'xtatilishini nazarda tutuvchi Fuqarolik kodeksiga qo'shimchalar kiritish yuzasidan Qonun loyihasi tayyorlandi;

– garovga qo'yayotgan yoki kafil bo'layotgan uchinchi shaxslarning kredit, garov yoki kafillik shartnomasi bo'yicha kelgusida duch kelishi mumkin bo'lgan **xatarlar to'g'risida** bank xodimlari tomonidan tushuntirish berilishi lozimligi belgilandi;

– banklar tomonidan iste'molchilarga **subordinar qarzni omonat yoki omonatga tenglashtirilgan qarz sifatida** taklif etilishi **taqiqlandi**.

Bank xodimlari tomonidan fuqarolardan muddati o'tgan kredit qarzdorligini undirish jarayonida "insofsiz amaliyotlar" qo'llanilishini cheklash hamda kredit to'lovlari to'lanmasligi oqibatlari to'g'risida noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar berilishini oldini olish borasida xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganib chiqilib, jismoniy shaxslarning muddati o'tgan qarzdorliklarini undirishda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Nazorat vazifalarini amalga oshirish doirasida hisobot yilida tijorat banklarining barcha hududlardagi **432 ta** muassasasida kredit va omonatlar shartlari to'g'risidagi axborotlarni iste'molchilarga to'g'ri va to'liq oshkor etilishi hamda bank kartalari orqali amalga oshirilayotgan amaliyotlarda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishi yuzasidan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan **16 ta** tijorat bankiga nisbatan jami **542,0** mln so'm jarima chorasi qo'llanildi.

O'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida iste'molchilarga kredit va depozit mahsulotlari shartlari bo'yicha to'liq ma'lumot berish tizimi joriy etildi hamda bank muassasalarida bank kartalari bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish borasidagi qoidabuzarliklar soni 2022-yilga nisbatan kamaydi.



Shuningdek, kredit tashkilotlarida bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishi bo'yicha tematik o'rganish o'tkazilgan bo'lib, o'tkazilgan tematik o'rganish natijalariga asosan **6 251 ta** holatda qonunchilik va shartnomaga zid ravishda mijozlardan undirilgan jami **8,6** mlrd so'mlik bank komissiyalarini qaytarilishi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatildi.

Hisobot yili davomida moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari buzilishiga doir **1 552 ta** murojaat ko'rib chiqildi. Murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni o'rganish jarayonida huquqlari va qonuniy manfaatlari tiklanishiga ko'maklashilgan **112** nafar iste'molchilarga jami **17,1** mlrd so'm miqdorda moliyaviy naf keltirildi.

Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishida ilg'or va samarali xalqaro tajribalarni qo'llab borish hamda rivojlangan mamlakatlarning ushbu sohaga mas'ul bo'lgan regulyatorlari bilan muntazam hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy bankni **FinCoNet** tashkilotiga a'zo bo'lish ishlari yakunlandi.

Hozirgi kunda, xorijiy davlatlarning tajribasini o'rgangan holda moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish sohasi bo'yicha riskka asoslangan nazorat tizimini yo'lga qo'yish istiqbollari o'rganilmoqda.

#### **6.4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash**

2023-yilda Markaziy bankda murojaatlar bilan ishlash O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari doirasida ta'minlandi.

Markaziy bankka respublikamizning barcha hududlaridagi jismoniy va yuridik shaxslardan bank faoliyati bo'yicha turli mazmun va shaklda kelib tushgan murojaatlar belgilangan tartibda va muddatda ko'rib chiqilib, tegishli munosabat bildirib borilmoqda.


Murojaatlarning o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash bilan birga, bank xizmatlaridan foydalanishda yuzaga kelayotgan tizimli kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish – Markaziy bankning ushbu sohadagi faoliyatining asosiy mezonlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Markaziy bankning rasmiy veb-sayti va mobil ilova dasturi orqali jismoniy va yuridik shaxslardan murojaatlarni elektron shaklda hamda "Ishonch telefoni" orqali, shuningdek, sayyor qabullar tashkil etish orqali to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish va ularni ko'rib chiqish ta'minlanayotganligi, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlar tahliliga ko'ra, aniqlangan tizimli muammo va kamchiliklar asosida amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali kredit tashkilotlarining faoliyatiga qo'yilgan talablar takomillashtirib borilmoqda.

6.4.1-chizma

### Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari soni



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida aholi ko'targan masalalarni joyida o'rganib hal qilish maqsadida olis va chekka hamda aholi zich yashaydigan hududlarda Markaziy bank rahbariyati tomonidan tashkil etilgan sayyor qabullarda murojaatchilar muammolarini joyida, xolis va tezkor hal etishga hamda qabullarning natijadorligi va aholining roziligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Markaziy bank raisi o'rinbosarlari tomonidan hududlarda tashkil etilgan sayyor qabullarda 308 nafar fuqaro va yuridik shaxslardan murojaatlar kelib tushdi hamda uning 86 foizi ijobiy hal etilib (*33,4 mlrd so'm miqdorida kreditlar ajratilgan*), 14 foiziga belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.


2023-yil mobaynida Markaziy bank apparatiga jami 4 983 ta (*2022-yilda 5 302 ta*) murojaat kelib tushgan bo'lib, uning 21 foizini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 52 foizini Markaziy bankka to'g'ridan-to'g'ri hamda boshqa vazirlik va idoralar orqali kelib tushgan yozma murojaatlar, 5 foizini Markaziy bank elektron pochta, 22 foizini Markaziy bank rahbariyati va mas'ul xodimlarining shaxsiy va sayyor qabullari hamda "Ishonch telefoni" orqali bildirilgan og'zaki murojaatlar tashkil etdi.



Ushbu murojaatlarning 2 176 tasi qanoatlantirildi, 2 688 tasiga tushuntirish berildi, 110 tasi tegishliligi bo'yicha boshqa vazirlik va idoralarga yuborildi hamda 9 ta murojaat anonim deb topildi.

6.4.2-chizma

### Markaziy bankka jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarda ko'tarilgan masalalar tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, yo'nalishlar bo'yicha murojaatlarning 57 foizi kredit masalalariga, 14 foizi bank hisob raqamlarini ochish, to'lov tizimi va naqd pulsiz hisob-kitoblar, 7 foizi bank xodimlarining xatti-harakatlari, 5 foizi bank faoliyati bo'yicha ma'lumotlar olish va takliflar, 5 foizi bank kartalari, terminallar va bankomatlar hamda 12 foizi boshqa masalalar hissasiga to'g'ri keladi.

Murojaatlar sonining kamayish dinamikasi bank tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida aholiga bank xizmatlaridan foydalanishda noqulayliklar va qiyinchiliklar tug'dirib kelgan ko'plab muammolarning bosqichma-bosqich hal qilib borilayotganligi bilan izohlanadi. Bunda, kreditlash jarayonlarini bosqichma-bosqich bozor mexanizmlari asosida tashkil etilayotganligi, mazkur yo'nalishda murojaatlar sonining kamayishiga va kreditlar samaradorligining yanada ortishiga xizmat qiladi.


## VII. XALQARO MUNOSABATLAR VA HAMKORLIK

2023-yilda xorijiy hamkorlar bilan makroiqtisodiy holat va bank tizimi tahlili, bank nazorati, to'lov tizimi, kiberxavfsizlik kabi Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan xalqaro aloqalar va hamkorlik ishlari davom ettirildi.

Hisobot yilida Markaziy bank vakillari ishtirokida xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy markaziy banklar va boshqa chet el tashkilotlari bilan jami **314 ta**dan (2022-yilga nisbatan 47 foizga ko'paygan) ortiq turli darajadagi uchrashuvlar o'tkazildi. Bunda, uchrashuvlarning 71 foizi oflayn (yuzma-yuz) tarzda tashkil etildi.

7.1-chizma

### 2023-yilda o'tkazilgan uchrashuvlar



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

### 7.1. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy Markaziy banklar bilan hamkorlik

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan xalqaro moliya institutlarining jami **22 ta** (2022-yilga nisbatan 30 foizga ko'paygan) texnik ko'mak missiyalari jalb etildi.

Xususan, XVJ makroprudensial hamda pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish, tashqi sektor statistikasini takomillashtirish yo'nalishlaridagi jami **6 ta** texnik ko'makdan foydalanildi.

## 2023-yilda Markaziy bankka xalqaro moliya institutlaridan jalb etilgan texnik ko‘mak missiyalari



Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

2023-yilning iyul oyida XVJ boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifi davomida Markaziy bank vakillari bilan mintaqa iqtisodiyotida kuzatilayotgan tendensiyalar haqida bir qator uchrashuv va muzokaralar bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, Markaziy bankda XVJ boshqaruvchi direktori yosh xodimlar hamda iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan Markaziy bank stipendiatlari bilan ochiq muloqot tarzida o‘tgan uchrashuvda yoshlar o‘zlari uchun qiziq bo‘lgan savollarga javob olishdi.

XVJ va Jahon bankining bahorgi va yillik anjumanlarida Markaziy bank vakillari Hukumat delegatsiyasi tarkibida XVJ va Jahon banki rahbarlari, shuningdek, bir qator xorijiy kompaniya va banklar bilan uchrashuv va muzokaralar olib borildi. Anjumanlarda Markaziy bank vakillari global iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, jumladan yuqori inflyatsiya sharoitidagi murakkabliklar, yuqori qarz darajasi va qat‘iy global moliyaviy sharoitlar kabi masalalar yuzasidan muhokamalarda ishtirok etdilar.

2023-yil davomida Jahon banki guruhi bilan banklarni sanatsiya qilish, banklardagi omonatlarni kafolatlash, riskka asoslangan nazorat tizimini joriy qilish, xalqaro rezervlarni boshqarish, banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarini boshqarish kabi qator muhim yo‘nalishlarda hamkorlik davom ettirilib jami 9 ta texnik yordam jalb qilindi.

Hisobot yilida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan ham hamkorlik davom ettirilib, pul-kredit siyosati kommunikatsiyasini, banklararo pul va REPO bozorini hamda likvidlikni boshqarish operatsiyalarini yanada takomillashtirish yo‘nalishlarida texnik yordam missiyalari jalb qilindi.

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki bilan moliyaviy xizmatlar iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish hamda moliyaviy savodxonlik, Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan O‘zbekistonda faktoring, ko‘char aktivlar asosida moliyalashtirish hamda Islom taraqqiyot banki bilan O‘zbekistonda banklar tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tizimini joriy qilish yo‘nalishlarida hamkorlik olib borildi.

2023-yilda Gruzija, Qozog‘iston, Shveysariya, Rossiya, Koreya, Armaniston, Portugaliya, Turkiya va Vengriya markaziy banklarining tashqi sektor statistikasi, riskka asoslangan bank nazorati, moliyaviy nazorat, ichki audit, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy etish, to‘lov tizimlarini rivojlantirish va nazorat qilish, moliyaviy barqarorlik, yuqori samarali nazorat texnologiyalarini (*SupTech*), moliyaviy xizmatlar iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish yo‘nalishlarida tajribalarini o‘rganish maqsadida Markaziy bank xodimlarining jami 12 ta xorijiy safarlari uyushtirildi.

Shuningdek, Germaniya Bundesbanki bilan moliyaviy barqarorlik, Turkiya Markaziy banki bilan inson resurslarini boshqarish hamda kommunikatsion siyosat yo‘nalishlarida, onlayn ravishda, tajriba almashinuvlari tashkil etildi.

Bundan tashqari, Shveysariya, Rossiya, Gruzija markaziy banklarining malakali mutaxassisleri ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida makroiqtisodiy modellashtirish, pul-kredit, ichki audit, SupTech hamda komplayens-nazorat yo‘nalishlarida jami 6 ta qo‘shma seminarlar tashkil etildi.

2023-yilda Qirg‘iziston, Armaniston, Qozog‘iston, Rossiya, Turkiya, AQSh, Koreya va Yaponiya regulyatorlari bilan ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish maqsadida rahbariyat darajasida turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etish orqali jami 16 ta xorijiy tashriflar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tashriflarda pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, raqamli valyuta, yashil moliyalashtirish, kibernetika xavfsizlik hamda moliyaviy ommaboplik mavzulari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat delegatsiyalari tarkibida Markaziy bank rahbariyati Singapur, Eron, Qatar, AQSh va Rossiya regulyatorlari bilan uchrashuvlarda qatnashdi.

Italiya va Avstriya Markaziy banklari bilan yangi aloqalar o‘rnatildi, shuningdek, Mongoliya Markaziy banki bilan o‘zaro hamkorlik sohasida anglashuv memorandumi imzolandi.

## 7.2. Xalqaro reyting kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik

2023-yilda xalqaro reyting agentliklari (*Fitch Ratings, Moody's Investors Service, S&P Global Ratings*) bilan uchrashuvlarda mamlakatning makroiqtisodiy holati, tashqi sektor statistikasi, pul-kredit siyosatining yo'nalishlari hamda bank tizimining joriy rivojlanish holati, xususan, bank tizimining moliyaviy ko'rsatkichlari va kuzatilayotgan tendensiyalar, davlat banklarining xususiyashtirish jarayonlarida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

O'z navbatida, muhokamalar natijalari, ushbu nufuzli agentliklar tomonidan O'zbekiston Respublikasining suveren reytingini baholash jarayonlarida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

“MasterCard Europe” kompaniyasi bilan hamkorlik to'g'risidagi o'zaro anglashuv memorandumini doirasida mamlakatda naqdsiz hisob-kitoblar tizimini yanada kengaytirish borasida qo'shma tahlillar o'tkazildi, shuningdek, kiberxavfsizlik, to'lov infratuzilmalarini rivojlantirish, moliyaviy ommaboplik, moliyaviy savodxonlik kabi yo'nalishlarida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish borasida tegishli “yo'l xaritalari” ishlab chiqildi.

2023-yil davomida davlatlararo va xalqaro integratsion birlashmalar, jumladan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni doirasida hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom Hamkorlik Tashkiloti, hukumatlararo va idoralararo komissiyalar (*qo'mitalar*) faoliyati doirasida tuzilgan ishchi guruhlar a'zosi sifatida Markaziy bank vakillari faol ishtirok etishdi.

Xususan, Jeneva shahrida (*Shveysariya*) bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning yig'ilishlarida Markaziy bank rahbariyati ishtirok etib, ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlar bilan muzokaralar davomida amaldagi qonunchilikka ko'ra, bank xizmatlari yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning Moliya vazirlari va Markaziy banklari rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan onlayn yig'ilishda tomonlar iqtisodiy o'sish strategiyalari hamda raqamli texnologiyalardan foylangan holda moliyaviy ommaboplikni rag'batlantirish yuzasidan fikr almashdilar.

Pokiston, Rossiya hamda Belarus Respublikasi bilan bo'lib o'tgan hukumatlararo qo'shma komissiyalarining davriy yig'ilishlarida Markaziy bank rahbariyati darajasida ishtirok etildi.

Moliyaviy ommaboplik alyansi (*MOA*) ko'magida ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlar ekspertlari bilan birgalikda moliyaviy ommaboplik, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va

raqamli xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv treninglari (*seminar, tajriba almashish, vebinarlar*) bo'yicha tadbirlar olib borildi.

Markaziy bank xodimlari Manila shahrida (*Filippin*) MOAning yillik umumiy yig'ilishi va Global siyosiy forumida ishtirok etishdi va Markaziy bank tomonidan moliyaviy ommaboplik yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida taqdimotlar qilindi.

2023-yil 25-aprel kuni Markaziy bank xodimlari Markaziy banklar va nazorat organlari moliyaviy tizimining ekologik tozaligini oshirish hamjamiyatining (*NGFS*) Yalpi majlisida hamjamiyatning yillik faoliyati hamda mazkur hamjamiyatga a'zo bo'lish istagini bildirgan ishtirokchi davlatlar masalasi muhokama qilindi.

Hisobot davrida Markaziy bank tomonidan Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari, Singapur, Xitoy hamda Isroil davlatlarining kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Ushbu hamkorlik doirasida mamlakatimiz bank tizimida kiberxavfsizlik sohasini rivojlantirish yuzasidan o'zaro tajriba va bilim almashish yo'lga qo'yilmoqda.

## VIII. XODIMLAR BILAN ISHLASH VA MALAKASINI OSHIRISH, ICHKI NAZORAT HAMDA TADQIQOTLAR BORASIDAGI FAOLIYAT

### 8.1. Tashkiliy tuzilma

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasi markaziy apparati – **28 ta** departament, **4 ta** xizmat va **2 ta** bo‘lim, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida **14 ta** hududiy bosh boshqarma hamda tasarrufdagi **5 ta** korxonadan tashkil topgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga Markaziy bankning markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmalarida jami **2 152** nafar ishchi va mutaxassislar faoliyat yuritmoqda.

### 8.2. Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish

2023-yilda xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirishda asosiy e‘tibor ishga qabul qilish jarayonlari shaffofligini ta‘minlash bilan birga, ish faoliyatini davom ettirayotgan xodimlarni o‘qitish orqali malakasini doimiy oshirib borishga qaratildi.

Xususan, bank faoliyati sohasida kasbiy malaka va bilimlar bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan 2023-yilda jami **4 ta kasbiy faoliyat turlari** ishlab chiqildi hamda belgilangan tartibda davlat va rus tillarida [mehnat.profstandart.uz](http://mehnat.profstandart.uz) saytiga joylashtirildi.

Markaziy bank tizimida mavjud **bo‘sh ish o‘rinlarini** butlash maqsadida yetakchi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik davom ettirilib, bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Markaziy bankning veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarida yoritib borilmoqda.

Ishga qabul qilish jarayoni ochiq tanlov asosida tashkil etilib, hujjatlarni topshirish, test sinovlarining **telegram-bot** orqali xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlash bosqichi hamma uchun bir vaqtda Google Meet platformasi yordamida onlayn shaklda amalga oshiriladi.

Suhbat jarayoni Markaziy bankning tajribali mutaxassislaridan iborat bo‘lgan ekspert guruhi tomonidan o‘tkazilib, unda xolislik, shaffoflik hamda barcha nomzodlarga teng imkoniyatlarni yaratib berish tamoyili asosida tashkil etildi.

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlari Markaziy bankning Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti mutaxassislari tomonidan muntazam monitoring qilinadi.

2023-yilda Markaziy bank va uning hududiy bosh boshqarmalariga ishga kirish uchun telegram-bot orqali 6 291 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan 1 828 nafar nomzod test sinovi bosqichiga tavsiya etildi hamda tegishli bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tgan 328 nafari bilan suhbat o‘kazildi.



Natijada, Markaziy bank bo'yicha jami **134** nafar, xususan, markaziy apparat bo'yicha **78** nafar hamda hududiy bosh boshqarmalar bo'yicha **56** nafar xodim ishga qabul qilindi.

HR yo'nalishidagi xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida malakali mutaxassislarni biriktirgan holda Markaziy bankka yangi ishga qabul qilingan yosh xodimlarni ish o'rinlariga tezroq moslashib jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga sharoit yaratildi.

Inson resurslaridan samarali foydalanish hamda ularni salohiyatini munosib rag'batlantirish maqsadida 2023-yilda 49 ta rahbarlik lavozimlari uchun 97 nafar kadrlardan iborat zaxira tarkiblari tasdiqlandi. Shundan, 2 nafari markaziy apparat tarkibiy bo'linma rahbari, 2 nafari hududiy bosh boshqarma boshlig'i lavozimlariga tayinlandi hamda zaxira tarkibidagi 8 nafar nomzod markaziy apparatda yuqori lavozimlarga o'tkazildi.

Zaxira tarkibidagi xodimlarning 2 nafari Buyuk Britaniya va AQSh universitetlari magistratura bosqichida ta'lim olib qaytdi, 1 nafar nomzod Buyuk Britaniya universiteti magistratura bosqichida va yana 2 nafar nomzod Bank-moliya akademiyasida tahsil olmoqda.

Iqtidorli yosh xodimlarni ishga jalb etish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida har yili **Markaziy bankning maxsus stipendiyasi bo'yicha tanlov** o'tkaziladi.

O'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra, Toshkent moliya instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Inxa universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining bank ishi, iqtisodiyot, banklarda buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan **20** nafar eng iqtidorli talabasi tanlab olindi.

Ular uchun Markaziy bankda bo'lib o'tayotgan seminar va amaliy tadbirlarda ishtirok etish, Markaziy bankning tegishli tarkibiy bo'linmalarida har kunlik amaliy malaka o'tashlari uchun sharoitlar yaratildi, shuningdek har bir stipendiatga malakali murabbiy biriktirildi.

### **8.3. Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar**

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari bo'lgan narxlar, banklar va to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirishda zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori salohiyatli xodimlarning roli muhim hisoblanadi.

Ushbu maqsadda 2023-yilda Markaziy bank tizimiga iqtidorli yoshlarni jalb etish, ularning salohiyati va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishga yo'naltirilgan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, 2023-yilda chet el markaziy banklari va xalqaro moliya institutlari tomonidan banklarni tartibga solish va nazorat qilish, makroprudensial siyosat, pul-kredit va makroiqtisodiy siyosat, yashil iqtisodiyot va moliyaviy ommaboplik hamda markaziy bank faoliyatiga oid boshqa yo'nalishlarda tashkil etilgan 116 ta o'quv tadbirlarida 185 nafardan ortiq xodimlar bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirdi.

Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari, tijorat banklari, mikromoliya va boshqa tashkilotlar xodimlari uchun Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari tomonidan 55 ta, xorijiy va mahalliy hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 46 ta o'quv tadbirlari tashkil etilib, ushbu tadbirlarda 2 000 dan ortiq xodimlar ishtirok etdi.

Mazkur o'quv tadbirlarini tashkil etish uchun xalqaro moliya institutlari, xorijiy markaziy banklar hamda IT kompaniyalar jalb etildi.

2023-yil davomida 8 nafar xodim Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida, 3 nafar – "IT-loyihalar" kurslarida, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini amaliyotda qo'llash bo'yicha 10 nafar – Markaziy bankda va komplayens nazorat yo'nalishida 2 nafar xodim Turkiyada malaka oshirishdi.

Markaziy bank tizimida ilmiy va amaliy ko'nikmalarga ega xodimlar salmog'ini oshirish hamda istiqbolli kadrlarni tayyorlab borish maqsadida tizimdagi ish tajribasiga ega yosh xodimlarning xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalarining magistratura va doktorantura yo'nalishlarida tahsil olish imkoniyatlari ham kengaytirib borilmoqda.

Xususan, Markaziy bankning jami 10 nafar xodimi chet el ta'lim muassasalarida, Erasmus Mundus qo'shma magistratura stipendiyasi doirasida 1 nafar, Yaponiyaning Siyosiy fanlar milliy institutida (*GRIPS*) 1 nafar, Tokio universitetida 1 nafar, Ritsumeykan universitetida 1 nafar, Xitotsubashi universitetida 1 nafar, Sukuba universitetida 1 nafar hamda 4 nafar xodim Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiyasiga sazovor bo'lib, hozirda Buyuk Britaniyaning Sasseks, AQShning Pensilvaniya davlat universiteti va Janubiy Florida universiteti hamda Germaniyaning Bonn universitetlarida magistratura yo'nalishi bo'yicha ta'lim olmoqda.

Shuningdek, Yaponiya Yokogama davlat universitetida 1 nafar va Yaponiya siyosiy fanlar milliy institutida (*GRIPS*) 1 nafar xodim doktorantura yo‘nalishini davom ettirmoqda.

2024-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasini tamomlagan **32** nafar, Bank-moliya akademiyasini tamomlagan **139** nafar hamda chet eldagi oliy ta‘lim muassasalarining magistrlik yo‘nalishlarida tahsil olgan **89** nafar xodim faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, xodimlarning nufuzli onlayn platformalarning o‘quv kurslarida ishtirok etishlari, mustaqil ta‘lim olishlari va xalqaro sertifikatlar olish imkoniyatlari kengaytirib borilmoqda.

Xususan, 2023-yilda **Xalqaro hisob-kitoblar banki Moliyaviy barqarorlik institutining FSI Connect** platformasida bank nazorati bo‘yicha Markaziy bankning **25** nafar xodimlari kasbiy bilim darajasini oshirishga qaratilgan o‘quv kurslarida ishtirok etdi.

Xodimlarga xalqaro darajada tan olingan sertifikatlariga ega bo‘lish imkoniyatlarini yaratish maqsadida Xalqaro darajadagi moliyaviy tahlilchi sertifikatini taqdim etuvchi institut (*Chartered Financial Analyst institute*) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu hamkorlik doirasida Markaziy bankning **16 nafar** xodimiga chegirma asosida xalqaro imtihonni topshirish imkoniyati yaratilib, **7 nafar** xodim CFA xalqaro sertifikatining birinchi bosqich imtihonida ishtirok etishdi.

Markaziy bank tizimida **166** nafar xodim **Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida** davlat tilida ish yuritish asoslari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini oshirish yuzasidan o‘quv kurslarida ishtirok etib, tegishli sertifikatlariga ega bo‘ldi.

#### **8.4. Pul-kredit va moliyaviy statistikasi takomillashtirish**

2023-yilda Markaziy bank tomonidan mamlakat pul-kredit statistikasi qamrovi to‘liqligini ta‘minlash borasidagi ishlar yakuniga yetkazilib, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha “Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi” hamda “Moliyaviy tashkilotlar (*moliya tizimi*) sharhi”larini yuritish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

“Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi” respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug‘urta va lizing tashkilotlari, to‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimi operatorlari, fond va valyuta birjalari, shuningdek, nobank kredit tashkilotlari va Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi kabi bank bo‘lmagan moliyaviy tashkilotlarning 2019-2023-yillar oralig‘idagi choraklik moliyaviy hisobotlari XVJ me‘yorlari asosida shakllantirildi.

Ushbu jarayonda XVJ Statistika departamenti ekspertlari bilan yaqin hamkorlikda muayyan ishlar amalga oshirilib, yakunda ularning ijobiy xulosasi olindi.

Mazkur yangi “Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi” va “Moliyaviy tashkilotlar (*moliya tizimi*) sharhi”larini 2024-yilning I choragidan boshlab Markaziy bankning rasmiy veb-saytida, O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalida, shuningdek, XVJning “kengaytirilgan Ma’lumotlarni Tarqatishning Umumiy Tizimi” hamda “Xalqaro Moliyaviy Statistika” platformalarida davriy ravishda e’lon qilinishi mo’ljallanmoqda.

2023-yilda Markaziy bank tomonidan XVJ metodologiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasining “Balans yondashuvi matritsasi (*Balance Sheet Approach Matrix*)”ni shakllantirish amaliyoti joriy qilindi. Mazkur tahliliy instrument o‘zida iqtisodiyot sektorlarining o‘zaro bog‘liqligi darajasini aks ettirib, 2019-2023-yillar bo‘yicha ma’lumotlarni qamrab oladi.

Balans yondashuvi matritsasini shakllantirishda pul-kredit va tashqi sektor statistikasi ma’lumotlaridan foydalanib hukumat, nomoliyaviy tashkilotlar hamda uy xo‘jaliklari sektorlariga tegishli moliyaviy aktiv va majburiyatlar pozitsiyalari hisoblanadi. Mazkur matritsa yordamida iqtisodiyot sektorlari o‘rtasidagi valyuta va kapital tarkibi bo‘yicha nomutanosibliklar hamda sektoral to‘lov qobiliyati baholanadi.

Markaziy bank tomonidan XVJ standartlari asosida pul-kredit statistikasi qamrovini tarixiy davrlar bilan boyitish borasidagi ishlar ham davom ettirilmoqda.

Xususan, Markaziy bank sharhi, Boshqa depozit tashkilotlari sharhi, Depozit tashkilotlari sharhi hamda Pul agregatlarining 2006-2013-yillar bo‘yicha oylik ko‘rsatkichlar hisoblanib, ularning sifatini oshirish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Hisobot yilida xalqaro moliya bozorida ma’lumotlarning yetakchi provayderi hisoblangan Bloomberg platformasida Markaziy bank sahifasini takomillashtirish yuzasidan ishlar davom ettirildi. Jumladan, Bloomberg kompaniyasi ekspertlari bilan hamkorlikda Markaziy bank sahifasida pul-kredit va tashqi sektor statistikasining tegishli statistik ma’lumotlarini real vaqt rejimida hamda avtomatik ravishda joylashtirib borish yo‘lga qo‘yildi.

### **8.5. Markaziy bank faoliyatidagi tahlil va tadqiqotlar**

Global iqtisodiyot o‘zgaruvchan yangi an’anaviy noaniqliklar sharoitida vujudga kelayotgan iqtisodiy jarayonlarning ta’sirini baholashda fundamental tadqiqotlar olib borish hamda qarorlar qabul qilish jarayonlarida keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadda Markaziy bank tomonidan dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli (*DSGE*) ishlab chiqilib, mazkur model yordamida nafaqat

prognozlashtirish va tahlil, balki iqtisodiy jarayonlarni joriy holatdan kelib chiqib, turli ssenariylarni modellashtirish hamda undan amaliy tadqiqotlarda foydalanish yoʻlga qoʻyildi.

Xususan, DSGE modeli asosida “**Energiya sohasini erkinlashtirilishining energiya ishlab chiqarish taklifiga taʼsiri**” mavzusida tadqiqot ishi oʻtkazilib, tahlillarga koʻra, energiya sohasini erkinlashtirish borasidagi islohotlar ulgurji va chakana bozorda raqobatga asoslangan model asosida amalga oshirilganda energiya sohasida ishlab chiqarish samaradorligi yuqori boʻlishi aniqlandi.

Yashirin iqtisodiyotni makroiqtisodiy koʻrsatkichlar, davlat daromadlari va pul-kredit siyosatining samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatishi hamda mehnat bozorida nomutanosibliklarni yuzaga keltirishidan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyot hajmini baholash markaziy banklar uchun muhim hisoblanadi.

Bu yoʻnalishda, Oʻzbekistonda **yashirin iqtisodiyot koʻlami** xalqaro tajribada keng qoʻllaniladigan metodologiyalar asosida davriy baholanib, tahlil qilinib borilmoqda. Jumladan, 2023-yil uchun hisob-kitoblarga koʻra, Oʻzbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmining YaIMga nisbati 2022-yildagi koʻrsatkichga solishtirganda **0,5** foiz bandga qisqargani kuzatildi.

Bundan tashqari, savdo hamkor davlatlarning eksport va import operatsiyalari koʻlami “**aks statistikasi**” (*mirror statistics*) usulida oʻzaro taqqoslanib, Oʻzbekistondan amalga oshirilgan eksport hajmi savdo hamkor davlatlarning import hajmi bilan taqqoslangan holda baholandi va yuzaga kelgan farqlarning asosiy omillari tahlil qilindi.

Banklar oʻrtasida raqobat muhitining kuchayishi hamda yirik texnologik korxonalarining (*BigTech*) rivojlanishi tijorat banklarini yangi biznes modellariga, jumladan, raqamli bank xizmatlarini joriy etishga va nomoliyaviy xizmatlar koʻrsatuvchi korxonalar kapitalida ishtirok etishga undamoqda.

Ushbu ekotizimlar amaliyoti joriy etilganligiga uzoq muddat boʻlmaganligi sababli ularning faoliyati va rivojlanishi bilan bogʻliq yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklar, qonunchilik asoslari va tartibga solish mexanizmlari kam sonli tadqiqotlarda oʻrganilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, isteʼmolchilarga moliyaviy xizmatlar bilan bir qatorda nomoliyaviy mahsulot va xizmatlarni taqdim etadigan **ekotizimlar faoliyati** koʻlaming ortishi sharoitida **moliyaviy ekotizimlar va ularning rivojlanishi bilan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklarni** tahlil qilish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi.

Hisobot yilida moliyaviy vositachilikning iqtisodiy o‘shidagi o‘rni va so‘nggi yillarda O‘zbekistonda moliyaviy vositachilik ko‘rsatkichlaridagi tendensiyalar va uning samaradorligini tahlil qilish maqsadida **“Moliyaviy vositachilikning iqtisodiy o‘shishga ta’sir etish mexanizmi va samaradorligi tahlili”** mavzusida tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqot xulosalariga ko‘ra, 2017-2022-yillarda O‘zbekistonda moliyaviy vositachilik ko‘rsatkichlari nisbatan o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishi bilan birga, respublikamizda banklar vositachiligidagi samaradorlikning oshganligi kuzatilgan.

Shuningdek, tashqi qarz yukining oshib borishi bilan bir qatorda, moliyaviy resurslarning qimmatlashuvi sharoitida soliq tushumlari samaradorligini baholash hamda unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Ichki resurslardan samarali foydalanish hamda balanslashgan soliq-byudjet siyosatini yuritish imkoniyatlarini o‘rganish, soliq tushumlarining potensial va haqiqiy darajalari o‘rtasidagi farqni aniqlash maqsadida **“Soliq tushumlari dinamikasi va unga ta’sir qiluvchi omillar tahlili”** mavzusida empirik tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqot xulosasiga ko‘ra, mamlakatimizda asosiy soliq turlari (*daromad/foyda solig‘i hamda QQS*), shuningdek, bojxona to‘lovlari bo‘yicha tushum o‘z potensialidan ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan past darajada shakllanayotganligi, bu esa, o‘z navbatida, davlat tomonidan iqtisodiyot subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida berilayotgan turli imtiyozlar ta’sirida yuzaga kelayotganligi qayd etilgan.

Rivojlanayotgan davlatlar xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli, past foizli qarz mablag‘laridan iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, davlat investitsion dasturlarini amalga oshirish hamda davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishda keng foydalanmoqda. Mazkur jarayonlarning inflyatsion bosimlarga ta’sirini baholash maqsadida **“Davlat tashqi qarzi muddatlari va inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik”** mavzusida tadqiqot ishi o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlat umumiy qarzining YaIMga nisbati 30 foizgacha bo‘lgan intervalda shakllanishi inflyatsiyani o‘rtacha 7,8 foiz, 30-60 foiz intervalida – o‘rtacha 8,2 foiz, 60-90 foiz intervalida – o‘rtacha 9,2 foiz hamda 90 foizdan oshishi – o‘rtacha 22,1 foiz darajasida shakllanishiga olib kelishi aniqlandi.



Dollarlashuv darajasining tabiiy darajadan yuqori bo'lishi iqtisodiyotda nomutanosibliklarni keltirib chiqarishini inobatga olgan holda, **O'zbekiston uchun moliyaviy dollarlashuvning tabiiy darajasini** baholash bo'yicha tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2018-2023-yillar uchun hisoblangan umumiy dollarlashuvning tabiiy darajasi **24,8** foizga, 2023-yil yakuni bo'yicha esa **26** foizga teng bo'ldi. Shuningdek, muddatli depozitlarning tabiiy dollarlashuv darajasi mazkur davr uchun mos ravishda **21,4** va **21,6** foizni tashkil etdi.

Muvozanatli real foiz stavkasini baholash markaziy banklar tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati pozitsiyasini aniqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun **muvozanatli real foiz stavkasi** baholanib, bunda 2023-yilning I choragida iqtisodiyotda muvozanatli real foiz stavkasi **2,9** foizni, real foiz stavkasi 4,3 foizni tashkil etib, 1,4 foiz bandlik ijobiy tafovut hisobiga iqtisodiyotda "nisbatan qattiq" pul-kredit sharoitlari ta'minlangan.

Iqtisodiy o'zgarishlar davrida samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun iqtisodiyotning joriy holati bo'yicha tezkor va aniq ma'lumotlar muhim hisoblanib, bu borada Google Trends ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekiston **YaIM dinamikasini muqobil ko'rsatkichlar** orqali baholash imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish sohasidagi rasmiy va muqobil statistik ma'lumotlar o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud bo'lib, bu, o'z navbatida, iqtisodiy faollikni rasmiy statistik ko'rsatkichlar e'lon qilinguniga qadar baholashga va tahlil qilishga imkon beradi.

Shuningdek, aksariyat prognozlash modellari bir xil davriylikda bo'lgan ma'lumotlarni talab etib, ammo amalda rasmiy statistik ko'rsatkichlarning tarmoqlar kesimida e'lon qilinishi muddatlari va davriyligida (*oylik, choraklik*) farqlar kuzatiladi.

Turli xil davriylikdagi ko'rsatkichlardan kelib chiqib, qisqa muddatli prognozlashtirish imkoniyatini beruvchi aralash chastotali MIDAS modeli asosida YaIM dinamikasini baholash amaliyoti yo'lga qo'yildi. 2023-yilning oktyabr oyi ma'lumotlari asosida 2023-yil uchun YaIMning real o'sishi 5,6-6,0 foiz darajasida prognoz qilindi va ushbu prognozning yuqori chegarasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan 6,0 foizlik iqtisodiy o'sishga mos keldi.

Almashuv kursining o'zgarishi narxlar darajasiga bevosita, chet eldan import qilinadigan iste'mol mahsulotlari narxlari hamda bilvosita, ichki ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan import xomashyolari, texnologiya va ehtiyot qismlari narxlari orqali, shuningdek, almashuv kursining o'zgarishi bo'yicha kutilmalar kanallari orqali ta'sir qiladi.



Ushbu **almashuv kursi o'zgarishining bazaviy inflyatsiyaga ta'sirini** miqdoriy baholash maqsadida almashuv kursining inflyatsiya darajasiga ta'sirlari o'rganildi. Mazkur baholash natijalariga ko'ra, almashuv kursining 1 foizga qadrsizlanishi dastlabki uch oyda bazaviy inflyatsiyani 0,11 foiz bandga, uzoq muddatda 0,17 foiz bandga oshirishi aniqlandi.

ARIMA modelining iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognoz qilish natijalari barqarorlik xususiyatiga ega bo'lib, ko'p jihatdan murakkab ko'rinishga ega tizimli modellardan ham yaxshiroq natijalarni taqdim etadi.

ARIMA modeli asosida bazaviy inflyatsiya darajasini qisqa muddatli prognoz qilishda umumiy ko'rsatkich yoki uning tarkibiy guruhlarini kesimida prognozlashning samaradorligi o'rganildi. O'rganish natijalari bazaviy inflyatsiyani 58 ta guruhga bo'lish orqali olingan prognozlarning xatolik darajasi umumiy ko'rsatkich va umumiy ko'rsatkichning uchta asosiy guruhlariga bo'lgan holda hisoblangan prognozlarning xatolik darajasiga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatdi.

### 8.6. Ichki audit va komplayens-nazorat faoliyati

2023-yilda ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalardan kelib chiqib, Markaziy bankda ichki audit va korrupsiyaga qarshi komplayens-nazoratni takomillashtirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, **ichki audit yo'nalishidagi** ishlarni tashkil etishda asosiy e'tibor xalqaro tajriba asosida Markaziy bank faoliyatidagi **risklarni boshqarish tizimi** hamda **riskka asoslangan ichki auditni joriy qilishga** qaratildi.

Risklarni boshqarish tizimi tashkilotga yuklatilgan vazifalar ijrosi bilan bog'liq ish jarayonlarining (*biznes-jarayonlar*) samarali va uzluksiz bajarilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan risklarni (*noaniqliklar, muammoli masalalar, tizimli xato va kamchiliklar*) barvaqt aniqlash, risklarni yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir darajasini baholash hamda ushbu risklarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Riskka asoslangan ichki audit doirasida esa, audit tadbirlarini o'tkazish orqali risklarni kamaytirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar samaradorligi baholanadi, ularning yetarliligi hamda ijrosi holati o'rganiladi. Zarur holatlarda risklar qayta baholanadi hamda ularni boshqarishni yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berib boriladi.

Markaziy bankda shu paytgacha qo'llanib kelingan ichki audit yondashuvi asosan Markaziy bankda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, aktivlar butligi hamda qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlariga rioya etilishi masalalarini o'rganishga qaratilgan.

Hisobot yilida Markaziy bankda risklarni boshqarish tizimi hamda riskka asoslangan ichki auditni joriy qilish bo'yicha ishlarni jadallashtirish maqsadida XVJ "Markaziy bankda riskka asoslangan ichki audit asoslarini shakllantirish" bo'yicha navbatdagi texnik ko'magi jalb qilindi.

XVJ texnik ko'mak missiyasi tomonidan XVJ tavsiyalariga muvofiq Markaziy bankda riskka asoslangan ichki auditni joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holati ko'rib chiqildi hamda Markaziy bankning qator tarkibiy bo'linmalaridagi risklarni boshqarish bo'yicha amaliyotlar muhokama qilindi.


Texnik ko'mak missiyasi tashrifi yakuni bo'yicha Markaziy bankning ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'rta istiqbolda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab olindi hamda uning asosida **Markaziy bankda 2024-yilda riskka asoslangan ichki auditni joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejas**i ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, Markaziy bank tizimida 2023-yilda ichki auditni tashkil etish rejasiga muvofiq, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi korxonalar va hududiy bosh boshqarmalarda ichki audit tadbirlari o'tkazildi.

Xususan, 2021-yilda Markaziy bankning barcha 14 ta hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufidagi 4 ta korxonalari ichki auditdan o'tkazilgan bo'lsa, Markaziy bank tizimidagi barcha audit obyektlarini qamrab oluvchi 3 yillik audit sikli doirasida 2022-yildan boshlab ichki audit qamrovi kengaytirilib, Markaziy bank markaziy apparatidagi tarkibiy bo'linmalarda ham audit tadbirlarini o'tkazish amaliyoti joriy qilindi.

8.6.1-chizma

#### 2021-2023-yillarda Markaziy bank tizimida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

O‘z navbatida, 2023-yilda 6 ta hududiy bosh boshqarmalar, 4 ta tasarrufdagi korxonalar hamda 8 ta markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari ichki auditdan o‘tkazildi.

Markaziy bank tizimida 3 yillik riskka asoslangan audit siklining joriy qilinishi audit tadbirlarining maqsadlilikini ta’minlash bilan bir qatorda, ichki audit xizmati resurslaridan yanada samarali foydalanilishiga xizmat qilmoqda.


Hisobot yili davomida Markaziy bank tizimida **korrupsiyaning oldini olish yo‘nalishida** ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Markaziy bankka yuklangan barcha vazifalar bo‘yicha **korrupsiyaviy xavf-xatarlar** tahlil qilindi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va xavf-xatarlarni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, uning ijrosi ta’minlanmoqda.

Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufidagi korxonalari xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha yillik deklaratsiyalari tahlil qilinib, Markaziy bank tizimi bo‘yicha **“Manfaatlar to‘qnashuvi reyestri”** shakllantirildi hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Markaziy bank tomonidan 2023-yilda jami **182 ta** tender va tanlov asosida hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xo‘jalik shartnomalari tuzilgan bo‘lib, mazkur shartnomalar bo‘yicha xaridlarni amalga oshirishda ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarini oldini olishga qaratilgan o‘rganishlar o‘tkazildi.

8.6.2-chizma

### 2022-2023-yillarda Markaziy bank tizimida o‘tkazilgan korrupsiyaga qarshi o‘quv va targ‘ibot tadbirlari soni



Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

Shuningdek, hisobot davrida Markaziy bankka ishga qabul qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish yuzasidan jami **129** nafar nomzodlarning ma'lumotlari o'rganildi. Nomzodlarni o'rganishda ularning manfaatlar to'qnashuvi holatlari, avvalgi ish joyidagi xulq-atvori, mehnat faoliyatida unga yuklatilgan vazifalarni halol va holis amalga oshirganligi hamda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish bilan bog'liq ma'lumotlarga e'tibor qaratildi.

Xodimlar huquqiy ongini oshirish va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan Markaziy bank tizimida qariyb **70 ta o'quv va targ'ibot tadbirlari** tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid asosiy tushunchalar, qonunchilik va Markaziy bank ichki idoraviy hujjatlaridagi normalar va talablar yuzasidan **Qo'llanma**, xodimlar ish stoliga qo'yiladigan **"teybl-tent"** tayyorlanib, barcha hududiy bosh boshqarmalar hamda markaziy apparat tarkibiy bo'linmalariga yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktyabrdagi PQ-5263-sonli qaroriga muvofiq **37 ta** yangi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari **antikorrupsiyaviy ekspertizadan o'tkazildi**.

Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bank xodimlari tomonidan Gruziya Milliy bankining korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat sohasidagi tajribasi o'rganildi. Gruziya Milliy banki tajribasi asosida Markaziy bank tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish amaliyoti takomillashtirilmoqda.

## **IX. ILOVALAR**

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari\***  
(joriy narxlarda)

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	
	hajmi, mlrd so‘mda	real o‘sishi, foizda
<b>Yalpi ichki mahsulot</b>	<b>1 066 569,0</b>	<b>6,0</b>
Sanoat mahsuloti hajmi	665 821,9	6,0
Iste‘mol mollari ishlab chiqarish	189 009,7	7,3
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	404 648,6	3,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	352 064,1	22,1
Qurilish ishlari hajmi	149 864,1	6,7
Chakana savdo aylanmasi	326 160,1	9,1
Xizmatlar, jami	470 286,5	13,7
Tashqi savdo aylanmasi, mln dollarda	62 567,4	23,9
Eksport, mln dollarda	24 426,2	23,8
Import, mln dollarda	38 141,2	24,0
Tashqi savdo aylanmasi saldosini, mln dollarda	-13 715,0	x

\*Statistika agentligining dastlabki ma‘lumotlari

2-jadval

**Asosiy savdo hamkor davlatlarning 2023-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari\***

(o'tgan yilga nisbatan real o'zgarishi)

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Rossiya	Qozog'iston	Xitoy	Turkiya
<b>Yalpi ichki mahsulot, foizda</b>	<b>6,0</b>	<b>3,6</b>	<b>5,1</b>	<b>5,2</b>	<b>4,5</b>
Sanoat mahsuloti hajmi, foizda	6,0	7,0	4,2	4,2	0,8
Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi, foizda	4,1	0,1	-7,7	4,2	-0,2
Inflyatsiya, foizda	8,8	7,4	9,8	-0,3	64,8
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd dollarda	62,6	710,2	139,8	5 936,8	617,6
Eksport, mlrd dollarda	24,4	425,1	78,7	3 380,0	255,8
Import, mlrd dollarda	38,1	285,1	61,2	2 556,8	361,8

\*Milliy statistika xizmatlari ma'lumotlari



3-jadval

**2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo hamkorlari bilan amalga oshirgan eksport-import operatsiyalari\***

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi		Eksport		Import	
	mln dollar	ulushi, foizda	mln dollar	ulushi, foizda	mln dollar	ulushi, foizda
<b>Jami</b>	<b>62 567,4</b>	<b>100,0</b>	<b>24 426,2</b>	<b>100,0</b>	<b>38 141,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Xitoy	13 722,0	21,9	2 461,8	10,1	11 260,1	29,5
Rossiya	9 883,8	15,8	3 307,6	13,5	6 576,1	17,2
Qozog‘iston	4 398,9	7,0	1 372,5	5,6	3 026,4	7,9
Turkiya	3 099,7	5,0	1 248,5	5,1	1 851,2	4,9
Koreya	2 343,2	3,7	40,4	0,2	2 302,9	6,0
Turkmaniston	1 094,4	1,7	171,2	0,7	923,2	2,4
Germaniya	1 054,2	1,7	75,8	0,3	978,4	2,6
Fransiya	984,7	1,6	392,1	1,6	592,6	1,6
Qirg‘iziston	953,4	1,5	631,5	2,6	321,9	0,8
Afg‘oniston	867,0	1,4	856,7	3,5	10,3	0,0
Tojikiston	756,8	1,2	605,0	2,5	151,8	0,4
Hindiston	756,6	1,2	108,0	0,4	648,5	1,7
AQSh	657,3	1,1	155,4	0,6	501,9	1,3
Braziliya	656,6	1,0	4,4	0,0	652,3	1,7
BAA	626,0	1,0	261,7	1,1	364,2	1,0

\*Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlari

4-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari  
tarkibiy bo‘linmalari soni**

	01.01.2023-y.	01.01.2024-y.
<b>1. Kredit tashkilotlari, jami*</b>	<b>199</b>	<b>204</b>
<i>shu jumladan:</i>		
<b>Tijorat banklari, shundan:</b>	<b>32</b>	<b>35</b>
Davlat ulushi mavjud banklar	12	10
Boshqa banklar	20	25
<b>Nobank kredit tashkilotlari, shundan:</b>	<b>167</b>	<b>169</b>
Mikromoliya tashkilotlari	85	84
Lombardlar	81	84
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	1	1
<b>2. Tijorat banklari filiallari, jami</b>	<b>832</b>	<b>696</b>
<b>3. Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar)</b>	<b>1 543</b>	<b>1 816</b>
<b>4. 24/7 shoxobchalari</b>	<b>2 974</b>	<b>3 723</b>

\*Tijorat banklari hamda nobank kredit tashkilotlarining xorijiy davlatlarda filiallari mavjud emas

5-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari**  
(2024-yil 1-yanvar holatiga)

*mlrd so‘mda*

Banklar	Aktiv		Kredit qo‘yimalari qoldig‘i		Kapital		Depozitlar qoldig‘i	
	summasi	ulushi, foizda	summasi	ulushi, foizda	summasi	ulushi, foizda	summasi	ulushi, foizda
<b>Jami</b>	<b>652 157,1</b>	<b>100,0</b>	<b>471 405,5</b>	<b>100,0</b>	<b>97 079,2</b>	<b>100,0</b>	<b>241 686,6</b>	<b>100,0</b>
Davlat ulushi mavjud banklar	441 777,2	67,7	333 298,1	70,7	63 239,3	65,1	124 357,7	51,5
Davlat ulushi bo‘lmagan banklar	210 379,9	32,3	138 107,4	29,3	33 839,8	34,9	117 328,9	48,5

6-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining  
asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishi**

Ko‘rsatkichlar	mlrd so‘mda						O‘sishi (almashuv kursi ta’siri chiqarib tashlanganda), foizda	
	01.01.2023-y.			01.01.2024-y.				Nominal o‘sishi, foizda
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Aktivlar	556 746,3	264 550,7	47,5	652 157,1	291 790,8	44,7	17,1	12,4
Kredit qo‘yilmalari qoldig‘i	390 048,9	185 118,3	47,5	471 405,5	212 030,5	45,0	20,9	16,0
Depozitlar qoldig‘i	216 737,5	84 942,7	39,2	241 686,6	72 170,9	29,9	11,5	8,5
Kapital	79 565,4	359,2	0,5	97 079,2	394,8	0,4	22,0	22,0

7-jadval

## O'zbekiston Respublikasi bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari

mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	01.01.2023-y.			01.01.2024-y.		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar
<b>Aktivlarning majburiyatlarga nisbati, foizda</b>	<b>116,7</b>	<b>116,6</b>	<b>117,0</b>	<b>117,5</b>	<b>116,7</b>	<b>119,2</b>
Aktivlar	556 746,3	435 135,6	121 610,7	652 157,1	441 777,2	210 379,9
Majburiyatlar	477 180,8	373 216,4	103 964,4	555 077,9	378 537,9	176 540,1
<b>Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati, foizda</b>	<b>180,0</b>	<b>239,6</b>	<b>80,5</b>	<b>195,0</b>	<b>268,0</b>	<b>117,7</b>
Kreditlar	390 048,9	324 680,8	65 368,2	471 405,5	333 298,1	138 107,4
Depozitlar	216 737,5	135 534,4	81 203,1	241 686,6	124 357,7	117 328,9

8-jadval

## O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapital miqdori bo'yicha guruhlanishi

Ko'rsatkichlar	Jami		shulardan:													
			100 mlrd so' mgacha		100 mlrd so' mdan 200 mlrd so' mgacha		200 mlrd so' mdan 350 mlrd so' mgacha		350 mlrd so' mdan 500 mlrd so' mgacha		500 mlrd so' mdan 1 trln so' mgacha		1 trln so' mdan 2 trln so' mgacha		2 trln so' m va undan yuqori	
	banklar soni	miqdori, mlrd so' m	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda	banklar soni	ulushi, foizda
<b>01.01.2023-yil holatiga</b>																
Jami kapital	31	79 565,4	1	0,1	4	0,7	3	1,2	2	1,0	5	4,5	5	10,4	11	82,1
shundan, ustav kapitali	31	59 856,7	1	0,1	6	1,1	4	1,9	4	2,6	5	5,7	4	9,4	7	79,2
<b>01.01.2024-yil holatiga</b>																
Jami kapital	35	97 079,2			4	0,7	5	1,3	4	1,9	2	1,5	6	8,1	14	86,5
shundan, ustav kapitali	35	68 643,0			1	0,1	10	3,4	6	3,4	4	3,3	7	13,8	7	75,9

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlar miqdori bo'yicha guruhlanishi**  
(2024-yil 1-yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	Jami		Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlanishgan tijorat banklari taqsimoti									
	banklar soni	summa	3 trln so'ngacha		3 dan 10 trln so'ngacha		10 dan 30 trln so'ngacha		30 trln so'ndan yuqori			
			banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa		
<b>Aktivlar</b>												
Aktivlar	35	652 157,1	13	12 524,1	8	57 595,2	7	129 079,5	7	452 958,3	7	452 958,3
Kreditlar	35	471 405,5	13	4 481,0	8	33 852,4	7	94 429,0	7	338 643,2	7	338 643,2
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	35	148 621,4	13	555,5	8	18 373,2	7	34 219,2	7	95 473,5	7	95 473,5
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	35	322 784,1	13	3 925,5	8	15 479,1	7	60 209,7	7	243 169,7	7	243 169,7
Qisqa muddatli kreditlar	35	61 195,4	13	1 541,3	8	5 205,3	7	11 764,1	7	42 684,6	7	42 684,6
Uzoq muddatli kreditlar	35	410 210,2	13	2 939,6	8	28 647,1	7	82 664,8	7	295 958,6	7	295 958,6
Milliy valyutadagi kreditlar	35	259 369,9	13	3 116,0	8	24 635,0	7	61 035,4	7	170 583,4	7	170 583,4
Chet el valyutasidagi kreditlar	35	212 035,6	13	1 364,9	8	9 217,3	7	33 393,6	7	168 059,8	7	168 059,8
<b>Kapital va moliyaviy natijalar</b>												
Kapital	35	97 079,2	13	3 789,3	8	9 648,4	7	20 411,7	7	63 229,8	7	63 229,8
Kapital yetarliligi ko'rsatkichi, foizda	35	17,5	13	32,7	8	18,6	7	15,9	7	17,5	7	17,5
Sof foyda	35	12 380,0	13	266,0	8	2 396,0	7	3 491,1	7	6 226,9	7	6 226,9
Aktivlar daromadliligi, foizda	35	2,6	13	3,5	8	5,7	7	3,6	7	1,8	7	1,8
Kapital daromadliligi, foizda	35	14,2	13	9,5	8	29,2	7	19,0	7	10,8	7	10,8
<b>Majburiyatlar</b>												
Aholi omonatlari	35	86 344,6	13	2 938,9	8	15 506,3	7	18 559,2	7	49 340,2	7	49 340,2
Yuridik shaxslar depozitlari	35	155 342,0	13	3 900,8	8	22 329,2	7	35 940,2	7	93 171,9	7	93 171,9

mlrd so'mda

10-jadval

## O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

mlrd so'mda

Asosiy ko'rsatkichlar	2022-yil dekabr	2023-yil dekabr
<b>Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda</b>	<b>17,8</b>	<b>17,5</b>
Jami regulyativ kapital	83 413,0	105 914,5
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	467 999,7	603 944,6
<b>I-darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda</b>	<b>14,5</b>	<b>14,1</b>
Jami regulyativ kapital	67 793,5	84 910,8
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	467 999,7	603 944,6
<b>Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzlarning regulyativ kapitalga nisbati, foizda</b>	<b>9,0</b>	<b>9,9</b>
Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzarlar	7 466,8	10 515,5
Jami regulyativ kapital	83 413,0	105 914,5
<b>Muammoli kreditlar va mikroqarzlarning jami kreditlar va mikroqarzlarga nisbati, foizda</b>	<b>3,5</b>	<b>3,5</b>
Muammoli kreditlar va mikroqarzarlar	13 992,4	16 621,4
Jami kreditlar va mikroqarzarlar	396 130,4	481 158,3
<b>Aktivlar rentabelligi, foizda</b>	<b>2,5</b>	<b>2,6</b>
Soliq to'langunga qadar sof foyda	12 579,5	15 155,2
Aktivlarning umumiy summasi (davr uchun o'rtacha)	497 363,1	593 184,7
<b>Kapital rentabelligi, foizda</b>	<b>13,3</b>	<b>14,2</b>
Sof foyda	9 993,4	12 380,0
Jami kapital (davr uchun o'rtacha)	74 890,2	86 923,4
<b>Foizli marjaning yalpi daromadga nisbati, foizda</b>	<b>42,1</b>	<b>40,8</b>
Foizli marja	24 161,7	28 995,8
Yalpi daromad	57 343,9	71 049,6
<b>Foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati, foizda</b>	<b>46,5</b>	<b>46,2</b>
Foizsiz xarajatlar	26 688,4	32 836,1
Yalpi daromad	57 343,9	71 049,6
<b>Likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda</b>	<b>21,5</b>	<b>16,2</b>
Likvid aktivlar	119 709,5	105 421,1
Aktivlarning umumiy summasi	556 746,3	652 157,1
<b>Likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati, foizda</b>	<b>47,3</b>	<b>37,1</b>
Likvid aktivlar	119 709,5	105 421,1
Qisqa muddatli majburiyatlar	253 038,6	283 846,0
<b>Jami I-darajali kapitalning aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda</b>	<b>12,2</b>	<b>13,0</b>
I-darajali kapital	67 793,5	84 910,8
Aktivlarning umumiy summasi	556 746,3	652 157,1



11-jadval

## O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining muammoli kreditlari

mlrd so'mda

Sana	shundan:									
	Kreditlar			Muammoli kreditlar			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda			
	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar	Jami
01.01.2023-y.	390 048,9	324 680,8	65 368,2	13 992,4	12 643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1	3,5
01.01.2024-y.	471 405,5	333 298,1	138 107,4	16 621,4	13 267,2	3 354,2	3,5	4,0	2,4	3,5

12-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining  
daromadlilik ko‘rsatkichlari**

*mlrd so‘mda*

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.01.2023-y.	01.01.2024-y.
Foizli daromadlar	61 727,8	86 679,1
Foizli xarajatlar	37 566,1	57 683,3
<b>Foizli marja</b>	<b>24 161,7</b>	<b>28 995,8</b>
Foizsiz daromadlar	33 182,3	42 053,7
Foizsiz xarajatlar	11 811,9	13 272,8
Operatsion xarajatlar	14 876,5	19 563,3
<b>Foizsiz daromad (zarar)</b>	<b>6 493,9</b>	<b>9 217,6</b>
Kredit va lizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	13 862,7	18 413,1
Boshqa aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	4 213,4	4 645,1
Soliq to‘langunga qadar sof foyda (zarar)	12 579,5	15 155,2
Foyda solig‘ini to‘lash xarajatlari	2 587,2	2 775,2
<b>Sof foyda (zarar)</b>	<b>9 993,4</b>	<b>12 380,0</b>

Bank tizimi daromadlik ko‘rsatkichlari	2022-yil	2023-yil
Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,5	2,6
Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	13,3	14,2
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,3	4,4
Kreditlar bo‘yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo‘yilmalariga nisbati	6,2	6,2
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,1	5,2
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,9	4,9

13-jadval

## O'zbekiston Respublikasi bank tizimining kapital yetarliligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	01.01.2023-y.		01.01.2024-y.	
	mlrd so'mda	ulushi, foizda	mlrd so'mda	ulushi, foizda
I-darajali kapital	67 793,5	81,3	84 910,8	80,2
Asosiy kapital	67 598,1	81,0	84 865,9	80,1
Qo'shimcha kapital	195,4	0,2	44,9	0,0
II-darajali kapital	15 619,6	18,7	21 003,7	19,8
Jami regulyativ kapital	83 413,0	100,0	105 914,5	100,0
<i>Kapital monandlik darajasi, foizda</i>	<i>17,8</i>		<i>17,5</i>	
<i>I-darajali kapital monandlik darajasi, foizda</i>	<i>14,5</i>		<i>14,1</i>	

14-jadval

## O'zbekiston Respublikasi bank tizimining likvidlilik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2023-y.	01.01.2024-y.
<b>Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda</b>	19,4	14,9
<i>milliy valyutada, foizda</i>	18,7	13,8
<i>xorijiy valyutada, foizda</i>	20,2	17,3
<b>Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti, foizda (minimal talab - 100 foiz)</b>	211,6	164,8
<i>milliy valyutada, foizda</i>	216,8	157,0
<i>xorijiy valyutada foizda</i>	202,2	167,9
<b>Sof barqaror moliyalashtirish me'yori, foizda (minimal talab - 100 foiz)</b>	115,6	111,8
<i>milliy valyutada, foizda</i>	117,4	111,8
<i>xorijiy valyutada, foizda</i>	113,4	111,9
<b>Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti, foizda (minimal talab - 25 foiz)</b>	110,1	87,4

15-jadval

## O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha tasnifi

Ko'rsatkichlar	01.01.2023-y.		01.01.2024-y.		O'tgan yilga nisbatan, foizda
	mlrd so'mda	ulushi, foizda	mlrd so'mda	ulushi, foizda	
<b>Jami kreditlar</b>	<b>390 048,9</b>	<b>100,0</b>	<b>471 405,5</b>	<b>100,0</b>	<b>20,9</b>
Sanoat	126 646,6	36,0	140 152,0	29,7	10,7
Qishloq xo'jaligi	42 096,4	10,7	47 255,0	10,0	12,3
Qurilish sohasi	10 399,7	2,8	12 274,7	2,6	18,0
Savdo va umumiy xizmat	28 910,6	8,4	32 515,5	6,9	12,5
Transport va kommunikatsiya	29 672,6	8,8	34 341,9	7,3	15,7
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3 856,1	1,2	4 067,0	0,9	5,5
Jismoniy shaxslar	100 948,7	21,3	148 621,4	31,5	47,2
Boshqa sohalar	47 518,1	10,0	52 178,0	11,1	9,8

16-jadval

## O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari va depozit sertifikatlari tasnifi

mlrd so'mda

Sana	Jami	muddat bo'yicha:				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	31 kundan 180 kungacha	181 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
<b>01.01.2023-y.</b>	<b>216 737,5</b>	<b>92 552,6</b>	<b>4 463,0</b>	<b>25 587,5</b>	<b>26 854,6</b>	<b>67 279,9</b>
<i>ulushi, foizda</i>	100,0	42,7	2,1	11,8	12,4	31,0
<b>01.01.2024-y.</b>	<b>241 686,6</b>	<b>85 197,6</b>	<b>6 300,7</b>	<b>30 028,0</b>	<b>34 951,7</b>	<b>85 208,6</b>
<i>ulushi, foizda</i>	100,0	35,3	2,6	12,4	14,5	35,3

17-jadval

**Pul massasi va uning tarkibi**

Ko'rsatkichlar	01.01.2023-y.		01.01.2024-y.		O'tgan yilga nisbatan, foizda
	mlrd so'mda	ulushi, foizda	mlrd so'mda	ulushi, foizda	
<b>Pul massasi (M2), jami</b>	<b>189 085,1</b>	<b>100,0</b>	<b>212 086,1</b>	<b>100,0</b>	<b>12,2</b>
<i>shu jumladan:</i>					
muomaladagi naqd pullar (M0)	42 206,2	22,3	45 607,7	21,5	8,1
naqd pulsiz mablag'lar	146 878,9	77,7	166 478,4	78,5	13,3
<i>shundan:</i>					
milliy valyutada	96 625,9	51,1	118 820,7	56,0	23,0
chet el valyutasida	50 253,0	26,6	47 657,7	22,5	-5,2

18-jadval

## Rezerv pullar va uning tarkibi

Ko'rsatkichlar	01.01.2023-y.		01.01.2024-y.		O'tgan yilga nisbatan, foizda
	mlrd so'mda	ulushi, foizda	mlrd so'mda	ulushi, foizda	
<b>Rezerv pullar, jami</b>	<b>78 985,5</b>	<b>100,0</b>	<b>82 875,5</b>	<b>104,9</b>	<b>4,9</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Markaziy bankdan tashqaridagi naqd pullar	48 842,9	61,8	54 628,3	69,2	11,8
banklarning vakillik hisobvarag'idagi mablag'lari	27 276,1	34,5	25 054,5	31,7	-8,1
banklarning majburiy zaxiralardagi mablag'lari	2 638,0	3,3	2 843,5	3,6	7,8
Markaziy bank mijozlarining depozitlari	228,5	0,3	349,2	0,4	52,8